O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BERKINOV OYBEK TOXIR O‘G‘LI

# KIBERMAKONDA YOSHLAR MA’NAVIY HAYOTI

**Monografiya**

CHIRCHIQ - 2023
«Zebo prints»

**УДК: 332.332.08.**
**КБК: 887.223.10G 01**
**G 16**

**Berkinov O.T. / Kibermakonda yoshlar ma'naviy hayoti. /** Monografiya. - Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 108 bet.

*Monografiyada kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati, kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari va nazariy tahlili, kibermakonda axborotlashgan jamiyat va uning dolzarb muammolari, texnologiyalar davrida jamiyatni axborotlashtirish masalalari, axborot urushlari mazmun-mohiyati, asl maqsadi va niqoblanish (yoki jozibalanish) ko'rinishlari, yoshlar ma'naviyatiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, kibertahdidlarning yoshlar ma'naviy hayotidagi salbiy oqibatlari, kiberludomaniya va uning ta'sirlari, kibertahdidlarga qarshi kurashishning xalqaro tajribasi, O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik masalalari: nazariy va amaliyoti kabi masalalar tahlil etilgan.*

*Monografiya faylasuf olimlar, tadqiqotchilar va oliy ta'lim muassasalari Gumanitar fanlar fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan. Ushbu monografiya ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida tayyorlangan.*

**Mas'ul muharrir:**
**Gulchehra G'AFFAROVA,**
falsafa fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**
**Ilyoz SIDDIQOV,**
falsafa fanlari doktori, dotsent
**Nasriddin NAZAROV,**
falsafa fanlari doktori, professor

Monografiya Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (7-son bayonnoma, 2023 yil 30 may)

ISBN

© Berkinov O.T., 2023
©«Zebo prints», 2023

# KIRISH

Dunyoda internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, yangi aloqa vositalarining takomillashuvi va keng tarqalishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy sohalarning rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu jarayonlar ijtimoiy-ma’naviy hayotimizning muhim qismiga aylanib borayotgan kibermakonning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Kibermakonda amalga oshirilayotgan faoliyatlar insoniyatga qulayliklar berishi bilan birgalikda yetarlicha muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Kibermakon insonlar ongi, tafakkuri, ruhiyati va ma’naviyati uchun kurash maydoniga aylanib bormoqda. Har qanday masofadan ishlovchi aloqa vositalarining kibermakonda jam bo‘lishi uning imkoniyatlarini misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tardi. Bu imkoniyatlardan yovuz niyatli kimsalarning, siyosiy guruhlarning foydalanayotganligi hayotimizning barcha sohalari kabi ma’naviy hayotimizga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Ayniqsa, yoshlar ma’naviy hayotidagi transformatsiyalar bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi.

Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida: kibermakon; uning shakllanish va rivojlanish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari; ommaviy axborot vositalari; ma’naviy hayotning kibermakondagi transformatsiyalari; yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarga doir tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunday tadqiqotlarda kibermakonning kelib chiqishi va shakllanishi, virtual olamning ma’naviy manzarasi, kibermakon barqarorligi, kibermakonni tushunish, uning rivojlanishi, dinamikasi, norma va standartlarini tadqiq etish hamda insonlarning turmush tarzi, dunyoqarashi, e’tiqodi va ma’naviyatidagi o‘zgarishlar kabi mavzular tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, yoshlar ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlarga kibermakonning ta’siri masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda globallashuv sharoitida xavfsiz milliy axborot makonini saqlab qolish davlat siyosati darajasidagi masalaga aylanmoqda. Jumladan, jamiyatning

axborotlashuv jarayonida kibermakonda sodir bo‘ladigan yoshlar ma’naviyatidagi transformatsiyalarni nazorat qilish va yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Natijada, mamlakatimizda kibermakon, internet hamda raqamli bilimlarga oid o‘ziga xos bir qancha ilmiy - amaliy ishlar amalga oshrilayotgan bo‘lib, ularda “aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy-axborot vositalarida manaviy-axloqiy me’zonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish lozim”[1]. Albatta, bu jarayonlarda eng e’tibor beriladigan masala yoshlar va ularning ma’naviyatidir. “Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”ni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta’sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Shu ma’noda, Ma’naviyat va ma’rifat, “Taraqqiyot strategiyasi”, Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy “aql markazlari”ga aylanishi kerak”, deydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. Bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan va zarurati mavjud mazkur masalaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi 560-II-son «Axborotlashtirish to‘g‘risida», 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida», 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida», 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 282.

to‘g‘risida»gi farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Ushbu monografiyaning maqsadi** – kibermakonning yoshlar ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlarga ta’sirini falsafiy tahlil qilish.

Ushbu monografiyada quyidagi masalalar yoritilgan:

- kibermakon raqamlashgan dunyoning modeli ekanligi, kibermakonda amalga oshiriladigan harakatlar inson ongi, ruhiyati va tafakkuriga ta’sirining o‘zaro aloqadorlik xususiyatlari ilmiy jihatdan o‘rganilgan;
- kibermakon o‘zida barcha axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, internet, ijtimoiy tarmoqlar, vep-saytlar va har qanday masofadan turib aloqa qiluvchi tarmoqlarni o‘zida jamlaganligi bilan tahdidlar maydoniga aylanganligi tahlil qilingan;
- globallashuv davrida yoshlar ma’naviy hayotidagi transformatsiyalarning jadallashuvi, kibermakonda yoshlar ma’naviy hayotini tartibga solish imkoniyatlarining cheklanganligi va bu jarayonda kibermakonda yuzaga keladigan tajovuzlarning o‘rni yuqori ekanligi;
- O‘zbekistonda yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kibertahdidlardan himoyalanish mexanizmini ishlab chiqishga tavsiyalar ishlab chiqildi.

Monografiyaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda ilgari surilgan g‘oyalar, ilmiy xulosalaridan yoshlar ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlarga va kibermakonda yuzaga kelayotgan tahdidlarga oid ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, amaliy ahamiyati, magistrlik ishining amaliy xulosalar, taklif va tavsiyalaridan kelgusi ilmiy faoliyatda, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”

strategiyasi va “Kiberxavsizlik to‘g‘risida”gi qonun bilan bog‘liq maqsad va vazifalarni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Monografiyaning “Kibermakon tushunchasining nazariy-metodologik tahlili” deb nomlangan birinchi bobida kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati, kelib chiqish tarixi, dunyo olimlarining kibermakon tushunchasiga bergan ta’riflari, kibermakonning bugungi kundagi ahamiyati; kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari, “kiberhujum” va “kiberterrorizm” harakatlarining kelib chiqish sabablari va oqibatlari tahlil qilingan.

Ikkinchi bob “Yoshlar ma’naviy hayotidagi transformasiyalar tahlili” deb nomlangan bo‘lib, unda Yoshlar ma’naviyatiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri; Kibertahdidlarning yoshlar ma’naviy hayotidagi salbiy oqibatlari o‘rganilgan.

Monografiyaning “Kibertahdidlarga qarshi kurashning zamonaviy mexanizmlari” deb nomlangan uchinchi bobida kibertahdidlarga qarshi kurashishning xalqaro tajribadan foydalanish; O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik masalalari bo‘yicha qilinayotgan nazariy va amaliy ishlar bayon etilgan. Monografiya yakunida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish, yoshlarda yod g‘oyalarga qarshi kurasha oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha; kibermakonda xavfsiz axborot maydonidan foydalanish qobiliyatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

# 1-BOB. KIBERMAKON TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK TAHLILI

XXI asr axborot texnologiyalari asri bo‘lib texnika vositasidan foydalanmaydigan yoki ushbu texnikalarga murojaat qilib o‘z faoliyatini yuritmaydigan insonni topish qiyindir. Bugungi global taraqqiy etgan jamiyatda har bir shaxs o‘z bilimi va mavqeyini axborot resurslari orqali keladigan ma’lumotlar bilan boyitib bormoqda. Texnika va texnologiyalarning imkoniyatlari va tezligi ortib borishi ularning insonlar hayot tarzining ajralmas qismiga aylanishiga olib keldi. Bugungi kunda har bir inson va uning faoliyati axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq ekani hech kimga sir emas. Dunyo yangi davr – axborot davrida yashamoqda. Uning tarixiga nazar solsak 1970-yillardan kompyuterlar uchun yangi dasturlar, tizimlar, xizmatlarning joriy etilishi aholi o‘rtasida ulardan foydalanishga bo‘lgan qiziqishning ortishiga xizmat qildi. Mazkur jarayonda ma’lum ko‘rsatkichlarga erishilgandan so‘ng, 1990-yillarga kelib ishlab chiqaruvchilar tomonidan ularning tannarxi tushirilishi kompyuterlarning ommaviy tarzda sotilishiga va odamlarning yanada ko‘proq qiziqishlariga sabab bo‘ldi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, kompyuterlarning, elektron qurilmalarning rivojlanishi barcha sohalarning yanada tezroq rivojlanishi uchun turtki bo‘lishi bilan birga insonlar o‘zlarIning barcha turdagi ehtiyojlarini qondirishning yanada oson yo‘llarini izlay boshlashlariga va ko‘plab vazifalarni kompyuterlashtirishga harakat qilishlariga turtki bo‘lishi oqibatida tarmoqlar ham asta-sekinlik bilan rivojlana boshladi.

## 1.1. Kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati

Kibermakon shakllanishi bilan bog‘liq muammolar – yoshlar ma’naviy hayotidagi transformatsiyalar, yoshlar dunyoqarashining xavfsizligini ta’minlash,

ularda virtual olamdagi jarayon va hodisalarga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish bilan bog‘liq masalalarga barcha davrlarda alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, Yunonistonda «Vir(t)» («Virt») o‘zagi asosidagi tushuncha mazmunini aniqlashda ikki yo‘nalish rivojlanib kelgan: «aflotuncha» (olam va uning qiyofalari muammolari)[2] va «arastucha»[3] (dolzarb va yashirin muammolar). Bundan tashqari, mavzu bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan «virtuallik» tushunchasi G.Leybnis va J.Lokk tomonidan tug‘ma g‘oyalar bilan bog‘liq holda «platoncha» ko‘rinishda o‘rganilganiga guvoh bo‘lish mumkin[4]. A.Bergson «virtuallik»ning falsafiy mazmuni rivojlanishida muhim bosqichni boshlab bergan[5]. Uning qarashlaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, «virtuallik» moddiy mezon asosida sodir etiladigan olam davomiyligidagi uzilishni anglatadi. Bu fikrdan ma’lum bo‘ladiki, virtuallik haqidagi tasavvurlar ko‘proq eksperimental ma’no-mazmunga ega bo‘lgan.

G‘arbda shaxs ma’naviyati va ularning kibermakondagi transformatsiyasi turli ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. XX asrning mashhur faylasuflari U.Gibson, K.F.Vayszekker, P.Devis, E.Kassirer, V.Klifford, A.Pays, I.R.Prigojin, I.L.Rozental, K.Xyubnerning tadqiqotlarida «kibermakon» tushunchasining «moddiy olam» va «virtual olam» g‘oyalari bilan tuslanishi, hatto, taqqoslanishi borasidagi fikrlar rivojlantirilgan. U.Gibson o‘z qarashlarida kibermakonni jamoaviy gallyutsinatsiyalar, inson tizimidagi har qanday kompyuterning xotira banklaridan olingan ma’lumotlarning grafik tasviri, aqlning ko‘rinadigan maydonini kuzatuvchi yorug‘lik chiziqlari nuqtai nazaridan tahlil qilgan[6].

MDH doirasida «kibermakon» muammosining falsafiy jihatlari A.R.Barishev, R.I.Vilkov, O.I.Radina, S.L.Vacenev, D.Y. Poverennaya kabi

[2] Платон. Собрание сочинений. – М.: Директ-Медиа, 2010. – Б. 341.
[3] Аристотель. Полное собрание сочинений. – М.: Директ-Медиа, 2002. – С. 70.
[4] Лейбниц Г. Новый опыт о человеческом разуме. – М., 2008, – С. 178; Джон Локк. Опыт о человеческом разуме. – М., 2006. – С.193.
[5] Бергсон А. Собрание сочинений, – М.: Материя и память, 2002. – С. 245.
[6] William Gibson. Neuromancer. – New York: 20th Anniversary Edition Ace Books, 2004. – № 4. -P. 87.

olimlar tomonidan o‘rganilgan[7]. Bundan tashqari, kompyuterdagi «estetik ehtiyojlar» va ularning transformatsiyasi masalalari N.Viner, S.I.Orexov, D.I.Dubrovskiy, R.F.Abdiev, D.V.Ivanov, M.B.Ignatev[8] va boshqa olimlar tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan, bu virtualistikaning butun muammolarini dolzarblashtirish va uni fan sifatida shakllantirishga turtki berdi. Rossiyalik olim I.A.Vasilenko istalgan davlatning kuchi va ta’siri uning axborot makonidagi o‘rni bilan bevosita bog‘liqligini tushuntirishga harakat qilgan[9].

O‘zbekistonda kibermakonning ontologik, gnoseologik, epistemologik va dialektik asoslarini tadqiq etgan olimlar qatoriga G.G‘.G‘affarova, A.K.Turashbekova, A.G.Muminov, A.Muxtorov, B.R.Karimov, V.Xayrullaeva, E.M.Izzetova, I.Saifnazarov, M.Nurmatova, N.B.Abdullaeva, N.A.Shermuxamedova, O.G‘aybullaev, T.Sultanova, Sh.S.Qo‘shoqov, M.Z.Abdullaeva, Z.D.Davronov, kabilarni kiritish mumkin[10]. Shuningdek, A.G.Mo‘minov, A.Erkaev, A.Tulyaev, D.S.Kadirova, M.Erkaboev,

---

[7] Барышев А.Р. Киберпространство и проблема отчуждения: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Красноярск, 2009. –С. 65. Вылков Р.И. Киберпространство как социокультурный феномен, продукт технологического творчества и проективная идея // Философские исследования. –Екатеринбург, 2009, – № 1. – С. 147; Радина О.И., Васенев С.Л., Поверенная Д.Ю. Социальные сети как инноватsiонная технология позиционирования индустрии красоты. – Interactive science. – М., 2020. – №4 (50). – С. 215.

[8] Винер Н. Кибернетика и общество. - М.: АСТ, 2003. – С 280., Орехов С.И. Поиск виртуальной реальности. –Омск. Издательство ОмГПУ, 2002. – № 2 (3). – С 214., Дубровский Д.И. Проблема духа и тела: возможности решения. –М.: Вопросы философии, 2002. – №4. – С. 92-107; Абдеев Р.Ф. Философия информатsiонной цивилизатsiи. – М.: Владос, 1994. – С. 336.

[9] Василенко И.А. Геополитика современного мира. – М., 2006. – С. 317.

[10] Abdullaeva.N.B. Zamonaviy o‘zbek matbuoti dizaynining estetik xususiyatlari (jurnallar misolida): Fals. fan. nom. ... dis. avtoref. –Toshkent, 2010. –B. 22; Abdullaeva M.Z. Kibermakon va islom bilan bog‘liq diniy-ma’naviy jarayonlar: Tar. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent, 2020. – B.16; Nurmatova M. A. Shaxs ma’naviy kamolotida estetik va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi muammosi: Fals. fan. dok. ... dis. –Toshkent: O‘zMU, 2011. –74 b., Muminov A.G. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2013. – B. 12; Muxtorov A. Milliy g‘oya takomilida ehtiyoj va manfaatlar birligi: Fals. fan. dok. ...dis. –Toshkent, 2010. – B. 13; G‘aybullaev O. Shaxs estetik madaniyatining shakllanish va rivojlanish muammolari: Fals. fan. dok. ... dis. avtoref. –Toshkent, 2011. – 49 b., Саифназаров И. Социально-нравственная сущность современного трудового коллектива: Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Ташкент, 1992. – С. 50., G‘affarova G.G‘. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari: Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2019. – 49 b., Шермухамедова Н. Социално-философские аспекты формирования стиля научного мышления: Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Тошкент: Университет, 2002. –С. 35; Қўшоқов Ш.С. Постнеклассическая наука и циклистика: точки соприкосновения в методологии и стиле мышления // Материалы I Международной конференции «Циклы». – Ставропол: СевКавГТУ, 1999. – С. 104-105; Tulyayev A.I. Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil): Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2021. – B. 15; Турашбекова А.К. Научное мировозрение и его влияние не формирование стиля мышления творческой интеллегении: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Тошкент: Пед.институт, 1990. – С. 25; Хайруллаева В. Гибкост мышления и её методологическое значение: Автореф. дис. ... канд. филос. наук.– Тошкент, 2000. – 18 с. Султанова Т. Проблемы развитие интеллектуалного потенциала независимой Республики Узбекистан: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Тошкент, 1995. –С. 18;

O.Muhammadjonov, T.Do‘schonov, Sh.Rajabov kabi olimlar kibermakonning ma’naviy hayotga ta’sirlari haqida fikr yuritganlar[11]. G.G‘affarova murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik jihatlarini asoslash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.[12] A.Tulyaev o‘z tadqiqotlarida «virtual olam» muammolarini sotsiologiya, kibernetika, tibbiyot bilan o‘zaro aloqadorlikda tadqiq qilish muhimligini ta’kidlab, kishilarning hayot faoliyati kundan-kunga «virtual hamjamiyatda», «tarmoqli jamiyatda», «kibermakonda» faol amalga oshayotganligi haqidagi fikrlarni ilgari surgan[13]. Sh.Rajabov kibermakonda yoshlarning axborotlardan to‘g‘ri foydalanishi va estetik idealga intilishning zamonaviy innovatsion usul va vositalari falsafiy jihatdan o‘rganishga harakat qilgan[14].

Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki – “yoshlar ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlarga kibermakonning ta’siri” turli soha olimlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, tanlangan mavzu mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ilmiy-falsafiy jihatdan tizimli ravishda maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa mavzuning dolzarbligi, zarurati hamda ilmiy yangiligini belgilaydigan asosiy omillardan biridir.

Kompyuter tarmoqlarining rivojlanishi texnologiyalar sohasiga, fanga, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotga yangi bir tushuncha – “kibermakon”ni olib

---

[11] Erkaboev M., Do‘schanov T. Tafakkur va hayot uyg‘unligi // Muloqot. – Toshkent, 2003. – № 3. – B. 13; Muminov A.G. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2013. – B. 12; Muxammadjonov O. Huquqiy tafakkur mahsuli: parlamentchilik taraqqiyoti // Tafakkur. – Toshkent, 2003. – № 2. – B. 4-9; Erkaev A. Tafakkur erkinligi mezonlari // Tafakkur. – Toshkent, 2006. – № 1. – B. 14;

[12] G‘affarova G.G‘. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari: Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2019. – 49 b

[13] Tulyayev A.I., Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil): Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2021. – B. 15.

[14] Rajabov.Sh.Sh., shaxs estetik ehtiyojlarining kibermakondagi transformatsiyasi.Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2021. – B. 15.

kirdi. “Kibermakon” tushunchasi (ingliz. cyberspace) ikki qismdan “Cyber” va “Space” tushunchalaridan iborat. Bu so‘zlar Oksford inglizcha lug‘atida keltirib o‘tilgan. Yunonchadan so‘zma-so‘z tarjima qilinganda κυßενήτες – “hukmdorlar” deb tarjima qilinadi.[15]

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990-yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

“Kibermakon” atamasi birinchi marta tasviriy san’atda 1960-yillarning oxirida, daniyalik rassom Syuzanna Ussing va uning sherigi me’mor Karsten Xoff o‘zlarini “Kibermakon atelyesi” deb tanishtirganlarida paydo bo‘lgan.[16] Ushbu nom ostida ular inson harakati va yangi materiallarning xatti-harakatlari kabi turli xil ta’sirlarga moslasha oladigan ochiq tizimlar printsipiga asoslangan “sezgi bo‘shliqlari” deb nomlangan bir qator tasvirlarni yaratdilar. Rassomlar o‘zlarini bu nom bilan ataganlarida kibermakon tushunchasining hozirgi kundagidek muhim va dolzarb masala ekanligini o‘ylamaganlari aniq.

Keyinchalik, kibermakon tushunchasini kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982-yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi.[17] Gibson 1990-yilda yozib tugatgan «Neuromancer» («Asabli manzaralar tasvirlovchisi», «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida ham qo‘llagan.[18] Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida tasvirlangan. Bu yerda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida subyektiv psixologik holat sifatida namoyon bo‘ladi.[19]

Uilyam Gipsonning qarashlaridan shuni aytish mumkinki, odamlarning ommaviy ravishda bir narsa ortidan ergashishlarini yoki o‘zgacha bir olamda

[15] Oxford dictionary of English. Oxford, 2010.
[16] Jacob Lillemose and Mathias Kryger, “The (Re) Invention of Cyberspace,” Kunstkritikk, kunstkritikk.com/kommentar/the-reinvention-of-cyberspace/ (accessed October 18, 2017).
[17] Конвенция о преступности в сфере компьютерной информации ETS № 185 (Будапешт, 23 ноября 2001 г.) [Электронный ресурс] // https://base.garant.ru/4089723/
[18] Scott Thil (March 17, 2009). "March 17, 1948: William Gibson, Father of Cyberspace". WIRED.
[19] Абдуллаева М.З. Кибермакондаги диний жараёнларни ўрганишдаги ёндашувлар // Ўзбекистон халқаро ислом академияси илмий таҳлилий ахборот. – Тошкент, 2018. - № 1. – Б. 60-65.

to‘planayotganliklarini aks ettiradi. Oradan bir necha yillar o‘tib ushbu so‘z onlayn kompyuter tarmoqlari bilan taniqli bo‘ldi. «Neuromancer» asarining bir qismida ushbu tushuncha haqida quyidagicha ta’rif keladi: “*“kibermakon”* – matematik tushunchalarni o‘rgatadigan bolalar tomonidan milliardlab qonuniy operatorlar tomonidan har kuni boshdan kechiriladigan kelishuvli gallyutsinatsiya ... . Inson tizimidagi har bir kompyuter qirg‘og‘idan olingan ma’lumotlarning grafik tasviri. Tasavvur qilolmaydigan murakkablik. Aqlning bo‘sh joyida yorug‘lik satrlari, ma’lumotlar to‘plamlari va yulduz turkumlari tarqaldi. Shahar chiroqlari singari, orqaga chekinish”[20]. Ushbu ta’rifga nazar tashlaydigan bo‘lsak kibermakonning hozirgi kunda bajarayotgan ishlari, vazifalari va xususiyatlaridan anchagina farq qiladi. Demak, kibermakon tushunchasi ilk paydo bo‘lgan paytida o‘zining tub mazmuni tushunilmagan.

Qiziqarli jihati hozir keng qo‘llaniladigan ushbu atama Gibson tomonidan ham tanqid qilindi va u 2000-yil namoyish etilgan *“*No Maps for These Territories*”*( Ushbu hududlar uchun xaritalar yo‘q) nomli hujjatli filmda atama kelib chiqishini sharhladi. Unda aytilishicha, men “kibermakon” so‘zini o‘ylab topganimda bilganim – bu shunchaki ta’sirli so‘z bo‘lib tuyulgan. Bu hayajonli va mohiyatli ko‘rinardi. Bu biron narsani anglatar edi, lekin men uchun ham haqiqiy semantik ma’noga ega emas edi, deydi.[21] Buni qarangki, yaratilayotganida deyarli hech qanday ma’noni anglatmayotgandek tuyulgan ushbu atama hozirgi dunyomizning ajralmas qismiga aylanib bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda “kibermakon” tushunchasi va u tashkil qilayotgan mazmun-mohiyatning darajasi u yaratilgan paytdagidan ancha yuqoridir.

Yangi asr boshiga kelib kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yanada kuchaydi va yangi tarmoqlar paydo bo‘la boshladi. Barcha turdagi texnologiyalarni masofadan turib boshqarish uchun ko‘plab izlanishlar olib borildi va yuqori

[20] Gibson, William (1984). Neuromancer. New York: Ace Books. p. 69. ISBN 978-0-441-56956-4.
[21] https://en.wikipedia.org/wiki/Cyberspace

natijalarga erishildi. Bu yangi texnologiyalarning yagona tarmoqqa birlashtirishga qaratilgan harakatlar kibermakonning yanada dolzarbligini oshirdi.

Kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyatini anglab yetishda u bajaradigan vazifaga alohida e'tibor qaratish lozim. Biroq, bugungi kunda koʻplab adabiyotlarda ushbu tushuncha haqida koʻplab notoʻgʻri ta'riflar mavjud. Bunga sabab hozirgacha kibermakon tushunchasining yagona ta'rifi yoʻqligidir.

Amerikalik ekspert F. D. Kramerning fikriga koʻra, gʻarbiy ilmiy doktrinada "kibermakon"ning 28 ta'rifi mavjudligini takidlab oʻtadi.[22] Doktrinada bir tushuncha haqida shuncha koʻp ta'riflarning borligi kibermakonning e'tibor markazida, dunyo uchun muhim va dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi. Doktrinada keltirib oʻtilgan ta'riflarning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz:

- "Odamlar har xil usulda muloqot qilishlari mumkin boʻlgan kompyuter tarmoqlari tomonidan yaratilgan jismoniy boʻlmagan makonni tavsiflaydi";
- "Kompyuterlar, ularning tizimlari, dasturlari va dasturiy ta'minotidan va dasturchilar, ma'lumotlar tahlilchilari va kompyuter texniklari kabi foydalanuvchilardan iborat boʻlgan jismoniy boʻlmagan makon";
- "Virtual obyektlar mavjud boʻlgan xayoliy joyni belgilaydigan virtual haqiqat bilan birgalikda ishlatiladigan atama";
- "Internet, telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuter tizimlari va oʻrnatilgan protsessor va tekshirgichlarni oʻz ichiga olgan axborot texnologiyalari infratuzilmalarining oʻzaro bogʻliq tarmogʻi";
- "Kiberhujum sodir boʻladigan onlayn muhitni, ya'ni internetni anglatadi";
- "Oʻzaro bogʻlangan kompyuterlar va aloqa tizimlarining global tarmogʻi";
- "Jismoniy shaxslar uchun interfaollik va fikr almashish bilan ajralib turadigan toʻliq ijtimoiy kiber tajribasini ta'minlash uchun IT-infratuzilmalarini, telekommunikatsiya tarmoqlarini va kompyuterni qayta ishlash tizimlarini birlashtirgan global tarmoq";

---

[22] Россия Федерацияси киберхавфсизлик стратегияси лойиҳаси [електрон ресурс] УРЛ: http://council.gov.ru/media/files/41d4b3dfbdb25cea8apdf

- “Internetda o‘zaro ta’sir o‘tkazish va almashish uchun yaratilgan interaktiv makon”;
- “Kibermakon bu kompyuter tarmoqlari orqali aloqa sodir bo‘ladigan shartli muhit”;
- “Kompyuter tarmoqlari orqali raqamli aloqa yuzaga keladigan virtual muhit; g‘oyalar, ma’lumotlar va aloqalarni Internet va tarmoq saytlari orqali bo‘lishishning ko‘p usullarini namoyish etish uchun ishlatiladigan raqamli texnologiya”;
- “Kompyuter tarmoqlari orqali aloqa sodir bo‘ladigan shartli muhit. Kibermakon apparat va dasturiy ta’minot kabi ko‘plab tizim elementlarining o‘zaro muvofiqligini talab qiladi”;
- “Bu virtual, global ulangan raqamli qurilmalar tarmog‘ini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama”.

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki kibermakon texnik, ijtimoiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalar uchun tegishli va o‘z doirasida muhim bo‘lgan tushunchadir.

Texnik jihatdan kibermakonni har qanday ko‘rinishdagi elektron qurilmalar, kompyuterlar, sistemalar va tarmoqlarning o‘zaro bog‘langan va umumiy qonuniyat asosida ishlovchi tizimlar majmuasi deyishimiz mumkin. D. Dobrinskaya fikricha, “kibermakon har qanday axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (shu jumladan, Internet) ishlash samarasidir”.[23] XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asri bo‘ldi, deb bemalol ayta olamiz. AKT vositalari misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib bormoqda va ularning ishlash mexanizmlari murakkablikdan oddiylikka, qoloqlikdan mukammallikka qarab bormoqda. AKT vositalari va har qanday masofadan turib ishlovchi qurulmalar faoliyati kibermakon ichida amalga oshirilishi D.Dobrinskaya fikrini asosli ekanligini ko‘rsatadi.

---

[23] Закон о кибербезопасности КНР // 全国人民代表大会 Цюаньго жэньминь дайбяо дахуэй [Всекитайское собрание народных представителей]. [Электронный ресурс] URL: http://www.npc.gov.cn/npc/xinwen/2016-11/07/contenthtm

Jamiyatning ijtimoiy jihatdan ehtiyojlarini qondiruvchi omil sifatida kibermakon eng samarali va qulay axborot almashinuv muhitini yarata olgan tizimdir. AQSh Kongressi tadqiqot xizmati kibermakonni “jismoniy va geografik joylashuvidan qat’iy nazar, kompyuterlar va telekommunikatsiyalar asosida yaratilgan odamlar oʻrtasidagi koʻplab aloqalarni qamrab oluvchi” deb ta’riflashni taklif qildi.[24] Darhaqiqat, bugun dunyo millionlab telekommunikatsiya vositalari, komyuterlar, masofadan ishlovchi elektron qurulmalar yordamida insonlar oʻrtasida aloqalar oʻrnatishning mukammal yoʻllaridan foydalanmoqda. Aloqalar oʻrnatish va axborotlar almashinuvida “makon” va “zamon” tushunchalari biroz eskirgandek. Insoniyat nafaqat Yerda balki, koinotda aloqa almashinuviga erisha oldi. Bir necha davlatlar koinotga oʻzlarining sun’iy yoʻldoshlarini olib chiqdilar. Birinchi sun’iy yoʻldosh SSSR tomonidan 1957-yil koinotga uchurildi. Bugungi kunda Yer orbitasida minglab sun’iy yoʻldoshlar mavjud boʻlib, odamlar oʻrtasidagi masofaviy aloqalarning bogʻlovchisiga aylandi. Bu bogʻlovchilarni ham bilashtirib turuvchi asosiy kuch kibermakondir.

Kibermakon siyosiy jihatdan oʻziga xos tayanch kuch sifatida barcha siyosiy doiralarda foydalaniladigan quroldir. Siyosiy jarayonlarning murakkablashuvi yangi kuchlarga boʻlgan ehtiyojning ortishiga sabab boʻldi. Ushbu ehtiyojlarning eng asosiy toʻldiruvchisi sifatida kibermakon maydonga chiqdi. Fransiyalik professor Si Laurent “kibermakon siyosiy kontekst bilan chuqur bogʻlangan ijtimoiy – texnik haqiqatdir” – deb ta’riflaydi.[25] Haqiqatan ham kibermakon siyosiy va ijtimoiy faoliyatni nazorat qilib turuvchi asosiy kuchlardan biriga aylanib boʻldi. Bugungi kunning eng katta siyosiy qurollaridan biri bu virtual olam ekanligi hech kimga sir emas. Oddiy misol sifatida 2022-yil yanvar oyida qoʻshni Qozogʻistonda aholi oʻrtasida boʻlib norozilik harakatlarini olishligimiz mumkin. Qozogʻiston Respublikasida aholi oʻrtasida hukumatga nisbatan norozilik

[24] Legality of the threat of use of nuclear weapons. ICJ Advisory Opinion, 8 July 1996, Pa39.

[25] Указ Президента РФ от 05.12.2016 № 646 «Об утверждении Доктрины информационной безопасности Российской Федерации» // Собрании законодательства Российской Федерации от 12 декабря 2016 г. № 50 ст. 7074

chiqishlari boshlanib, xavfli tus olishi bilanoq mamlakatda internet tarmog‘i o‘chirib qo‘yildi. Internet tarmog‘ini o‘chirib qo‘yishlikdan maqsad siyosiy vaziyatni yanada og‘irlashib ketmasligini ta’minlash edi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “yadro poligonlaridan ko‘ra mafkura poligonlari qudratli kuchga ega” degan gaplarini bugun biz isbotini aynan kibermakonda ko‘rmoqdamiz. Bugungi kunda mafkuraviy poligonlarning katta qismi kibermakonda tashkil qilinmoqda. Bu esa kibermakonning harbiy jihatdan ham muhim obyekt ekanligini ko‘rsatadi. Kibermakonni harbiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, dunyo yadro urushidan juda ham qo‘rqadi va imkon qadar yadroviy qurollanishga qarshi chiqadi. So‘ngi yillarda yadro urushidan ham ko‘ra ko‘proq xavf soluvchi kiberurushlar paydo bo‘ldi. Buni xavfliligi shundaki, hatto yadro qurollari ham kibermakon orqali boshqariladigan bo‘ldi.

Ko‘pgina atamalaridan farqli o‘laroq, “kibermakon” standart, obyektiv ta’rifga ega emas ekanligi ko‘rib chiqdik. Buning o‘rniga, u kompyuterlarning virtual dunyosini tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan, kibermakondagi obyekt kompyuter tizimi yoki tarmoq atrofida suzib yuruvchi ma’lumotlar blokiga ishora qiladi. Internet paydo bo‘lishi bilan kibermakon endi kompyuterlarning global tarmog‘ini qamrab oladi. Shunday qilib, do‘stingizga elektron pochta xabarini yuborganingizdan so‘ng, siz unga xabarni kibermakon orqali yuborganingizni aytishingiz mumkin.

Kibermakon kompyuterlar, mobil qurilmalar va masofadan turib o‘zaro aloqada bo‘lgan foydalanuvchilarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Internet, o‘z navbatida, ushbu kompyuterlar va mobil qurilmalarni ulash uchun ishlatiladi. Kibermakon internetdan kengroq, Internet kiber maydondagi bir vositadir. Zamonaviy sharoitda kibermakon axborotni tarqatish va saqlashning asosiy kanaliga aylandi.

Ingliz geografi professor Maykl Batti kibermakonni “uchrashadigan joy”, “yangi harakatlar qiladigan joy” deb ta’riflaydi va kibermakonni georafik jihatdan o‘rganadi. Maykl Batti Kibermakonni geografik to‘rt darajasini ko‘rsatib o‘tadi:

1) Joylashuvga ega bo‘lgan, kosmosning ilmiy tushunchalariga mos keladigan tushuncha;

2) Geografik makon kabi haqiqiy borliqda mavjud bo‘lgan joy asosida kompyuterlarda modellashtirilgan virtual makon;

3) Elektron qurilmalar orqali asta-sekin rivojlanib, takomillashib boruvchi kibermakon(kiberspace);

4) Kiberhujumlar uyushtiriladigan makon.

Maykl Batti kibermakonning aylanma modelini ishlab chiqdi*(1.1 chizma).*




*1.1 chizma*

Maykl Battining aylanma modelini kuzatib shuni xulosa qilish mumkinki, geografik ma’noda makon va kibermakon doimo bir-biriga ta’sir qiladi. Kibermakon doimiy harakatda va har xil makonlarda paydo bo‘la oladi va u kompyuterlar va foydalanuvchilarning masofadan (yuzma-yuz emas) o‘zaro ta’sirlashishi asosida rivojlanadi, kibermakon geografik ma’noda joy o'rtasidagi vositachi “kiberjoy dunyosi”dir. Kibermakon geografik jihatdan oradagi bo‘shliqlarni to‘ldiradi va bir butunlikni tashkil etadi.

Aleksandr Voyskunskiy kibermakonni uzluksiz va o‘z materiyasiga ega bo‘lgan dunyo va bu dunyoda odamlar o‘zlarining ongida kechayotgan narsalarni turli yo‘llar bilan boshqalarga taqdim etadilar deb ta’riflaydi. Uning fikriga kibermakonda cheksiz miqdordagi ma’lumotlar almashadi va insonlar o‘z

emmotsiyalarini bemalol ko‘rsata oladigan va turli o‘yin-kulgular o‘tkaza oladigan makon.[26]

Yuqoridagilardan xulosa sifatida kibermakonning quyidagi xususiyatlarini sanashimiz mumkin:

- insonlar tomonidan yaratilgan va boshqarilish qobiliyatiga ega bo‘lgan tizim;
- ehtiyojlarni qondiruvchi, yengilliklar, qulayliklar beruvchi va tezkorlik qobiliyati bilan ajralib turuvchi vosita;
- inson va texnologiyalarni birlashtiruvchi va ularni bir butunlikda ishlashga undovchi tarmoq;
- katta axborot bazasiga ega bo‘lgan elektron dunyo;
- ijtimoiy hayotda insonlar o‘rtasidagi muloqotning yangicha ko‘rinishi;
- kompyuter texnologiyalarining tizimlashgan va yagona qonuniyat asosida ishlaydigan ko‘p tarmoqli tizimi;
- makon va zamonda turli obyektlarni birlashtiruvchi va axborot beruvchi vosita;
- zamonaviy dunyoda yangi yashash muhiti;
- tabiiy va intelektual resurslar manbai;
- yangilanishlar va jivojlanishlarning muhim omili.

## 1.2. Kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari va nazariy tahlili

Kibermakon ham insoniyat tamadduni uchun misli ko‘rilmagan qulayliklar, imkoniyatlar berishi bilan birgalikda, turli xafv-xatarlarning avj olishiga ham sabab bo‘lmoqda. Chunki, cheksiz-chegarasiz mazkur vosita bugun buzg‘unchi

[26] Войскунский А.Е. Метафоры интернета // Вопросы философии. 2001. № 11. С. 64–79. URL: http://www.relarn.ru/human/cyberspace.html (дата обращения: 18.07.2017).

kuchlarning asosiy quroli va g‘oyalarini targ‘ibot qiluvchi qurol vazifasini ham bajarmoqda.

Afsuski, “elektron dunyo” turli siyosiy kuchlar uchun o‘zlarining terroristik, ekstremistik tashviqotlar va g‘oyalari, o‘z qarashlarini ommaga targ‘ib qilish, har xil jinoiy to‘dalar faoliyatlarini amalga oshirish yo‘lida asosiy qurol sifatida foydalanishmoqda. Yirik salbiy kuchlarning internet tarmog‘ida o‘zlarining mafkuraviy maydonlarini yaratib, internetda keng qamrovli axboriy terror – “elektron jihod” olib borayotgani, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar, muammolar paydo qilayotganlari dunyo mamlakatlari oldida axborot xavfsizligini ta’minlash muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Axborotlashuv jarayonining rivojlanishi kompyuter jinoyatchiligi va kompyuter terrorizmi kabi yangi jinoyatlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Yangi va o‘rganilmagan jinoiy soha sifatida insoniyat uchun xavfli hisoblangan kiberterrorizm muammosini hal etish alohida e’tibor talab qiladi. Internet tarmog‘idagi ochiq manbalar orqali biologik, kimyoviy hattoki yadro qurollarini tayyorlash texnologiyalarini o‘rgangan holda amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar e’tiborini tortmoqda. Saytlarni noqonuniy yo‘llar bilan buzish orqali kiberterrorchilar turli maxfiy ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Kibermakonda davlatlar milliy xavfsizligiga, siyosatiga aralashuvlar paydo bo‘ldi. Bu tizimning rivojlanishi yangi bir muammoni ham keltirib chiqardi. Bu muammo kiberhujumlardir. Kiberhujum – bu kibermakonda aktivga ruxsatsiz kirish yoki ruxsatsiz foydalanish orqali ma’lumotlarni oshkor qilish, o‘zgartirish, o‘chirish, yo‘q qilish, o‘g‘irlash yoki olish uchun har qanday urinishdir.[27] Barcha zamonlarda, ayniqsa, hozirgi taraqqiy etib borayotgan zamonda axborot eng katta qurol ekanligini hisobga olsak, kiberhujumlarning ham asosiy nigohi axborotlarga ega bo‘lishlikdir.

[27] (Standardization), ISO (International Organization for. "Publicly Available Standards". standards.iso.org.

Kiberhujum bu kompyuter axborot tizimlari, infratuzilmalari, kompyuter tarmoqlari yoki shaxsiy kompyuter qurilmalariga qaratilgan har qanday tajovuzkor manevr turidir. Kiberhujumlar kiberjang yoki kiberterrorizmning bir qismi bo'lishi mumkin. Kiberhujum suveren davlatlar, shaxslar, guruhlar, jamiyat yoki tashkilotlar tomonidan ishlatilishi mumkin va bu noma'lum manbadan kelib chiqishi mumkin. Huquqiy ekspertlar kiberhujum atamasini jismoniy ziyon yetkazadigan hodisalar bilan cheklashni, uni odatdagi ma'lumotlar buzilishidan va kengroq hakerlik harakatlaridan ajratib ko'rsatishga intilmoqda.[28]

Kiberhujumlar tobora takomillashib va xavfli bo'lib qoldi.[29] 1980-yillarning oxiridan boshlab kiberhujumlar bir necha bor rivojlanib, axborot texnologiyalaridagi yangiliklarni kiberjinoyatlar uchun vektor sifatida ishlatmoqda. So'nggi yillarda kiberhujumlarning ko'lami va mustahkamligi tez sur'atlarda o'sib bormoqda, buni Jahon iqtisodiy forumi o'zining 2018-yilgi hisobotida kuzatgan: "Hujumkor kiber imkoniyatlar bizning dushmanlik hodisalarini ko'rib chiqish qobiliyatimizdan ko'ra tezroq rivojlanmoqda."[30] 2000-yil may oyida Internet Engineering Task Force RFC 2828-dagi hujumni quyidagicha aniqladi: aqlli tahdiddan kelib chiqadigan tizim xavfsizligiga qarshi hujum, ya'ni xavfsizlik xizmatlaridan qochish va tizimning xavfsizlik siyosatini buzish uchun qasddan qilingan urinish (ayniqsa usul yoki uslub ma'nosida) bo'lgan aqlli harakat.[31] Amerika Qo'shma Shtatlarining Milliy xavfsizlik tizimlari qo'mitasining 2010-yil 26-apreldagi 4009-sonli CNSS yo'riqnomasida hujum quyidagicha ta'riflanadi: axborot tizimi resurslarini yoki ma'lumotni o'zi to'plash, buzish, rad etish, yomonlash yoki yo'q qilishga urinayotgan har qanday zararli faoliyat. Zamonaviy jamiyatning axborot va kompyuter tarmoqlariga tobora ko'proq qaramligi (ham

[28] SATTER, RAPHAEL (28 March 2017). "What makes a cyberattack? Experts lobby to restrict the term". Retrieved 7 July 2017.
[29] S. Karnouskos: Stuxnet Worm Impact on Industrial Cyber-Physical System Security.In:37th Annual Conference of the IEEE Industrial Electronics Society (IECON 2011), Melbourne, Australia, 7-10 Nov 2011. Retrieved 20 April 2014.
[30] World Economic Forum (2018). "The Global Risks Report 2018 13th Edition" (PDF). World Economic Forum. Archived from the original (PDF) on 19 June 2018. Alt URL)
[31] Internet Security Glossary. doi:10.17487/RFC2828. RFC 2828.

xususiy, ham davlat sektorida, shu jumladan harbiy sohada) kiberhujum va kiberjang kabi yangi atamalarni keltirib chiqardi.

Kiberterrorizm aslida axborot texnologiyalari ichki faoliyatiga noqonuniy aralashish, kompyuterda mavjud dasturlar yoki ma’lumotlarni maqsadli ravishda yo‘q qilish, zarar keltirish, davlat organlarining muhim qismlari faoliyatini izdan chiqarish bilan birga insonlar hayotiga xavf solish, moddiy zarar keltirish yoki ommaviy qo‘rqitish, harbiy nizolar kabi turli zararli oqibatlarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatdir. Kiberterrorizmning shiddat bilan o‘sib borishining yana bir sababi, u qurol-yarog‘ yordamida amalga oshiriladigan terrorchilik harakatidan arzonga tushadi, jangovar harakatlar, portlashlar, xunrezliklar bo‘lmaydi. Buzg‘unchi harakatlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Internet tarmog‘i o‘zining tezkorligi, tejamkorligi va ochiqligi, nazoratning sustligi yoki umuman yo‘qligi, dunyo bo‘ylab tarqalgan foydalanuvchilarning mavjudligi, axborotlarning tez va arzon yo‘l bilan to‘liqligicha tarqatilishi, hamfikr guruhlarning tashkil etish mumkinligi, aloqalarning anonim ekani, asl manbani aniqlash imkonsizligi, strategik obyektlar, harbiy tashkilotlar kompyuterlariga noqonuniy ulanish imkonining mavjudligi, tarmoqlarning yashovchanligi bilan terrorchi tashkilotlarni o‘ziga jalb qilayotir. Bugun terrorizm terrorchilar yashirinib yurgan yoki bosh qarorgohlari joylashgan muayyan davlat hududi bilan chegaralanib qolayotgani yo‘q. Ular allaqachon kiber olamga ko‘chib ulgurganlar.

Terrorchi tashkilotlar o‘z saflarini kengaytirish hamda maqsadlariga erishishda texnika va internetning so‘nggi imkoniyatlaridan ustamonlik foydalanmoqdalar. Shu yo‘l bilan terrorchilik harakatlari, maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish, o‘z g‘oya va mafkurasini omma orasida tarqatish bilan birga internet foydalanuvchilariga axborot-psixologik ta’sir o‘tkazish,odamlar o‘rtasida vahima uyg‘otish, terrorchilik harakatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun mablag‘ yig‘ish, zaharli moddalar, portlovchi vosita va qurilmalar hamda ularni

tayyorlash texnologiyasi haqida ma'lumot berish, terrorchilik tashkiloti safiga yangi a'zolarni qabul qilish singari harakatlarni amalga oshirishmoqda.

Hozir psixologik jihatdan ishlov berilgan, jangarilarning jihodiy nashidalar bilan yo‘g‘rilgan videoroliklari bilan bir qatorda mobil ilova-yu, terrorchilar belgisi aks ettirilgan buyumlarni sotib olish imkonini beruvchi internet do‘konlar ko‘payib borayotganiham kiberterrorizmning tarkibiy unsurlariga aylangan. Biz ana shun xavfdan har doim ogoh bo‘lshimiz, farzandlarimizni ularning ta'siridan har tomonlama himoya qilishimiz lozim. Shu bilan bir qatorda, Braziliya, Filippin, Quvayt va Vatikan kabi davlatlar kibermakonidagi internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil telefonlar va ilovalardagi din bilan bog‘liq muammolar avj olayotganini bilib olish mumkin.

Kibermakonda dinning vujudga kelganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, o‘zining turli-tumanligi va jamiyat hayotining har sohasi va har qatlamini qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Zero, mazkur yo‘nalishdagi jarayonlar nafaqat u yoki bu davlatda, balki, mustaqil O‘zbekiston sharoitida ham rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Shuni e'tiborga olgan holda, mazkur mavzu doirasidagi ilmiy tadqiqotlarni tahliliy o‘rganib, jamiyatda kuzatilishi mumkin bo‘lgan muammolarga echim topish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero, bugungi globallashuv jarayonida, axborot asrida “o‘rgimchak to‘ri” deb, atalgan internet tarmog‘i orqali har qanday ma'lumotni, g‘oyani dunyoni istalgan joyiga bir zumda yetkazish imkoniyati bor. “Bir yaxshini, bir yomoni bor” deganlaridek, texnika taraqqiyoti, tezkor axborot odamlarga ulkan qulayliklar yaratish bilan birga, manfur kimsalarni o‘z manfatlari yo‘lida ayrim irodasiz insonlarni “o‘lja” sifatida ovlash imkoniyatini berish darajasidagi makkor g‘oyalarini tarqatish imkoniyatlarini ham oshirmoqda. Ular kibermakonda “in qurib” olib global miqyosda mafkuraviy, diniy va ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lmoqda.

Xakerlar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida davlat idoralari, moliya tizimlari, xalqaro tashkilotlarning ma'lumot zahiralariga hujum uyushtirib, tartibsizliklarni

keltirib chiqaradilar. Kiberterorchilik o`smir yoshlarni qiziqishiga qarab turli buzgʻunchi va zararli gʻoyalarni jumladan, diniy ekstremistik gʻoyalarni oʻzida aks etirgan videolavhalar va fotosuratlarni tomosha qilishga jalb qiladilar. Bu bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga putur yetkazishga harakat qiladilar. Shuningdek, internet orqali, millat, milliy oʻzlik, vatan diniy qadriyatlar tushunchasini nisbiy xarakterga ega ekanligini roʻkach qilib, uni inkor etuvchi, oʻta xavfli boʻlgan kosmopolotizm (grekcha soʻz boʻlib, oʻzbek tilida "dunyo fuqorosi" degan ma'noni anglatadi) gʻoyasini targʻib qilmoqda.

Kosmopolitizm jahon davlati" va "jahon fuqoroligini targʻib qiluvchi ta'limot. Ularning fikricha, bugungi kunda ayrim insonlarning Vatanga bogʻlanib qolishi shaxs erkinligini cheklashiga olib kelmoqda emish. Albatta, bu buzgʻunchi va zararli gʻoya boʻlib, diniy e'tiqodlar, millatlar, davlatlar yaxlitligiga katta ziyon yetkazadi. Xullas, Kiberterrorchilar manqurt insonlarni shakllantirish orqali davlatlarda tinchlik va barqarorlik muhitini izdan chiqaradi.

## I bob boʻyicha xulosalar

Kibermakon tushunchasi oʻzida barcha sohalarni qamrab oluvchi ijtimoiy texnik fenomendir. Turli ilmiy adabiyotlarni tahlil qilgan holda kibermakon tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik:

- *texnik jihatdan,* internet, telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuter tizimlari va oʻrnatilgan protsessor va tekshirgichlarni oʻz ichiga olgan axborot texnologiyalari infratuzilmalarining oʻzaro bogʻliq tarmogʻi;
- *ijtimoiy jihatdan,* insonlar oʻrtasida oʻzaro axborotlar, gʻoyalar, mafkuralar almashadigan virtual muhit;
- *psixologik jihatdan,* inson ruhiyatidagi transformatsiya jarayoni atributlar – shakl, mazmun, kompozitsiya, joylashuv, ohang, matn va rang uygʻunligi,

garmoniya, ritm, uslub hamda ularning sifat va miqdor jihatdan o‘zgarishlar yuzaga keluvchi maydon;

- *siyosiy jihatdan,* kibermakon siyosiy kontekst bilan chuqur bog‘langan ijtimoiy – texnik haqiqatdir;

- *ma’naviy jihatdan,* turli xil jamiyatlarda shakllangan madaniyatlarni, qarashlarni, qadriyatlarni o‘zaro bog‘laydigan va insonlar ma’naviyatida transformatsiyalarga sabab bo‘luvchi makon.

Kibermakon va u bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarga nisbatan yakdil ta’rifning berilmaganligi juda ko‘plab munosabatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ayrim holatlarda bir biriga qarama-qarshi ta’riflarni ham ko‘rishimiz mumkin.

Kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanib qolganligining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni sanab o‘tamiz.

*Birinchidan,* kibermakonning tartibga solinmaganligi – bu sarhadsiz olamda har xil mazmundagi turfa xil ma’lumotlar uchraydi. Internet shu darajada inson qalbi va ongiga ta’sir qiluvchi kuchga aylandiki, unda targ‘ib qilinayotgan tartibsiz ma’lumotlarning afzalliklari yoki salbiy oqibatlarini ajratib olish juda qiyin masala.

*Ikkinchidan,* kibermakonda kiberhujumlarning mavjudligi – davlatlar, tashkilotlar va turli jamiyatlarning siyosiy, ijtimioy, iqtisodiy va madaniy hayotlariga aralashuvlar, talonchilik harakatlarining mavjudligi. Hakerlik faoliyatining yuqori darajada rivojlanganligi.

*Uchinchidan,* matn, tasvir va ovoz uyg‘unligidagi axborotni joylash kabi qulayliklar – ushbu axborot olamida dastlab matn ko‘rinishida bo‘lsa, hozirga kelib kibermakonda nafaqat matn, balki fotolavha, videolavha va ovoz uyg‘unligidagi ma’lumotlarni joylashtirish va ularni elektron manzillarga jo‘natish ham mumkin.

*To‘rtinchidan,* kibermakonda harakatlanishning osonligi – hozirgi kunda internetdan, ijtimoiy tarmoqlardan va turli xil elektron qurilmalardan foydalanish juda qulay bo‘lib qoldi. Bunda nafaqat kompyuter, balki zamonaviy planshetlar va

uyali aloqa vositalari, ya'ni telefonlar orqali ham kirib foydalanish imkoniyati mavjud.

*Beshinchidan,* cheksiz auditoriya – global tarmoqda turli fikr va qarashdagi milliardlab odamlar mavjud. Bu sarhadsiz olamda kishilar turli mavzularda fikr almashadi, o'zaro baxs-munozaralar qiladi. Bunday odamlar gavjum go'shadan unumli foydalanish uchun terrorchilar kibermakonni o'zlarining "ov makoni"ga aylantirib olmoqda.

*Oltinchidan,* ma'lumotlarning yetkazish tezkorligi – virtual tarmoq orqali bir axborotni yashin tezligida dunyoning bir burchagidan narigi burchagiga yetkazish mumkin. Ushbu qulaylikdan, taassufki, yovuz niyatli shaxslar ham o'z manfur mmaqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanishmoqdalar.

*Yettinchidan,* kibermakondagi faoliyatlarning maxfiyligi – o'rgimchak to'rida faoliyat olib borayotgan shaxslar anonim, ya'ni yashirin holatda faoliyat olib borishlari mumkin. Bu kabi maxfiy faoliyatning g'oyaviy tazyiqi va ta'sirining o'ziga xosligi shundaki, bunda "maqsadli ish" o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan, zimdan amalga oshiriladi.

# 2-BOB. KIBERMAKONDA AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI

Jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi moddiy mahsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo‘lishi kerak. Axborot jamiyatida nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o‘zgaradi, madaniy hordiq chiqarishning moddiy qadriyatlarga nisbatan ahamiyati oshadi. Axborot jamiyatida aql va bilim ishlab chiqariladi va iste’mol qilinadi, bu esa aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Odamdan ijodkorlik qobiliyati talab qilinadi, bilimga talab ortadi. Jamiyatning moddiy va texnologik ma’lumotlar bazasi kompyuter texnologiyalari va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya asosida turli xil tizimlar bo‘ladi.

Jamiyatni axborotlashtirish – bu axborot ehtiyojlarini qondirish va axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish asosida fuqarolar, davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining huquqlarini amalga oshirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishning uyushgan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayoni.

## 2.1. Texnologiyalar davrida jamiyatni axborotlashtirish masalalari

Axborot jamiyati – ishchilarning aksariyati axborotni, ayniqsa uning eng yuqori shakli-bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanadigan jamiyat. Axborotlashtirishning maqsadi samaradorlikni oshirish va ish sharoitlarini engillashtirish orqali odamlarning hayot sifatini yaxshilashdir.

Axborot jamiyati rivojlanishining asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- kompyuterlarning mavjudligi;
- kompyuter tarmoqlarining rivojlanish darajasi;
- axborot madaniyati, ya’ni axborot texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Kompyuterlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyatni axborotlashtirish jarayonining zaruriy qismidir. Jamiyatni axborotlashtirish zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlaridan biridir. Jamiyatni axborotlashtirishda asosiy e'tibor inson faoliyatining barcha turlarida ishonchli, to‘liq va o‘z vaqtida bilimlardan to‘liq foydalanishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuiga qaratiladi. Kompyuter bilan tabiiy tilda aloqa qilish imkoniyatini ta'minlash uchun u multimedia vositalari, birinchi navbatda audio va video vositalar bilan jihozlangan bo'ladi. Kelajakda noutbuklar yanada miniatyuraga aylanishi kerak, shu bilan birga ularning mikroprotsessorlarining tezligi zamonaviy super kompyuterlarda bo'lgani kabi bo‘lishi kerak. Ular yaxshi piksellar soniga ega tekis displeyga ega bo'lishi kerak. Ularning tashqi xotira qurilmalari, magnit disklar ko‘chma bo‘ladi, sig‘imi 100 Gb dan oshadi.

Bugungi kunda axborotlashtirish jarayonlari birinchidan, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy; ikkinchidan, axborot va ma’lumotnoma bazalaridan foydalana olish imkoniyati; uchinchidan, barcha tahliliy xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish; to‘rtinchidan, yangicha ish va tajriba almashish shakllarini o‘zlashtirish, siyosatshunoslar, sotsiologlar faoliyatini muvofiqlashtirish; beshinchidan, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning siyosiy, mafkuraviy darajasini yuksaltirish; oltinchidan, raqobatbardoshlikni oshirish bilan bog‘liq.

Axborotlashtirishning ahamiyati shundaki, unda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida axborot va bilimlardan foydalanish samarali amalga oshadi; fuqarolar, tashkilotlar va davlatning axborot ehtiyojlarini qondirish, axborotlashgan jamiyatga o‘tish uchun sharoitlar yaratiladi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalaniladi. Darhaqiqat, axborotlashtirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatlar uyg‘unlikda olib boriladi. Bu esa jamiyatni shakllanishi jarayonida nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida balki ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy hayotda tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Axborotlashtirish jarayoni kishilik jamiyatining navbatdagi yo‘nalishi sifatida hayotning qator sohalarida yuksak ravnaqni taqozo etadi. Bu yo‘nalishda maorif sohasida ham jiddiy o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Jumladan, fan inqilobi va axborotlashtirish tufayli o‘qish, o‘qitish ishlarining samaradorligini yanada oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

Iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarish bilan xizmat ko‘rsatish nisbatida birinchisining hisobiga ikkinchisining kengayishi ro‘y bermoqda.

Axborotlashtirish jarayonidagi o‘zgarishlar ommaviy ruhiyatda, ta’lim tizimida, har bir inson saviyasida o‘z ifodasini topmoqda. Odatda, bu sohadagi o‘zgarishlar boshqa soha o‘zgarishlariga zamin tayyorlaydi. Shuningdek, bunday o‘zgarishlarni dastavval fanning yangi ratsional ko‘rinishlarida hayot va inson haqidagi tarmog‘i bo‘lgan biologiyada shakllanayotganini ko‘rishimiz mumkin. Chunki, dastlab mikroorganizmlarga tatbiqan shakllangan gen injeneriyasida hozirgi vaqtda inson genomi, irsiylikning genetik kodi masalalari yangi texnologiyalar va fandagi axborotlar asosida jiddiy o‘rganilmoqda.

Ilmiy ijodiyot metodologiyasi nuqtai-nazaridan olib qaraganda, ilmiy tadqiqotlar doirasiga iqtidorli kishilarning o‘ta sezgirlik qobiliyati hamda biomaydonini o‘rganishga kirishilayotganligi ma’lum bo‘lsa, ontologik jihatdan esa olamning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlariga, koinot jarayonlarining kishilar hayotiga ta’siriga oid masalalar bo‘yicha ham yangicha nuqtai nazarlar shakllanmoqda. Misol uchun V.Vernadskiyning noosfera konsepsiyasini olib qarashimiz mumkin.

Siyosiy sohada ham axborotlashtirish jarayonlari tufayli jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Chunonchi, davlat hokimiyatining markazlashganligi barham topib, shaxsning erkinligi oshib bormoqda. Boshqa tomondan qaraganda, davlat markazlashganligining kuchsizlanishi axborotlarga egalik qilish natijalari bilan bog‘liq.

Hozirgi sharoitda esa xalqaro voqealarning asl maqsadi va mohiyatini aniqlash nihoyatda mushkul. Ayniqsa, bu mafkuraviy xarakterga ega bo‘lgan

xalqaro voqealarning maqsadi va yo‘nalishini aniqlashda ko‘rinadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ko‘proq kuchga egaligini ta’kidlar ekan, “agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin”, - deydi.

Ikkinchidan, postindustrial inqilob, urbanizatsiya, axborotlashtirish, globallashuv jarayonlari foyda ketidan quvadigan, asosan moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladiganlarni vujudga keltirdiki, bunday kishilar o‘z maqsadlari yo‘lida har qanday afsonayu g‘oyani ham qo‘llab-quvvatlashga qodirdirlar. Bunday holat mamlakat xavfsizligiga beqiyos tahdid solishi tabiiydir.

Shuni ta’kidlash kerakki, axborotlashtirish jarayonlarining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin: xabarni uzatish tezligining ortishi; axborot uzatish hajmi oshishi; axborotni qayta ishlash tezlashgan; qaytuvchi aloqaning to‘liq foydalanilishi; yangi axborot olish hajmi o‘sishi va joriy etishning tezlashishi; mehnatni boshqarish texnik uskunalarining o‘sishi.

Axborotlashtirish jarayonlarini intellektual jihatdan ta’minlash undan ham muhimroq bo‘lib, quyidagilarni talab etadi: axborotlashtirish siyosatini yuritish, axborotlashtirish loyihalarini ishlab chiqish, axborotlashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va ishlab chiqarishlar o‘quv dasturlari tayyorlash va h.k.

Axborotlashtirish sohasidagi siyosat ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar va axborotlashtirishning zaminini, asosini yaratishga ko‘maklashishi kerak. Buning uchun mamlakatdagi modernizatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Axborotlashtirish jarayonlari insoniyat taraqqiyotida muhim hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Tabiat bilan insoniyat jamiyati o‘rtasida, shuningdek insoniyat jamiyatining o‘zida o‘zaro axborot almashuvi mavjud bo‘lmaganda, u taraqqiy qilmagan va hozirgi darajaga erishmagan bo‘lardi. Hayot mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun moddiy vositalar bilan bir qatorda axborot ham zarur.

Insoniyatning taraqqiyot darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning hayotida axborot shunchalik katta o‘rin egallaydi. Bizningcha, jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda mazkur masalalarga doir mummolarning oldini olish, shuningdek, axborotlashtirish jarayonini ilmiy-metodologik jihatdan ko‘proq o‘rganish ushbu faoliyatning yo‘naltiruvchi asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’kidlash kerakki, XX asr oxiriga kelib, Yevropa ittifoqi komissiyasi tomonidan «Axborotlashgan jamiyat qurishning Yevropacha yo‘li» (1994 y.), «Axborotlashgan jamiyat sari Finlyandiya yo‘li» (1995 y.), «Germaniyaning axborotlashgan jamiyat sari rivojlanishi» (1996 y.) dasturlari ishlab chiqildi. 2000 yil 22 iyulda «Katta sakkizlik» uchrashuvi (Okinava)da «Global axborotlashgan jamiyat Xartiyasi» qabul qilinib, o‘sha yili BMTning Mingyillik sammitida e’tirof etildi. So‘ngra, axborotlashgan jamiyat muammolarini YUNESKO tomonidan nazariy jihatdan o‘rganish boshlandi. Darhaqiqat, ushbu tushuncha ilmiy jamoatchilikda «yuksak axborotlashgan madaniyat», «tig‘iz axborotlashgan jamiyat», «axborot jamiyati» tushunchalari bilan ham keng targ‘ib qilinadi. Xullas, jahon hamjamiyatida har qanday jamiyatning rivojlanish sur’ati va yo‘nalishini belgilab beruvchi axborotni barcha ne’matlardan ustun deb tan olish yo‘liga o‘tildi.

Xo‘sh, axborotlashgan jamiyat qanday jamiyat? Uning qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor? Kelajakda qanday jamiyat sari boramiz? Ushbu jamiyatda axborot qanday ahamiyatga ega?

Aytish kerakki, falsafiy va sotsiologik tadqiqotlarda «axborotlashgan jamiyat» tushunchasi yangi jamiyat sifatida, ya’ni ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy postindustrial jamiyatga o‘tishi va unda faoliyatning amalga oshishi axborotni uzatish va saqlashga bog‘liq holda izohlanadi.

Ma’lumki, insoniyat jamiyati o‘z rivojlanishida industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tib bormoqda. Agar industrial jamiyatning asosiy rivojlanish manbai – energetik manbalar, energiyani ishlab chiqarish, uni tarqatish imkoniyatlari mavjudligida bo‘lsa, axborotlashgan jamiyatida esa bilim va axborot jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari dunyoni birlashtirish va global axborotlashgan jamiyat barpo etishga xizmat qilmoqda va bu bilan xalqlarning o‘zaro yaqinlashishiga yordam beradi.

M.Usmonovaning ilmiy ishida «axborotlashgan jamiyat» tushunchasi birinchi marta 1978 yilda Fransiya prezidenti Frank buyurtmasiga ko‘ra S.Nor tomonidan tayyorlangan “Axborotlashgan jamiyat” nomli ma’ruzasida keltirilgani, 1980 yilda ingliz tiliga “Jamiyatni kompyuterlashtirish” deb tarjima qilingani haqida fikr yuritiladi.

Biroq, bizningcha, «axborotlashgan jamiyat» tushunchasi 1960-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan, uni Tokio texnologik universitetining professori Y.Xayash birinchi bo‘lib fanga kiritgan. Uning fikricha, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbaidan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta’minlashga imkon beradi.

Shu bilar birga, Yaponiya iqtisodiy rejalashtirish agentligi, Kompyuterlarni tatbiq etish sohalarini aniqlash instituti, Sanoat tarkibi masalalari bo‘yicha Kengashi yapon xukumatiga taqdim etgan hisobotlarda bo‘yicha hisobotlarida ham axborotlashgan jamiyatning asosiy ta’rif-tavsiflaridan foydalanilgan. Jumladan, “Yapon axborotlashuv jamiyati: mavzular va yondashuvlar” (1969 yil), “Yapon jamiyatini axborotlashuviga hamkorlik siyosatining tarixlari” (1969 yil), “Axborotlashuv jamiyatining rejasi”(1971 yil). Ushbu hisobotlarda ko‘rsatilganidek, kompyuterning rivoji odamlarga ishonchli axborot manbalariga yo‘l ochib, ishlab chiqarishda avtomatlashuvning yuqori darajasini ta’minlaydi hamda asosiy o‘zgarishlar ishlab chiqarishning o‘zida yuz beradi. Natijada uning mahsuloti “axborotlashuv jihatdan salmoqliroq” bo‘lib, innovatsiyalar, dizayn va marketing ulushining narx-navoga ta’sirini anchagina oshiradi.

Keyinchalik F.Maxlup, D.Bell, I.Masuda, E.Toffler, P. Draker va M.Kastels va boshqalar axborotlashgan jamiyatga oid qarashlarni rivojlantirdi. Shu bilan

birga rivojlangan davlatlarning axborotlashgan jamiyat konsepsiyalari qabul qilindi. Ushbu qarashlar va konsepsiyalarga qisqacha toʻxtalib oʻtsak.

Jumladan, F.Maxlup «axborotlashgan jamiyat» tushunchasini oʻzining «AQShda bilimlarni ishlab chiqarish va tarqatish» nomli asarida qoʻllagan.

«Axborotlashgan jamiyat» tushunchasining rivojida amerika jamiyatshunosi D.Bellning "Industrial jamiyat davrining kelajagi: ijtimoiy bashorat qilish tajribalari" nomli asari alohida ahamiyatga ega. Unda muallif insoniyat jamiyatining tarixini uch asosiy bosqichlarga: agrar, industrial va industrial davrdan soʻngi davrlarga boʻlib chiqadi. Olim industrial davrdan soʻnggi davrning tarixini industrial bosqichining ta'rif-tavsiflariga suyangan holda chizib berishga intilgan.

D.Bell industrial jamiyatni koʻproq mashinalar va buyumlar ishlab chiqaruvchi jamiyat, deb sharhlaydi. Industrial davrdan soʻngi davrning farqlanuvchi belgisi boʻlib, olimning fikriga koʻra, buyumlar chiqarishdan (voz kechishdan) ta'lim, sogʻliqni saqlash va boshqaruv sohalarida xizmatlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga oʻtish jarayoni xizmat qiladi. Shu bilan birga, olim "har bir hozirgi zamon jamiyati innovatsiyalar (yangiliklar joriy qilish) va oʻzgarishlar ustidan ijtimoiy nazorat olib borish hisobiga kun koʻrmoqda. Inson kelajakni koʻra bilish va uni rejalashtirishga intilmoqda» deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, hozirgi kunda innovatsiyalarning tabiatini anglashga boʻlgan intilishdagi oʻzgarishlar nazariy bilimlarning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Bu yoʻnalishdagi harakat ilm-fan, texnika va iqtisodiyotning oʻziga xos uygʻunlashuvi chogʻida tobora kuchaya boradi.

Axborotlashgan jamiyatga oid qiziqarli falsafiy konsepsiyalardan biri yapon olimi I.Masudaga tegishlidir. Uning konsepsiyasiga koʻra, yangi jamiyatning poydevori boʻlib kompyuter texnologiyasi xizmat qiladi hamda bu texnologiyaning asosiy vazifasi inson aqliy mehnatining faolligini kuchaytirishdir. I.Masudaning fikricha, «axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar oʻzgaradi», unda jamiyat sinflarga boʻlinmaydi va ziddiyatsiz, ya'ni ahil, tinch-totuv jamiyat boʻlib, uni

chog‘roq hukumat va davlat apparati boshqaradi. Uning fikriga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, axborotlashgan jamiyatda nafaqat qadriyatlar tizimi o‘zgaradi, balki ishlab chiqarish, inson turmush tarzi, moddiy boyliklarga nisbatan madaniy dam olish sifatida qarashning ahamiyati ortadi.

Axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va iste’mol etiladi, bu hol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, “axborotlashgan jamiyat – ko‘pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo‘lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyatdir”.

Taniqli ingliz olimi T.Stounyer ta’kidlaganidek, «axborotni xuddi sarmoyaga o‘xshatib jamg‘arish va keyinchalik ishlatish uchun saqlash ham mumkin». Uning fikriga qo‘shilgan holda, aytish mumkinki, industrial davrdan keyingi davrda milliy axborotlashuv zahiralari boylikning eng katta potensial manbaiga aylandi. Birinchi navbatda barcha kuchlarni ishga tushirib, iqtisodiyotning yangi tarmog‘i – axborotlashtirish tarmog‘ini rivojlantirish zarur. Yangi jamiyatda esa bandlikning umumiy ko‘rsatkichlari va milliy mahsulotdagi ulushi bo‘yicha sanoat xizmatlar sohasiga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Xizmatlar sohasi asosan, kerakli axborotlarni yig‘ish, ishlov berish va taqdim etishdan iborat bo‘ladi.

Axborotlashgan jamiyatning yana bir nazariyotchisi E.Toffler esa o‘ziga xos sharh beradi. “Uchinchi to‘lqin” deb nomlangan kitobida u tamaddun tarixidan uchta to‘lqinni ajratib oladi: birinchi to‘lqin – agrar (XVIII asrgacha), ikkinchisi – industrial (XX asrning 50-yillarigacha), uchinchisi – postindustrial davr (XX asrning 50-yillaridan boshlab).

“Eng yaqin tarixiy sarxad, – deb yozadi u, – o‘n ming yil avval qishloq xo‘jaligining joriy etilishi tufayli yuzaga kelgan o‘zgarishlarning ilk to‘lqinidek hali juda-juda olisda”. Darhaqiqat, o‘zgarishlarning ikkinchi to‘lqini industrial inqilob tufayli yuzaga keldi. Hozirgi kunda biz o‘zgarishlarning uchinchi to‘lqin farzandlarimiz. Uchinchi to‘lqin axborotlashuv inqilobining samarasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1980–1990 yillarni axborotlashgan jamiyat konsepsiyalarining rivojidagi yangi bosqich deb aytish mumkin. Bu davrdagi konsepsiyalar asosan Piter Draker va Manuel Kastels tadqiqotlari natijalari bilan chambarchas bog‘liq. P.Draker o‘zining “Kapitalizmdan keyingi jamiyat” kitobida axborotlashuv konsepsiyasini keltirib o‘tgan. Konsepsiyaning mohiyati an’anaviy kapitalizmni yengib o‘tish g‘oyasidan iborat. Ushbu konsepsiyaga asosan, yuz berayotgan siljishning asosiy belgilari industrial xo‘jalikdan bilimlar va axborotga asoslangan iqtisodiy tizimga kirib borish, kapitalistik xususiy mulkchilikdan voz kechish, hozirgi zamon odami uchun yangi qadriyatlarni yaratish, iqtisodiyot va jamiyatdagi globallashuv jarayonlari ta’sirida milliy davlatning o‘zgarishi nazarda tutilgan.

M.Kastels o‘z fikr-mulohazalarining tayanch nuqtasi qilib global iqtisodiyotni hamda xalqaro moliyaviy bozorlarni olib, ularni shakllanayotgan yangi dunyoning asosiy belgilari sifatida qo‘llaydi. Uning “Axborotlashuv erasi: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat” deb nomlangan fundamental tadqiqoti yangi jamiyat asoslarini shakllantirishga olib boruvchi tendensiyalarni chuqur va har tomonlama tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda olim tilga olgan jamiyatni “tarmoqli” deb atagan. Axborot o‘z tabiati bo‘yicha shunday resurski, uning uchun hech qanday to‘siq, g‘ov, chegara pisand emas, shu fazilatidan kelib chiqib, olim axborotlashuv erasini globallashuv deb ataydi. Shu bilan birga, tarmoqli tarkiblar jamiyat globallashuvining ham vositasi, ham natijasi bo‘lib qoladi.

A.I. Rakitov o‘z asarlarida, axborotlashgan jamiyatga o‘tish jarayonini ishlab chiqarish va xizmatlar, bilimlardan foydalanish ijtimoiy faoliyatning eng muhim mahsulotiga aylanishini ko‘zda tutadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bilimlarning jamiyatda tutgan o‘rni tobora oshaveradi. Mualifning fikricha, «to‘plangan va ishlovdagi axborotning hajmi va sifati, shuningdek uning qoyilmaqom qilib uzatilishi va qayta ishlash imkoniyatlari axborotlashgan jamiyatning asosiy meyorlari bo‘lib xizmat qilishi mumkin».

N. Moiseyev jamiyatdagi bunday murakkab o‘zgarishlarni tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi: “Axborotlashgan jamiyatning qaror topishi bifurkatsion

xususiyatga ega bo‘ladi. YA’ni taraqqiyot asoslarining sifatiy o‘zgarishi, jamiyatdagi munosabatlarning ijtimoiy tabiati har qanday ijtimoiy injeneriyani rad etsa ham, kutilayotgan xavfdan ko‘z yumolmaymiz. Har qanday inqilobiy jarayon kabi axborotlashgan jamiyatga o‘tish ham kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Muammo uning rivojini rejalashtirishda emas, balki salbiy oqibatlarning oldini olishda (bu rivojlanish yo‘nalishining rejali, boshqariladigan yo‘nalishidan farqi shunda). Hodisalarning xavfli tus olish ehtimoli katta. Buning uchun sayyoramizdagi axborot tizimlarining monopollashtirilishi va ayrim guruhdagi odamlarning g‘arazli manfaatlariga bo‘ysundirilish holatini ko‘z oldimizga keltirsak yetarli bo‘ladi. Mana shuning uchun ham axborotlashgan jamiyatning shakllanishi – butun insoniyatning jamoaviy muammosidir. Yana u BMT mummolarining doimiy ajralmas qismidir”.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi davlat va jamiyatlar hayotining barcha sohalarida jiddiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Hozirda axborot odamlar va jamiyat farovonligining eng muhim manbaiga aylanmoqda, rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti tarkibida axborot texnologiyalari industriyasi eng yirik sohani tashkil etadi. Nemis tadqiqotchisi L.Nefedovning yozishicha: «Bugun tadqiqot va rivojlanishga sarflanayotgan mablag‘larning uchdan bir qismi axborot texnologiyalariga yo‘naltirilmoqda».

XX asr 90-yillarining birinchi yarmidan boshlab amerikalik va yevropalik olimlar o‘z e’tiborlarini hayotning turli sohalarida axborotning roli va ahamiyatiga emas, balki aynan bilimlarning qadr-qimmatiga qaratishdi. Bu holat, o‘z navbatida, oliy darajada rivojlangan industrial jamiyatni ta’riflash uchun yangidan yangi atamalarni yuzaga keltirdi.

1994 yilning iyul oyida Yevropa hamdo‘stlik davlatlari (YEHD) tomonidan “Yevropaning axborotlashgan jamiyat sari yo‘li” faoliyat rejasi qabul qilindi. Unda Yevropa hamdo‘stligining faoliyatidagi to‘rtta asosiy yo‘nalish ko‘zda tutilgan: meyoriy-huquqiy makon yaratish; axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, asosiy xizmatlarni tasnif etish, jihoz-uskunalarni bir standartga

keltirish; axborotlashgan jamiyatning turli-tuman ijtimoiy va madaniy jihatlarini o‘rganish; aholi o‘rtasida axborotlashgan jamiyatning konsepsiyalarini tashviqot qilib, odamlarning qo‘llab-quvvatlashiga erishish.

Darhaqiqat, mazkur faoliyat rejasi “Bangeman tashabbusi” deb nomlangan. Bangeman YEHD rahbarlaridan biri bo‘lib, u YEHDlarning axborotlashgan jamiyatga kirishini ta’minlovchi shoshilinch choralari bo‘yicha tavsiyalar tayyorlagan ekspert guruhini boshqargan.

Angliya va Fransiya konsepsiyalarida “tarmoqlar yoki xizmatlar” muammosi juda katta ahamiyatga molik, chunki ularning ta’limotiga ko‘ra, aynan tarmoqlarni yaratish – xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun eng qulay yo‘l. Shuni ham aytib qo‘yish kerakki, barcha dasturlarning asosiy maqsadi “universal xizmatlarni” rivojlantirishdir. Bunga sabab axborotlashgan jamiyatdagi notenglik muammosi bo‘lib, bu notenglik tufayli, aholining aksariyat qismi jamiyat afzalliklaridan benasib qolishi mumkin.

Osiyo davlatlari ishlab chiqargan axborotlashgan jamiyat rivojiga oid konsepsiyalar o‘z milliy qadriyatlari asosiga qurilgan bo‘lib, aksariyat hollarda, g‘arb olimlarining fikrlariga zid o‘laroq, industrial va ijtimoiy rivoj haqidagi o‘z nuqtai nazarlari olg‘a suriladi. Bu konsepsiyalarning mohiyatida «Konfutsiy ta’limoti bilan sodir bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi aloqani topish harakati yotadi».

“Ahil–inoq yashash, birga gullab-yashnash” falsafiy aqidalari, osiyolik olimlarning fikricha, muvaffaqiyat garovidir. Bugungi kunda Yaponiyada asosiy e’tibor o‘zining yangi bilim, texnologiya va mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, diqqat markazida esa – novatorlik g‘oyalar, nuqtai nazarlar, betakrorlik turadi. Ma’lumki, bu davlatda bolalar tug‘ilishi kamaygani bois, aholi asta-sekin qarib bormoqda. Yangi axborotlashuv texnologiyalari vositasida aholining ishchan qismi kamayishiga qaramay, iqtisodiyotga bu holatning salbiy ta’sirini biroz kamaytirish mumkin.

“Osiyo yo‘lbarslari” (yangi industrial mamlakatlar)ga oxirgi 25 yil ichida iqtisodiyoti, birinchi navbatda, sanoati juda tez sur’atlarda rivojlangan an’anaviy (milliy) qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan, hozirgi paytda xalqaro savdoda salmoqli o‘rin egallovchi davlatlar,masalan, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Koreya, Malayziya, Tailand kiradi.

Binobarin, “Osiyo yo‘lbarslari (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur va Gonkong)ning” axborotlashuv taraqqiyotida iqtisodiy hamkorlik deb ataluvchi konsepsiyasi davlatning xususiy kapital tomonidan yirik mablag‘larni sarf qilish ishlariga aralashuvi, aniq maqsadlarga yo‘naltirishi, moddiy, ijtimoiy va axborotlashgan infratuzilmalar yaratish ishlarida faol qatnashishi asos bo‘lmoqda. “Yo‘lbarslar” orasida “intellektual orol” – strategik reja ishlab chiqqan Singapur alohida diqqatga sazovordir. Dunyodagi milliy axborotlashuv infratuzilmasi rivojlantirilgan, barcha uy, maktab yoki ish o‘rinlardagi kompyuterlarning o‘zaro aloqasini ta’minlagan ilk davlatlardan biriga aylanish – bu davlatning ezgu niyatidir.

Hindiston konsepsiyasini o‘rta yo‘l konsepsiyasi deb atasa bo‘ladi. Chunki, davlat korxonalari xususiy sektorga berilmaydi, ammo mahalliy xizmatlar bozorida raqobatga keng yo‘l ochilgan, bu borada 49 foizgacha chet el sarmoyasini qo‘shishga ruxsat berilgan (mamlakatdagi 200 milliondan ortiq oila o‘rtamiyona daromadga ega, shu bois ichki bozorning istiqbollari porloqdir). Global axborotlashgan jamiyat qurish yo‘lida Hindistonning asosiy boyligi, sarmoyasi – odamlar, insonlar resurslaridir. Bugungi kunga kelib Hindiston ilmiy-texnik salohiyati bo‘yicha dunyoda (AQSH va Rossiyadan keyingi uchinchi) o‘rinni egallamoqda.

O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat masalasi keng tahlil etilmagan. A.T.Kenjaboyev, M.A.Usmonova, O.V.Lanseva, O.M.Kostrina, M.Yoqubova kabi olimlarning ushbu muammolarga oid doktorlik hamda nomzodlik dissertatsiyalarini ta’kidlash mumkin.

O.V.Lansevaning nomzodlik dissertatsiyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan axborotlashtirish jarayonlariga oid ilk falsafiy tadqiqotdir. Unda rivojlanishning informatsion jihatlari hamda axborot muammosi informatsion jarayonlarning ko‘p xilligi, axborot va bilim kategoriyalarining aloqadorligi kabi muammolar global rivojlanish qonuniyatlari kontesti falsafiy tahlil etilgan.

M.A.Usmonovaning ilmiy tadqiqoti axborotlashtirishning ijtimoiy-falsafiy muammolariga bag‘ishlangan. Unda “axborotlashgan jamiyat” tushunchasi, bunday jamiyatning mohiyati, axborotlashtirish jarayoni, tuzilishi, funksiyasi, axborotlashtirishning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy masalalari falsafiy tahlil etilgan.

M.Yoqubovaning fikricha, axborotlashgan jamiyat texnogen sivilizatsiya rivojlanishining muayyan bosqichidir, axborotlashgan jamiyatda bilim, axborot va axborot texnikasi asosiy rol o‘ynaydi. YA’ni, axborotlashgan jamiyat shunday jamiyatki, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborot ishlab chiqish, unga ishlov berish, uni saqlash va jamiyat a’zolari orasida tarqatishga bog‘liq bo‘ladi.

A.Kenjaboyev milliy  iqtisodiyotning tadbirkorlik sohasida, axborot hamda axborotlashtirish milliy tizimidagi axborot jarayonlarini baholashda tadbirkorlik faoliyatiga oid axborotlar bozori muhim omil ekanligini ko‘rsatib bergan, tadbirkorlik faoliyatining axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirishning nazariy, uslubiy va amaliy yechimlari tahlil qilingan.

N.Sodiqov o‘z asarlarida yoshlarning axloqiy-psixologik qiyofasi rivojlanishida axborotlashtirishning ta’sirini yoritishga harakat qilgan. Uning fikriga ko‘ra: axborotlashgan jamiyat – postindustrial jamiyat konsepsiyasiga asoslangan sivilizatsiya taraqqiyotining tarixiy bosqichida yuzaga kelgan bo‘lib, uning o‘zagini axborot va bilim tashkil etadi.

Akademik S.G‘ulomov fikricha, “axborotlashgan jamiyat – ko‘pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo‘lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyatidir”. Darhaqiqat axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki

butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi o‘zgaradi, moddiy boyliklarga nisbatan madaniy dam olish sifatida qarashning ahamiyati ortadi. Axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va iste’mol etiladiki, bu hol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi.

2006 yilning 27 martida BMT Bosh Assambleyasida 17 mayning Butunjahon axborot jamiyati kuni deb e’lon qilinishi ham hozirgi kunda jamiyatni axborotlashuvining ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Bugun dunyodagi barcha davlatlar axborotlashgan jamiyat sari bormoqdalar. Chunki, axborotlashgan jamiyat – yuksak taraqqiy etgan axborot infratuzilmasiga ega jamiyatdir.

Respublikamizda axborotlashgan jamiyat qurish masalalariga katta e’tibor berilmoqda. Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan qaror va dasturlarning barchasida demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat uchun axborotlashgan jamiyatga o‘tishning iqtisodiy, huquqiy, texnologik, madaniy shart-sharoitlari yaratib berilmoqda. Masalan, “Axborotlashtirish haqida”, “Elektron raqamli yozuv (imzo) haqida”gi qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlar ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o‘zgaradi. Barcha xarakatlar tovarlar ishlab chikarish, iste’mol etishga yo‘natirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqariladi va iste’mol etiladiki, bu xol aqliy mehnat ulushini oshishiga olib keladi.

Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoklari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosida turli xil tizimlar tashkil etadi.

Axborotlashgan jamiyat-jamiyatning ko‘pchilik a’zolari axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo‘lishi bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyatdir.

Axborot jamiyatga o‘tishda kompyuter va telekommunikatsiya axborot texnologiyalari negizida yangi axborotni qayta ishlash sanoati yuzaga keladi.

Bizning Respublikamiz ham mustaqillik tufayli axborotlashgan jamiyat tomon kirib bormoqda. Bu masala Prezidentimiz va xukumatimizning diqqat markazida birinchi masalalar qatorida turibdi.

Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasiga postindustrial nazariyadagi iqtisodiyotni birinchi, ikkinchi va uchinchi sektorlariga informatsion sektor qo‘shildi. Konsepsiyani tarafdorlarining fikriga ko‘ra, birinchi sektorda – qishloq xo‘jalik, ikkinchi industrial sektorda – sanoat, uchinchi sektor – xizmat ko‘rsatuvchilik dominantlik ahamiyatiga ega. Informatsion sektor axborotlashgan jamiyatida tizimga soluvchi vazifani bajaradi. Ushbu konsepsiyada axborot va bilim ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga egaligi ta’kidlanadi. Ularni ahamiyatiga ko‘ra, energiya va xizmat ko‘rsatish moddiy ishlab chiqarishdan afzal ekanligiga urg‘u berildi. Shu bilan birga axborot yohud bilim hamda interaktiv kommunikatsiyalar zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarning asosiy omili hisoblanadi.

## 2.2. Axborot urushlari mazmun-mohiyati, asl maqsadi va niqoblanish (yoki jozibalanish) ko‘rinishlari

XX asrning oxiri yangi qurolning paydo bo‘lshi bilan izohlanadi. Gap axborot quroli haqida ketmoqda. Axborot jangi  albatta, XX asrdan oldin ham olib borilgan. Biroq uzoq o‘tmishda odamlar muloqot davomida subatdoshga so‘zlari, gapirish ohanglari, mimikalari, imo-ishoralari orqali ta’sir ko‘rsatib kelishgan. Bugungi kunga kelib, mingyilliklar davomida yig‘ilib borilgan tajriba, kashf etilgan muloqot texnologiyalari yordamida insonning ongiga ta’sir qilish va boshqarish yo‘llari o‘zgarib, samaraliroq va ta’sirliroq bo‘lib qolgan. Shuning uchun, axborot urushi – bu moddiy va ma’naviy sohada ma’lum bir yutuqni qo‘lga

kiritish maqsadida odamlarning bir-biriga aniq va yashirin qaratilgan axborot ta'siri harakatidan boshqa hech narsa emas.

Axborot urushiga keltirilgan ta'rifdan kelib chiqqan xolda, axborot qurolining qo'llanishi, avvalambor, jamoa fikri, raqibning mafkurasi bilan ish olib borishni bildiradi. Shunday ekan, har doim o'zini-o'zi yo'q qilish algoritmlarini ishga tushurish yoki keyinchalik ishga tushurish uchun tayyorlab qo'yish mumkin. "Bugungi kunda, - degan edi, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, - insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin, hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi".[32]

"Axborot humkronligi tushunchasi va texnologiyasining odamlarga ta'sirini tushuntirish kerak. Bo'lmasa, ularning tartibsizligi nafaqat xalqlarni yo'q qilishga, balki zamonaviy jamiyatning o'limiga olib keladi. Axborot tajovuzini to'xtatish uchun voqealarning kelib chiqishini tushunish kerak. Bugungi kunda, G'arbning global madaniy axborot va mafkuraviy axbrotning tarqalishi jahon telekomunikatsion tuzulmalari (misol uchun, Internet) va OAV orqali amalga oshirilmoqda".[33]

Rivojlanayotgan davlatlar, ayniqsa dunyoni egallashga da'vogar davlatlar kundan-kunga axborot urushi muammosiga ko'proq e'tibor qaratmoqda, chunki uning obyekti – odamlarning ongi, maqsadi esa – omma ongini boshqarishdir. Bu maqsad tabiiyki, axborotning psixologik ta'siri orqali amalga oshiriladi. Axborot quroli odamzod uchun bevosita xavf soladi, axir u kishining ongini o'zgartirib, borliqni noto'g'ri qabul qilishga va kishining o'limi bilan tugaydigan harakatlargacha undashi mumkin.

[32] Каримов И.А. Юксак маьнавит – енгилмас куч. - Т: "Маънавият", 2008. – 112 б.
[33] Расторгуев С. П. Информационная война/С. П. Расторгуев. - М: Радио и связь, 1999. - 416 с. С. 55

Axborot urushi haqida batafsil gapirib oʻtish bugungi kun uchun juda dolzarb hisoblanadi. Birinchidan, ma'lum bir axborot urushini tushunish, odamlarni keyingi xavfdan ogoh boʻlishi himoya vositasini bajaradi. "Koʻpincha mamlakatlar oʻz fuqorolari, madaniyati, an'analari va ma'naviy boyliklarini begona davlat axborot ta'siridan saqlash uchun maxsus choralar koʻrmoqdalar. Milliy axborot manbaalarini himoya qilish va axborot maxfiyligini jahon ochiq tizimlarida axborot almashinuvining saqlab qolish zaruriyati tugʻilgan. Chunki, bunday ketishda davlatlar siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshilik, xalqaro munosabatlarda inqirozga yuz tutishi mumkin. Shuning uchun, axborot xavfsizligi, axborot jangi hamda axborot quroli hozirgi kunda barchaning e'tibori markazida".[34]

Axborot urushi hodisasi qadim zamonlardan buyon insoniyatga ma'lum. Vaziyatni beqarorlashtirish, dushmanni notoʻgʻri talqin qilish va h.k. uchun har qanday ma'lumotni qoʻllash imkoniyati insoniyatga uzoq vaqtdan beri ma'lum boʻlgan. Qadim zamonlardan boshlab dushmanga psixologik ta'sirlardan foydalanish haqida ma'lumot keladi: qoʻrqitish, notoʻgʻri ma'lumotlar, tinchlanish istagi yoki aksincha, dushmanning faoliyatini ragʻbatlantirish va h. k.

Buning uchun faol mish-mishlar, ya'ni odamlarning ongiga faol ta'sir koʻrsatadigan ishonchsiz, ammo hissiy jihatdan boy ma'lumotlar ishlatilgan.[35] 70-yillarning oʻrtalarida, sotsialistik va kapitalistik lagerlar oʻrtasidagi qarama-qarshilikni toʻliq hal qilganda, yangi atama paydo boʻldi – "Axborot urushi". U fizik olim Tomas Ron bilan birga keldi, u tushunarsiz, ammo bu har qanday armiyaning eng zaif aloqasi ekanligini ham ilmiy jihatdan asosli. Bunday urushni saqlab qolish uchun ishlatiladigan texnikalar va usullar odamlarga xizmat koʻrsatishi mumkin boʻlgan atom energiyasiga oʻxshash va ularni ommaviy qirgʻin qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Axborot urushlari texnologiyasi – bu boshqa "ikki nashr", chunki ular yomon va foyda keltirishi mumkin. Bularning barchasi Axborot urushi oʻtkazilayotganiga

---

[34] Расторгуев С. П. Информационная война/С. П. Расторгуев. - М: Радио и связь, 1999. - 416 с. С. 55

[35] Информационная война — Википедия

bog‘liq: o‘zini himoya qilish uchun yoki boshqa davlatga qarshi dushmanlik harakatlarini tayyorlash. Birinchi holda, Axborot urushi jamiyat va har bir kishining izchil rivojlanib borayotgani, uning hayotdagi ishonchli qo‘llab-quvvatlashi va ikkinchisi ijtimoiy tanazzulga olib keladi.[36]

Axborot urushi (ingliz tili. Information war) - maxsus tayyorlangan axborotni tarqatish va o‘zlariga o‘xshash tashqi ta’sirlarga qarshi kurashish orqali tomonlarning qarama-qarshiligini tasvirlaydigan ingliz tilidagi atama. Axborot urushi tushunchasi tarixan ingliz tilidan “axborot va psixologik urush” atamasining tarjimasi bo‘lib, muayyan rasmiy hujjat yoki ilmiy nashrning mazmuniga qarab “axborot va psixologik urush” kabi “axborot qarama-qarshilik” kabi bo‘lishi mumkin.

“Axborot urushi” atamasi dastlab Amerika harbiy doiralarida ishlatilgan. Axborot urushi – bu butun jamiyatda yoki uning bir qismida ruhiy bosim. Kerakli ma’lumotlarni mohir ravishda taqdim etish ba’zi kayfiyatni yaratishga va reaksiyaga olib keladi. Ko‘rilgan urush turi haqidagi birinchi ma’lumotlar XIX asrning 50 yilligi va Qrim urushi bilan bog‘liq.

Axborot urushi davlatda ham, turli mamlakatlar o‘rtasida ham o‘tkazilishi mumkin va kompleks qarama-qarshi kurash jarayonining bir qismidir. Jamiyatga axborot bosimining mavjudligi orqa tomondan siyosiy harakatlarning yoki har qanday o‘zgarishlarga tayyorgarlikning ko‘rsatkichi hisoblanadi. Unda yirik moliyaviy sarmoyalar va sa’y-harakatlarni talab qilmaydi. Axborot urushining samaradorligi jamiyat a’zolarining his-tuyg'ulari va istaklariga asoslangan hayajonlangan tashviqotni tatbiq etishga bog‘liq.

Axborot urushida hukumat tomonidan yaratilgan tuzilmalar, alohida jamoalar, guruhlar va shaxslar ishtirok etishi mumkin. Axborot urushi nafaqat qurolli kurashda, balki tinchlik davrida ham davom etmoqda. Axborot urushi – axborot qarama-qarshilikning eng qiyin turi.[37]

---

[36] Информационное противоборство в военной сфере http://xn----7sbajajhyox3duj.xn--p1ai/images/data/zhurnal_vks/6-2018/15-21.pdf
[37] Силков, 2003.

Axborot urushining mohiyati jamiyatga ma'lumot orqali ta'sir qilishdir. Shundan kelib chiqib quyidagi belgilarni anglab olish qiyin emas:

- muayyan ma'lumotlarga kirishni cheklash: veb-resurslar, televizion dasturlar, bosma nashrlar;
- turli xil axborot manbalarining bir xil ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- muayyan masalalar bo'yicha salbiy psixologik fonni yaratish;
- jamiyatdagi hissiy taranglik paydo bo'lishi;
- jamiyatning turli sohalarida charchagan ma'lumotlarning kirib ketishi: siyosat, madaniyat, biznes, ta'lim.

Axborot urushi harbiy va tinch aholi orasida qo'llanilishi mumkin. Buning uchun axborot urushining turlaridan biri yoki tadbirlar to'plami ishlatilishi mumkin. Axborot urushi turlari quyidagilardan iborat:

1. Internetdagi axborot urushi - bu dushmanni chalkashtirib yuborish uchun ishlatiladigan va ko'pincha qarama-qarshi ma'lumotlar mavjud.
2. Psixologik operatsiyalar - jamiyatda mavjud bo'lgan kayfiyat uchun qarshi kurashga o'xshash dalillarga o'xshash bunday ma'lumotlarni tanlash va taqdim etish.
3. Desinformatsiya - bu dushman tomonni noto'g'ri yo'lga yo'naltirish uchun noto'g'ri ma'lumotlarni targ'ib qilish.
4. Dushman uchun muhim bo'lgan elektron tizimlarning jismoniy yo'q qilinishi yoki blokirovka qilishidir.
5. Xavfsizlik choralari - reja va niyatlarni saqlash uchun ularning resurslarini himoya qilishni kuchaytirish.
6. To'g'ridan-to'g'ri axborot hujumlari yolg'on va rostgo'y ma'lumot aralashmasi.[38]

Mutaxassislar nuqtai nazaridan zamonaviy sharoitda axborot urushining quyidagi maqsadlari ta'kidlangan:

---

[38] Корконосенко С.Г. Основы журналистики: учебное пособие / С.Г. Корконосенко. - М.: КНОРУС, 2016. - 272 с.

1) axborot maydonini nazorat qilish uchun biz harbiy axborot funktsiyalarini dushman harakatlaridan (qarshi axborotdan) himoya qilish orqali uni ishlatishimiz mumkin);

2) dushmanga axborot hujumlarini amalga oshirish uchun axborot nazoratidan foydalaning;

3) harbiy axborot funktsiyalaridan keng foydalanish orqali qurolli kuchlarning umumiy samaradorligini oshirish.

Ya’ni, birinchi qarashda, axborot urushi-texnik vositalardan foydalanish va ular tomonidan taqdim etiladigan “o‘z” axborot resurslaridan to‘siqsiz foydalanish va ularni shartli **“**begonalar**”** dan foydalanishga to'sqinlik qilish uchun imkoniyatlar, dushmanlar harbiy maqsadlar uchun. Ammo, masalan, Amerika kompyuter instituti mutaxassislari xavfsizlik ma’lumotlariga ko‘ra, axborot urushi jahon iqtisodiyotiga qaratilgan. Va shuning uchun, Vashingtondagi Milliy mudofaa universitetida maxsus talabalar guruhi tashkil etildi.

Kompyuter urushini olib borish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashdan maqsad. Bu holatda qurollar kompyuterlar bo‘lib, ular yordamida masofadan dushmanlik aloqalarini uzish, axborot va aloqa vositalarini boshqarish, moliyaviy vositalarni yo‘q qilish mumkin tizimlari.[39] Shuning uchun, bu ma’noda axborot urushining maqsadlari juda yaxshi "an’anaviy" tushunishdagi urushlardan boshqa: dushmanni jismoniy yo‘q qilish va uning qurolli kuchlarini yo‘q qilish, muhim strategik va moliyaviy, transport, kommunikatsiya tarmoqlari va tizimlarining keng ko‘lamli buzilishi, iqtisodiy inqirozning qisman yo‘q qilinishi infrastruktura va hujum qilingan mamlakat aholisini g‘olib mamlakat irodasiga bo‘ysundirish. Bundan tashqari, axborot urushlari davrida jangovar operatsiyalar rejalari ishlab chiqilmoqda harbiylar fuqarolik mutaxassislar bilan birga, ko‘pincha ular o‘ynaydi. buning asosiy roli. Ya’ni, armiya avval yangi axborot texnologiyalarini egallashga majbur bo‘ladi va faqat ulardan foydalanish yo‘llarini qidiradi.

---

[39] CHto takoe informatsionnaya vojna? Istoriya termina «informatsionnaya vojna» uRl http://pandia.ru/text/77/425/15462.php.

Axborot urushi bilimlari ko‘plab davlatlarning siyosatlaridan biridir. Inson ongi uchun kurashning oxiri emas, balki uning holati yoki boshqa davlat fuqarolariga ta’sirini saqlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini anglatadi. Shunga asoslanib, axborot urushlari bunday maqsadlarga ega:

- sizning davlatingiz xavfsizligini ta’minlash;
- vatanparvarlik tuyg‘ularini saqlash;
- boshqa davlatning deferentsiya qilish va ma’lum maqsadlarga erishish uchun boshqa davlatlarga ta’siri.

Axborot urushi sovuq deb nomlanadi, chunki u qurollardan foydalanmasdan kerakli natijalarga olib keladi. Fuqarolar orasida axborot urushining bunday usullari mavjud:

1. *Rasmiylarning ishtiroki.* Ushbu usulning mohiyati, nufuzli odamlar tomonidan ma’lum bo‘lgan zarur yoki shiorlarni qo‘llab-quvvatlash.

2. *Aniq bayonotlar.*Kerakli shiorlar 100% to‘g‘ri va dalillarni talab qilmaydigan darajada beriladi.

3. *G‘alaba tomoni.*Jamiyat eng yaxshi va g‘alaba qozonish kabi echimni tanlashni taklif qiladi.

4. *Majburlash.* Ushbu usul ko‘pincha shiorlarda qo‘llaniladi va harakatlarning aniq belgisi kabi tovushlar.

5. *Ma’lumot manbasini almashtirish.* Keraksiz ma’lumotlarning kirib borishni to‘xtatish imkonsiz bo'lsa, uning muallifi jamiyatni tan olmaydigan manba deb ataladi.

Keling, axborot urushlarini boshqa urushlarga qaraganda qulayliklari va yashirin jihatlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Bunday urushlar odatda birovning hududida o‘tkaziladi. Ular uchun chegaralar yoki axloqiy cheklovlar mavjud emas. Shu sababli, axborot hujumlari hatto taqiqlangan psixikani ham dushmanning ongiga singdiradi.

2. Axborot urushi izlarni ortda qoldirmaydi. Biror kishi (yoki hatto butun jamiyatda), u mustaqil qaror qabul qilganga o‘xshaydi, ammo aslida yashirin ta’sir

mavjud. Shu sababli, axborot hujumi o‘ta xavfli bo‘ladi: buni oldindan tayyorlab qo‘yilishi kerak emasligini, buni aks ettirish juda qiyin.

3. Axborot urushi iqtisodiy nuqtai nazardan juda foydali. Unda uning texnik xizmat ko‘rsatish uchun katta moddiy va inson resurslarini talab qilmaydi. Jamoatchilik fikriga ta’sir qilish uchun minimal ma'lumotlarning minimal miqdori etarli. Agar u juda yaxshi topshirilgan bo‘lsa, u juda yaxshi natijalarni beradi.

4. Axborot urushining xususiyatlari yo‘naltirilgan obyekt bilan belgilanadi. Bunday holda, biz insoniy fikrlash haqida gapiramiz. Agar ko‘prikning yo'q qilinishi “qattiq” usullarni talab qilsa, unda siz osonlikcha osonlikcha qila olasiz va “yumshoq” yondashuvlar.

5. Axborot urushi uchun ma’lum bir “mimikrlar” o'ziga xos ta’sirga taqlid qilib, uning asosiy ta’siri yo‘naltirilganiga taqlid qiladi. Bu shuni anglatadiki, bir xil ma’lumot ixtisoslashgan muassasalar va ma'lum bir shaxs uchun boshqacha topshirilishi mumkinligini anglatadi. Shu sababli maqsadli axborot ta’sirining "nomuvofiqligi"ga erishilgan, uni muvaffaqiyatli “niqoblash” haqiqatdir va shuning uchun uni aniqlash qiyin.

6. Ba’zi va bir xil faktlar va ijtimoiy hodisalar turli vaziyatlarda boshqacha qabul qilinadi. Masalan, askarlarni dushmanning nuqtai nazaridan ommaviy bo‘lish yaxshi deb hisoblanadi va o‘z buyrug‘i nuqtai nazaridan – jinoyat sifatida.

7. Axborot urushi katta ijtimoiy guruh yoki jamiyatning dunyoqarashini o‘zgartirish uchun o‘zini o‘zgartiradi. Shunday qilib, bu “tajovuzkor tomon” uning raqibi haqidagi fikriga ko‘ra uning fikrlash darajasi bo‘lish uchun uning raqibi g‘oyasiga kiritilishi kerak.

## *Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar*

Biz siz bilan “Axborot urushi” tushunchasi, uning kelib chiqishi, belgilari, usullari, maqsadi va yashirin jihatlarini ko‘rib chiqdik. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, hozirgi virtual olam rivojlangan davrda axorot urushi eng

katta xavflardan biridir. Chunki, u orqali g‘araz niyatli kimsalar, tashkilotlar, siyosiy guruhlar va davlatlar o’z maqsadlarini amalga oshirmoqdalar. Qo‘rqinchli jihati shundaki, axborot urushi barcha sohalarni qamrab oldi, jumladan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va diniy sohalar shular jumlasidandir.

Axborotga ega bo‘lishlik misli ko‘rilmagan darajadagi imkoniyatlarni ochilishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rinda xitoylik olimlarning axborot to‘g‘risidagi fikrlari yodimga tushdi. Ular shunday deydi: “Kimki axborotga ega bo‘lsa, hokimiyatga ega bo’ladi. Shu axborotni kerakli joyga tarqata olsa, ikki karra hokimiyatga ega bo’ladi. Agarda ushbu axborotni tarqalib ketishini olidini olib, o‘zida saqlay olsa, uch karra hokiiyatga ega bo’ladi”. Bundan ko‘rinib turibtiki, axborot urushining maqsadi ham axborotga ega bo’lish, axborotni o‘z maqsadi yo‘lida tarqatish va axborotni yashirish. Buning ortidan esa o‘zi xohlagan kuchga, hokimkiyatga ega bo’lishdir. Shunday tahlikali zamonda yovuz kuchlarning tahdidlaridan himoyalanish uchun yuksak intelektual qobiliyatga, ma’naviy immmunitetga, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash muhim va dolzarb masaladir. Biz axborot urushlaridan faqatgina shunday kadrlar yordamida himoyalana olamiz.

# 3-BOB. YOSHLAR MA’NAVIY HAYOTIDAGI TRANSFORMASIYALAR TAHLILI

Dunyoda barcha sohalarda misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishlar bo‘lmoqda. Rivojlanishlarga inson tafakkuri, tinimsiz harakatlari va izlanishlari tufayli erishilmoqda. Bu taraqqiyot mahsullari, yangilanishlar va yutuqlardan ko‘zlangan yagona maqsad: “inson hayoti” va “uning porloq kelajagi”dir. Butun dunyo mana shu farovon hayot va porloq kelajak uchun intilmoqda. Hech bir shubha yo‘qki, barcha xohlayotgan kelajakni qurushda asosiy yo‘l yoshlardir. “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq”.[40]

Bugun siz bilan biz kelajakni ishonib turgan yoshlarimizning dunyoqarashi, salohiyati, ma’naviy dunyosi, ularning intilishlari va ular amalga oshirayotgan ishlari ishonchimizni qay darajada oqlaydi, degan savolni har birimiz o‘zimizga bermoqligimiz lozim. Barcha yoshlar chindan ham o‘zlarining kelajaklari uchun vaqtdan unumli foydalangan holda ularga berilgan barcha imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanmoqdamilar? Afsuski, bu savollarning javobi bizni anchagina xafa qiladi. To‘g‘ri, juda ko‘plab yoshlarimiz barcha sohalarda katta natijalarga erishmoqdalar. Sport sohasida yurtimiz bayrog‘ini jahon arenalarida yuksaklarga ko‘tarmoqdalar, fan olimpiadalarida katta-katta yutuqlarga erishilmoqda. Bu g‘alaba, yutuqlar bilan biz faxrlanamiz. Lekin, yurtimizdagi yoshlarning qancha qismi shu muvaffaqiyatlarga erisha olyapti.

## 3.1. Yoshlar ma’naviyatiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri

Yoshlarning aksariyat qismi ijtimoiy tarmoqlar iskanjasida qolmoqda va vaqtlarining katta qismini behuda sarflamoqdalar. Eng katta boyligimiz bo‘lgan yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarning “quli”ga aylanib borayotganilini ko‘rib turush

[40] Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.

juda ham achinarli  holat va dolzarb muammolarimizdan biridir. Maqolamiz orqali ijtimoiy tarmoqlar haqida, ularning yoshlarga ta’siri va kelajakda kutulayotgan natijalar haqida fikr yurutamiz.

Ijtimoiy tarmoqlar – insonlar o‘rtasida muloqotning va axborot almashinuvi vositasidir.  Ijtimoiy tarmoq tushunchasi ilk bor o‘tgan asr o‘rtalarida R.Solomonoff va A.Rapoportlarning asarlarida  virtual muloqot sifatida hayol qilinganligi aytib o‘tiladi.  Ijtimoiy tarmoq tushunchasini ilk bor 1954-yilda Manchester maktabi namoyondalaridan biri J.Barns ilmiy adabiyotlarga alohida tushuncha sifatida kiritgan. J. Barns ijtimoiy tarmoq bu ijtimoiy ob’ektlar (odamlar èki tashkilotlar) va ular o‘rtasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar) bo‘lgan tugunlar guruhidan iborat bo‘lgan ijtimoiy tuzilishdir, deb ta’kidlab o‘tgan.

XX asr oxiri va asrimizning asrimizning boshlarida internetga kiruvchilarning ko‘p qismi, asosan, chatlardan foydalanib, keraksiz gap-so‘zlar bilan internetda o‘tirar edi. Bu chatlar hozirgi kunga kelib, keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan maxsus dasturlar va ijtimoiy tarmoqlarga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali so‘zlashuvlar olib borish, videolavhalar, audio yozuvlar, turli rasmlar yuborish imkoniyati mavjud. Bulardan tashqari do‘stlar orttirish, bir xil qarashga, fikrga ega bo‘lganlar uchun turli guruhlarga a’zo bo‘lish kabi qulayliklar bor.

Ijtimoiy tarmoqlar insoniyatga berayotgan yengilliklar, imkoniyatlarni inkor eta olmaymiz. Keling, ijtimoiy tarmoqlarning afzallik tomonlarini va bizga bergan imkoniyatlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz:

*muloqotning umumiyligi* – ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyoning istalgan yeridan istalgan odam bilan muloqot qila olish imkoniyatini beradi. Bunda muloqot qilish imkoniyatlari hamma uchun birdekdir. Bu omil so‘z erkinligini kafolatlaydi, ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tabaqalanishni oldini oladi;

*oson va tezkor aloqa* – qayerda bo‘lmaylik kim bilandir aloqa o‘rnatish kerak bo‘lsa, yaqin o‘tmishdagidek kimlargadir murojaat qilishimiz, telefon shahobchalarini izlashimiz shart emas. Oddiygina noutbuklarimizni ochishimiz

yoki qo‘limizda ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lgan aqlli telefonimizdan foydalanishligimizni o‘zi kifoya;

*zamon va makonda tezkor axborotlarga ega bo‘lish* – insonlar endi yangiliklarni eshitish uchun televideniyada axborotlarni, kunning qaysidir qismida tarqatiladigan ro‘znomalarini soatlab kutib o‘tirishlari shart emas;

*axborot topish va almashishdagi yengillik* - ijtimoiy tarmoqlarda biror mavzudagi axborotni yengillik bilan topish mumkin. Deylik, salomatlik sohasiga qiziqqan kishi ayni shu yo‘nalishdagi kanal va guruhlarga a’zo bo‘lishi mumkin. Turli sohalarda maslahatlar olish, kerakli bilim va tasavvurlar hosil qilish imkoniga ega;

*shaxsiy tarbiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi* – ijtimoiy tarmoqlarning eng maqtovli, ahamiyatli jihatlaridan biri – ilm olish, kasb-hunar o‘rganishdagi beqiyos yordamidir. Kundalik turmushda duch kelinadigan turli yumushlarni bajarishni ham internet, xususan ijtimoiy tarmoqlar yordamida oson o‘zlashtirish mumkin. Oddiy misol, ayollar bichish-tikish yoki pazandalik sirlarini Youtube tarmog‘idagi kanallardan bemalol o‘zlashtira oladi. Zamonaviy matematika, dasturlash, iqtisodiyot asoslari, psixologiya, chet tillar kabi bugunning eng dolzarb, talab yuqori bo‘lgan fan yo‘nalishlari bo‘yicha ham istalgancha videodarslar, qo‘llanmalar topish mumkin. Virtual auditoriya uchun tashkil etiladigan onlayn darslarda qatnashsa bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoqlar arzon va bepul ta’lim olish uchun imkoniyat eshiklarini juda keng ochgan.

Yuqorida biz sanab o‘tgan ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlaridan yoshlar ham keng ko‘lamda foydalanayotganligi quvonarli holat albatta. Lekin, bir narsani unutmaslik kerakki, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday yozgan edi: “Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin”.[41] Ijtimoiy tarmoqlar ham bundan mustasno emas.

---

[41] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. – T., 2008.

Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy qurbonlari sifatida yoshlarni ko‘rishimiz mumkin. Bugun dunyo aholisining 90 % dan ortig‘ida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Foydalanayotganlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqti 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo‘qdek.[42] Lekin, bir narsani unutmaslik kerak bu eng minimal ko‘rsatkich hisoblanadi. Kunini asosiy qismi ijtimoiy tarmoqlarda o‘tib ketayotgan yoshlarimizning soni ham anchagina. Keling, anashu 3 soatni hisoblab ko‘ramiz.

2021-yil holatiga ko‘ra O‘zbekistonda internettan foydalanuvchilar soni 23 millionni tashkil etadi. Bu degani 23 million odam bir kunda 3 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston aholisining bir kunda 69 million soati ijtimoiy tarmoqlarda o‘tib ketmoqda. Bir kunda 69 million soat, bir haftada 483 million soat, bir oyda 2 milliard soatdan ziyod xalqimizning vaqti sovurilmoqda. Boya bizga arzimasdek ko‘ringan 3 soat milliardlarga aylandi. Mana shu milliardlab soatlarga ijtimoiy tarmoq bizga berayotgan narsalar arzimasligi kundek ravshan.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma’naviy qiyofasini o‘zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar o‘rtasida axloqsizlik, faxsh, buzg‘unchilik, yovuzlik kabi illatlarning avj olishiga sabab bo‘ldi. Bunga sabab ushbu virtual muloqot vositasi orqali turli audio, foto, video ko‘rinishlardagi materiallarning keng miqyosida tarqala olish qobiliyatining mavjudligidir. Faxshning bu ko‘rinishda tarqalishi qo‘pol qilib aytganda yoshlarimizning ko‘zlarini erta ochib qo‘yilishiga olib kelgani hammamizni hafa qiladigan holatdir. Xalqimizga xos bo‘lgan odob, axloq, hayo, andisha kabi hislatlarning yo‘q bo‘la boshlayotganligi, mentalitet, qadriyat kabi tushunchalarga nisbatan mensimaslik holatlarining kuzatilayotganligining asosiy omili sifatida ijtimoiy tarmoqlarni olishimiz mumkin.

[42] Rajabov H.I. “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T:. “Fan va texnologiya” 2020 yil, B-207

Kuniga telegram, instagram, youtube, vkantakte, tiktok kabi ijtimoiy tarmoqlarga yoshlar o‘zlarining behayo fotosuratlarini, videolarini joylaydilar. Shariatimizga ko‘ra ayol kishiga, qiz bolaga begona nomahramlarning ko‘zi tushushi mumkin emas. Qadimdan bizni onalarimiz begonalar ko‘zlaridan saqlanishlik uchun ro‘mol o‘rab yopiq kiyinishga harakat qilib kelishgan. Hozirchi…? Yoshlar ayniqsa, qizlar o‘zini begona ko‘zlardan saqlash uyoqda tursin o‘zlarini “ko‘z-ko‘z” qilishlik uchun fotosurat va videolarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirmoqdalar va uni kuzatib boruvchi “prosmotr”lardan o‘zining rasmi yoki videosi uchun izoh – “comment” kutib qolishmoqda.

Dunyoda eng buyuk zot inson ona deyishadi. Chunki, barcha buyuk insonlarni onalar dunyoga keltirib tarbiyalaydilar. Biz o‘zining behayoliklarini ko‘z-ko‘z qilib turgan qizlarimizdan qanday buyuklikni kuta olamiz. O‘zi tarbiyasiz bo‘lgan inson qanday qilib tarbiyali farzandlarni kamolga yetkaza oladi. Eng qo‘rqinchli jihati ham anashunda. Bizni, xalqimizni, yurtimizni kelajagi shu “commentchi” yoshlar dunyoga keltiradigan farzandlar qo‘lida ekanligidir. Insonni g‘azabini chiqaradigan narsa shuki, bu narsalarga erkaklarning, otalarning, akalarning, ukalarning, erlarning jimgina qarab kuzatib turganliklari va hatto ayrimlarining “Like” bosayotganligi. Abu Ali ibn Sinoning hayo – insonning abadiy go‘zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o‘xshaydi,[43] degan gaplarini afsuski ayrim yoshlarimiz unutib qo‘ymoqda.

Jamiyatshunos Sherri Terkl “Alone Together”(Birgalikdagi yolg‘izlik) nomli kitobida: “Ijtimoiy tarmoqlardagi suhbatlar insoniylikni barbod qilayotgan ahmoqlikning yangi shaklidir”,[44] – deya ta’kidlaydi. Haqiqatan ham odamlarning ijtimoiy tarmoqlarda shiddat bilan suhbatdosh izlashi zamonamiz avlodiga xos ahmoqlikning yangi turidan boshqa narsa emas. Virtual olamda yoshlarning qancha faolligiga qarab, ularning fe’l-atvoriga baho bersa bo‘ladi.

---

[43] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/abu-ali-ibn-sino-hikmatlari
[44] Sherri Terkl —Alone together

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat uchun yana bir xavfli eng katta tahdidlaridan biri ko‘plab tinch-totuv oilalarning buzulib ketayotganligidir. Biz uchun oila muqaddas hisoblanib, undagi tartib-qoidalar dolzarb ahamiyatga ega. Umuman, unda o‘rnatilgan o‘ziga xos qoidalar oila mustahkamligini ta’minlashda muhim bo‘lib kelgan. Masalan, Markaziy Osiyo hududiga Islom dini yoyilgach, oilaga doir qonun-qoidalar ushbu din ta’limotlari asosida shakllandi. Ya’ni oilada erning mavqei balandligi, shu bilan bir qatorda, xotin ham teng haq-huquqlarga ega ekani, farzandlar bilan ota-onalari o‘rtasidagi odob, hurmat chegarasi borligi, o‘zaro yaxshi muomalada bo‘lish kabilar.[45] ijtimoiy tarmoqlardagi ayrim siyosiy-mafkuraviy kuchlar, g‘araz niyatli kimsalar azaldan shakllanib kelayotgan ana shunday qoidalarni yoshlar ongida o‘zgartirishga harakat qilishmoqda.

Bu bilan yoshlarni o‘z yaqinlariga qarshi qilib qo‘yishmoqda. Natijada, ana shunday ruhda katta bo‘lgan yoshlar oila qurganlarida hayot sinovlariga chiday olmasdan, yengil hayotni afzal ko‘rib, oilalar buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra 2021-yil yurtimizda 36000 dan ortiq oilalarda ajrim qayd etilgan.[46] ajrimlar qayd etilgan oilalarni yoshiga nazar tashlasak, ajrimlarning 80 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan yosh oilalar hisobiga to‘g‘ri keladi. Sankt-Peterburg tahlil markazi mutaxassislari o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra ajrashgan oilalarning 15 foizi ijtimoiy tarmoqlarni sabab qilib ko‘rsatmoqda. Bu sizu bizni qo‘rquvga soladigan holat. Tasavvur qiling, agar oilalar ajrimlari shu asnoda davom etaversa yaqin kelajak o‘n yillikda yurtimizda millionlab yetim bolalarning paydo bo‘lishiga olib keladi va o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy muammolarning demografik buzulishlar kelib chiqishiga olib keladi.

Yuqorida biz sanagan ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongi, ma’naviyati, psixologiyasi, dunyoqarashiga salbiy ta’sir qilayotgan ayrim jihatlarini ko‘rib chiqdik holos. Hali bu ko‘plab bunday salbiy ta’sirlarini davom ettirsak bo‘lardi.

[45] Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o‘quv qo‘llanma // M.Amin Yahyo; Mas’ul muharrir A.Hasanov. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. – 162 b

[46] stat.uz

Agar yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi shu zaylda davom etsa, biz bir avlodni boy berib qo‘yishligimiz ehtimoli juda katta. Xo‘sh, buni oldini olishimiz uchun nima qilish kerak?

*Birinchidan,* ijtimoiy tarmoqlar qurboni bo‘layotgan yoshlarni dunyoga keltirayotgan ota-onalarni tarbiyalamoq lozim. Hozirgi kunda juda ko‘plab ota-onalar farzandlari hali aqlini tanib tanimasdan turib ularning qo‘llariga telefon tutkazmoqdalar. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari qo‘llarida ham telefonlarning borligini kuzatishimiz mumkin. Hatto, 1-2 yoshli norasida bolalarni ovutishlik, shovqinidan qutulishlik, ovora qilib qo‘yishlik maqsadida juda ko‘plab ota-onalar, kattalar ularni qo‘liga tutkazib qo‘ymoqdalar.

Yosh bola psixologiyasiga ko‘ra ular yorqin narsalar tomon intiladi, e’tiborlarini qaratadi. Biz shunday qilib yoshlarni go‘daklik chog‘idanoq manqurtlarga aylantirib bormoqdamiz. Shifokorlarning ta’kidlashicha, yosh bolaning yorqin narsaga yaqin masofadan qarashi bolaning ko‘z nuriga salbiy ta’sir qilib ko‘z kasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Qarangki, ota-onalar o‘zlarining huzur-halovatlari, quloqlarining tinchligini o‘ylab ertangi kun egalari bo‘lgan farzandlarini o‘z qo‘llari bilan ma’naviy qashshoq, aqlan zaif va jismonan ojiz qilib tarbiyalamoqdalar. Xalqimizning *“baliq boshidan sasiydi”,* degan gaplariga mana yaqqol misol. Ota-onalarni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari eng to‘g‘ri yo‘l deb bilaman. Chunki, boshqa usul biroz qiyin va samarasizroqdek. Televideniya orqali ijtimoiy tarmoqlarni umuman telefon, planshet, kompyuter kabi qurulmalarning yoshlarga, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarga salbiy ta’sirlari aks ettirilgan ko‘rsatuvlar orqali ota-onalarni tarbiyalashlik maqsadga muvofiq.

*Ikkinchidan,* yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish. Umuman manashu “bo‘sh vaqt” tushunchasini butunlay yo‘qotmoqlik lozim. Butun dunyo ertangi kuni uchun kurashayotgan bir davrda bizni yoshlarimizda bo‘sh vaqtning bo‘lishi ancha bizni xavotirga soladigan holat deb o‘ylayman. O‘zbekistonda umumta’lim maktablarida kunlik dars vaqti 5-6 soat hisoblanadi. O‘quvchilarning

katta qismi maktabda dars tugagandan so‘ng bo‘sh qoladi. Hamma yomon odatlar inson bo‘sh qolganida yuzaga keladi. Maktabdagi fan to‘garaklariga qatnashish o‘quvchilar uchun ixtiyoriydir, balki o‘sha ixtiyoriylikni majburiylikka o‘tkazish payti kelgandir. O‘zbekistondagi xususiy maktablar faoliyatiga qarasak, ularda o‘quvchilar kunning birinchi yarmida umumiy fanlarni o‘qiydilar, ikkinchi yarmida o‘z qiziqishlariga ko‘ra ixtisoslashtirilgan maxsus fanlarni o‘qiydilar. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turubti o‘quvchilarning telefonga, internetga, ijtimoiy tarmoqlarga ajratishga vaqti yo‘q. Davlat maktablarida ham shu tizimning yo‘lga qo‘yilishi O‘zbekiston kelajagi bo‘lgan yoshlarning noyob intelektual salohiyat egalari bo‘la olishliklariga hech shubhamiz yo‘q.

*Uchinchidan,* siyosiy kurash, mafkuraviy kurash, ma’naviy kurash, biologik kurash, kimyoviy kurash kabi iboralarni ko‘plab eshtganmiz. Bu o‘zini o‘ziga qurol sifatida ishlatish deganidir. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga zararlarini oldini olishlikda ham ijtimoiy tarmoqlarning o‘zini qurol sifatida foydalanmoqlik maqsadga muvofiqdir. Chunki, bugun juda ko‘p yoshlar kitob o‘qimay, televizor ko‘rmay, radio eshtmay qo‘ydi. Yoshlarning katta qismini ijtimoiy tarmoqlardan topa olamiz. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan, ularni dunyoqarashini o‘gartira oladigan, mativatsiya bera oladigan turli loyihalar ko‘paytirilsa yaxshiroq samara beradi. Bu uchun ilk qadamlar tashlangan, keling ayrim loyihalarni ko‘rib chiqamiz.

MFactor loyihasi — O‘zbekistonda biznes muhitini yangilash va kengaytirish, tadbirkorlikka oid bilimlarni faol targ‘ib qilish, tajribali insonlar va biznesga endi kirib kelayotganlar yoki muammolariga yechim izlayotganlar o'rtasida ko'prik bo'luvchi ilm platformasi. Loyihaga aka-uka tadbirkorlar – Hasan va Husan Mamasaidovlar mamlakatimizda bilim, qadriyat atrofida insonlarni bir joyga yig'ish, yurtimizdagi tadbirkorlar sonini yanada oshirish, o‘zbek xalqiga muvaffaqiyatli insonlarning tajribalarini ko‘proq ulashish maqsadida asos solishgan. Bu loyiha quyidagi ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat olib boradi:

• YouTube - https://www.youtube.com/c/MFaktoruz - 325 000 ta obunachi;

• Telegram - https://t.me/MFaktorUZ - 26 672 ta obunachi;

• Instagram - https://www.instagram.com/MFaktorUZ - 139 000 ta obunachi;

• Facebook - https://www.facebook.com/MFaktorUZ - 18 000 ta obunachi;

• TikTok - https://tiktok.com/@MFaktor.uz – 114 700 ta obunachi.

Qarang, bitta shu loyihani ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilar soni 623 372 tani tashkil qilmoqda. Obunachilarning deyarli hammasi yoshlar ekanligi bizni quvontiradigan holat albatta. Bu loyiha ijtimoiy tarmoqlarga joylayotgan videolarini koʻrgan "prosmotr"lar soni milliondan ortiq. Yana "Osmondagi bolalar", "Yuksalish", "In brean", "Najot ta'lim" kabi loyihalarni kiritishimiz mumkin. Mazkur loyihalarni kuzatib borayotgan millionlab yoshlar oʻz kelajaklari, karyeralari uchun kerakli ma'lumotlarni olmoqdalar, oʻzlari uchun yetarlicha xulosalar chiqarmoqdalar. E'tibor bersak biz sanagan loyihalarning barchasi shaxsiy loyihalardir. Davlat tomonidan yaratilgan va faoliyati muvofiqlashtirib boriladigan ijtimoiy tarmoqlardagi birorta ham koʻzga koʻrinarli loyihaning yoʻqligi ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga zararli ta'sirlariga qarshi kurashning "virtual kurash" tizimi yoʻqligidan dalolat beradi.

## 3.2. Kibertahdidlarning yoshlar ma'naviy hayotidagi salbiy oqibatlari

Yoshlar ma'naviyati barcha zamonlarda eng muhim masala boʻlib kelgan. Bugungi globallashgan dunyoda bu masala e'tiborning eng yuqori choʻqqisiga yetdi. Chunki, yoshlar ma'naviyatiga boʻlgan tajovuzlarning yangicha koʻrinishlari, usullari va qurollari paydo boʻldi. Bu qurollar ichida eng xavfli harakterga(oqibatga) ega boʻlgani kibertahdidlardir.

Kibertahdidlarning yoshlar ma'naviyatiga quyidagi salbiy oqibatlarini sanashimiz mumkin:

- global tarmoqqa qaramlik;
- kiberjinoyatlarga aralashuv;
- ijtimoiy tarmoqqa tobelik;

- axloqsiz virtual imidj;
- kiberludomaniya;
- submadaniyatlarning rivojlanishi;
- kibermakonda psixologik dipressiya;
- diniy e’tiqodga bo‘lgan tajovuz.

*Global tarmoqqa qaramlik.* Global tarmoqlarni biz bir so‘z bilan kibermakon deb atashimiz mumkin. Global tarmoqlar – barcha ko‘rinishdagi telekommunikatsiya aloqa vositalarining birlashmasidir. Komyuterlar, mobil qurilmalar, masofadan turib ishlovchi barcha texnikalar global tarmoq orqali muloqotda bo‘ladi. Global tarmoqning eng bo‘g‘ini internetdir. Bugungi kunda dunyoda 5 milliard inson internet tarmoqlaridan foydalanadi. Bu dunyo aholisining 63 foizini tashkil etadi. Hootsuite.com saytining ma’lumotlariga qaraganda dunyo aholisi (16 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lgan qatlam inobatga olingan) bir kunda o‘rtacha hisobda 6 soat 55 minut vaqtini internetda, 2 soat 29 minut vaqtini esa ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishi aniqlangan.[47]

Agar bugungi kundagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining sonini tahlil qiladigan bo‘lsak foydalanuvchilar soni kun sayin o‘sib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan: 2020 yil iyul holatiga ko‘ra 2.603 mlrd nafar aholi Facebookdan, 2 mlrd nafari youtubedan, 2 mlrd nafari whatsapp, 1.300 mlrd nafari Fb messenger, 1.203 mlrd nafari Wechat, 1.082 mlrd nafari Instagram, 800 nafari Tiktok va boshqa ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari hisoblanishadi.[48]

Misol uchun, AQShda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 10 dan 19 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlarning taxminan 16% va 18 dan 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning 16% internetda kuniga 15 soatdan ko'proq vaqt sarflaydi va internetga qaramlik belgilariga ega.[49]

---

[47] https://wearesocial.com/blog/2020/07/digital-use-around-the-world-in-july-2020

[48] https://datareportal.com/reports/digital-2020-global-digital-overview

[49] Steiner-Adair C. The Big Disconnect: Your Student in Class vs. Your Student Online [Electronic resource] // Independent School. 2015. Vol. 74 (2).

Yuqoridagi sonlardan koʻrinib turibdiki, dunyo aholisining juda koʻpchiligi global tarmoqlarga bogʻlanib ulgurgan va ular endi bundan aslo vos kecha olmaydilar. Albatta, insonlar oʻzlarining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishlari, ma’lum bir sohalarda yutuqlarga erishishlari, ilmiy izlanishlar olib borishlari, karyerasini rivojlantirishlari va shu kabi ishlar uchun global tarmoqlardan foydalanishligi toʻgʻri tanlovdir. Afsuski, global tarmoqdan foydalanayotganlarning katta qismi tarmoqdan behuda foydalanmoqda. Ularda eng katta yoʻqotish vaqt boʻlmoqda.

Yoshlar ayni oʻqiydigan, izlanadigan, oʻzi, yaqinlari, jamiyat, davlat uchun naf keltirishlikka harakat qiladigan paytda ularning umri oʻrgimchak toʻridek qoʻyib yubormas tarmoqlarda oʻtib ketayotganligi xalqimiz uchun katta falokatdir. Yoshlar turli internet saytlari, kompyuter oʻyinlari va ijtimoiy tarmoqlarga shu qadar bogʻlanib qolganki, goʻyoki virtual olam ular uchun kechib boʻlmas dunyodek.

*Yoshlarning kiberjinoyatlarga aralashuvi.* Kiberjinoyatchilik – kibermakondagi barcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda jinoyatlarni amalga oshirish harakatidir. Kiberjinoyatchilik global tarmoqda qonunga zid boʻlgan axborotlar tayyorlash va ularni tarmoq orqali tarqatish, turli saytlarga ruhsatsiz buzib kirish, ishdan chiqarish, viruslar va shunga oʻxshash zararli dasturlarni tarqatish, firibgarlik bilan shugʻullanish, xakerlik faoliyatini olib borish, tarmoqdan foydalanuvchilarning sahifalariga ziyon yetkazish yoki ularni oshkor qilish, bank hisoblarini oʻgʻirlash, bank faoliyatida zarar yetkazish, davlat sirlarini oshkor qilish, taqiqlangan sahifalarga kirish kabi huquqbuzarliklarni oʻz ichiga oladi. Kiberjinoyatchilik bilan shugʻullanayotganlarning soni kundan-kunga ortib borayotganligi davlatlar oldiga muhim vazifalarni qoʻymoqda.

Dunyo bo'ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kiber makonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qoʻshma Shtatlari, Frantsiya, Angliya, Germaniya, Belgiya,

Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda kiberjinoyatchilik ko'rsatkichi umumiy jinoyatchilikning 60-65 foizini tashkil etadi.[50]

O‘zbekistonda ham so'nggi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko‘payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foizini tashkil etmoqda. Xususan, noqonuniy bank-moliya operasiyalari orqali o'zgalarning plastik kartadagi mablag‘larini o‘zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o‘yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko'payib bormoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, kiberxavfsizlikni ta’minlash masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo bo‘ylab kiberjinoyatchilarning aksar qismini yoshlar tashkil qilayotganli quvonarli hol emas albatta. Kiberjinoyatchi bo‘lish juda kop mashaqqatli ishligiga qaramay yoshlar bu borada yetakchilikni qo‘lga olmoqda. Bunga sabab turli onlayn platformalarning, elektron darsliklarning, ijtimoiy sahifalardagi reklamalarning ko‘pligi yoshlarga o‘zlarining “kibersalohiyat”larini oshirishga yo‘l ochib bermoqda. Jamiyatning asosiy muammolaridan bo‘lgan ishsizlik, daromatning kamligi, og‘ir turmush tarzi kabi ijtimoiy muammolar ham yoshlarning oson pul topish yo‘llarini izlashga va bu orqali virtual dunyoda huquqbuzarliklar qilishga majbur qilmoqda.

*Ijtimoiy tarmoqqa tobelik.* Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma’naviy qiyofasini o‘zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar o‘rtasida axloqsizlik, faxsh, buzg‘unchilik, yovuzlik kabi illatlarning avj olishiga sabab bo‘ldi. Bunga sabab ushbu virtual muloqot vositasi orqali turli audio, foto, video ko‘rinishlardagi materiallarning keng miqyosida tarqala olish qobiliyatining mavjudligidir. Faxshning bu ko‘rinishda tarqalishi qo‘pol qilib aytganda yoshlarimizning ko‘zlarini erta ochib qo‘yilishiga olib kelgani hammamizni hafa qiladigan holatdir.

Xalqimizga xos bo‘lgan odob, axloq, hayo, andisha kabi hislatlarning yo‘q bo‘la boshlayotganligi, mentalitet, qadriyat kabi tushunchalarga nisbatan

[50] https://uza.uz/uz/posts/virtual-olamdagi-global-tahdid_350549

mensimaslik holatlarining kuzatilayotganligining asosiy omili sifatida ijtimoiy tarmoqlarni olishimiz mumkin. Kuniga telegram, instagram, youtube, vkantakte, tiktok kabi ijtimoiy tarmoqlarga yoshlar o‘zlarining behayo fotosuratlarini, videolarini joylaydilar.[51] Bu illat ertangi kunimiz egalari bo‘lgan yoshlarning quloqlarini kar, ko‘z qilib qo‘yayotganligi va kun sayin o‘z domiga yanada ko‘proq yoshlarni tortib borayotganligi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridandir.

Professor G.G‘affarova o‘zining ilmiy maqolasida ijtimoiy tarmoqlarning quyidagi xavfli ta’sirlarini sanab o‘tgan: Internet tarmog‘iga bog‘lanib qolish; o‘qish va bilim olishga engiltaklik bilan munosabatda bo‘lish (internetdan tayyor dars ishlanmalari, matematik masalalar echimlarini osongina topish hisobiga dars topshiriqlarini mustaqil bajarmaslik); jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir xavfi, ya’ni bolaning faol harakatda bo'lmay, uzoq vaqt monitor ro‘parasida o‘tirishiga to‘g‘ri kelishi va boshqalar.[52]

*Axloqsiz vitual imidj.* Yoshligimizdan to‘g‘ri yur, chiroyli kiyin, hushmuomala bo‘l kabi ota-onalarimiz, bobo-buvilarimiz mahalladagi, ta’lim muassasalarimizdagi kattalarning tanbehlarini eshitib katta bo‘lganmiz. Ularning bu tanbehlari orqali biz o‘z harakterimiz, dunyoqarashimizni, qiyofamizni shakllantirib keldik. Insonning shaxs bo‘lib shakllanishida albatta oila, mahalla, ta’lim dargohi, jamiyatning o‘rni beqiyos va bir ma’noda ular bizning asosiy tarbiyachilarimizdir. O‘zimizning qiyofamizni (imidjimizni) shakllantirishimizda atrofdagilarga albatta qaraymiz.

**Imidj** (ing . image, lot. imago — timsol, ko‘rinish) — shaxs, hodisa, narsaning ommalashtirish, reklama qilish va boshqa maqsadlarda odamlarga

---

[51] Berkinov O.(2022). IJTIMOIY TARMOQ: YOSHLAR VA “KELAJAK”. Scientife Bullettin of NamSU - Научный вестник - NamDU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil_3-сон 184-b

[52] Gulchehra G‘affarova, Dilmurod Jumanov. (2021). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri // Academic research in educational sciences. №4.‖URL: https://cyberleninka.ru/article/n/izhtimoiy-tarmo-larning-yoshlar-manaviyatiga-tasiri(дата‖пбсащениѐ:‖ 03.02.2022).

hissiyruhiy ta’sir ko‘rsatishni ko‘zlab shakllantiriladigan qiyofasi; targ‘ib qilish vositalaridan biri.[53]

Hozirgi kunda insonning tashqi qiyofasi ya’ni tashqi imidjidan boshqa yana bir imidji paydo bo‘ldi. Bu insonning virtual imidjidir.

Virtual imidj – insonning virtual tarmoqlar, veb-saytlar, ijtimiy tarmoqlar, virtual o‘yinlar va umuman barcha turdagi axborot-kommunikatsiya vositalaridagi qiyofasidir. Ya’ni tarmoqdan qanday maqsadlarda foydalanishligi, kuniga qancha vaqtini sarflashligi, ijtimoiy tarmoqlarda qay darajada faolligi, internetdan foydalanish madaniyati, ko‘proq qaysi veb-saytlardan foydalanishligi va shu kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Virtual imidjda insonning virtual harakteri ham shakllanadi. Virtual harakterga mukkasidan ketish, tarmoqlarga aralashuv, barcha platformalarda faollik ko‘rsatish, ijtimoiy tarmoqlarga positive yoki negative munosabat ya’ni “comment” bildirish va shu kabilar kiradi.

Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek yoshlarning tashqi qiyofasi ko‘pchilik tomonidan nazoratga olinadi va tartibga solinadi. Afsuski, virtual imidjda bunday imkoniyat juda cheklanganligi sababli barcha yoshlarni to‘liq nazorat qilib bo‘lmaydi. Shu sababli ham hozirgi kunda yoshlarning juda katta qismida axloqsiz virtual imidj shakllanib bormoqda. Yoshlar aksar qismi tarmoqdagi vaqtining katta qismini pornografik saytlarda, axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi platformalarda, behayo reklamalarni kuzatishda va shu kabi inson ma’naviyatini o‘ldiruvchi va olmoncha madaniyatni shakllantiruvchi virtual qabihlik dunyosida o‘tkazmoqda. Bundan tashqari eng achinarli tomonlaridan yana biri yoshlar nafaqat kuzatuvchi balki axloqsizlikni targ‘ib qiluvchilarga ham aylanib qoldi.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga o‘zlarining hayosiz rasmlarini, videolarini joylay boshlashligi ular o‘rtasida o‘ziga xos “urf”ga aylanib ulgurdi. Birgina TikTok platformasi foydalanuvchilarining 41 foizini 16 yoshdan 24

[53] https://uz.wikipedia.org/wiki/Imij

yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi va ularning 90 foizi har kuni platformadan foydalanadi.[54]

*Kiberludomaniya.* Ko‘chada yurar ekanmiz har qadamda turli kompyuter klublar, playstationlarga  ko‘zimiz tushadi va doim bu yerlar yoshlar bilan to‘la bo‘ladi. Bu holat kun sayin ortib bormoqda. Yoshlarda kompyuter o‘yinlariga bo‘lgan qiziqishlari ularni tashqi dunyodan ajratib fikru hayolini “kompyuter game”lar egallashiga olib kelmoqda. Yaqin yillar ichida jahon tibbiyot xodimlari dunyoda yangi bir kasallik paydo bo‘lganligini aniqladilar.

Virtual o‘yinlarga mubtalo bo‘lish zamonaviy ilmiy tilda “ludomaniya” (lotincha “ludo” – “men o‘ynayman”, qadimgi yunoncha “maniya” – “ehtiros”, “mubtalolik”, “o‘chlik”), deb atalib, giyohvandlik, tamaki va alkogol mahsulotlariga qaramlik kabi xavfli kasalliklardan hisoblanadi.

Ludomaniya – xuddi piromaniya kabi ruhiy kasallikdir. “Kibernetik ludomaniya” tushunchasi jahon meditsina amaliyotiga rasman kiritilgan kasallik nomi. Kiberludomaniya – kompyuter o‘yinbozligi. Kompyuter o‘yinlariga haddan ortiq bog‘lanib qolishning asoratlari yoshlarning hayot tarzida, jismoniy va ma’naviy sog‘lig‘ida namoyon bo‘ladi.

Virtual o‘yinlarga mutelik yoshlarning o‘spirinlik davrida uchraydi. AQSH maktab o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, qizlarning 50 foizi har kuni 5 soat, o‘g‘il bolalarning 80 foizi 7 soat vaqtlarini virtual o‘yinlar uchun sarflaydi. Shuningdek, Yaponiya va Xitoyda ham virtual o‘yin ishqibozlarining juda ko‘pligi aniqlangan.[55] Afsuski yurtimizda ham juda ko‘p yoshlar kompyuter o‘yinlarga mukkasidan ketishga ulgurib bo‘ldi. Ba’zida maktab o‘quvchilarining ham dars paytida kompyuter klublarida yurganini guvohi bo‘lamiz.

Virtual o‘yinlarga mukkasidan ketish yoshlarda quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi: virtual o‘yinlar yoshlarga rohat bag‘ishlaganligi uchun o‘yin

---

[54] https://uz.wikipedia.org/wiki/TikTok

[55] Yaxyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. – 543 b.

davomida adrenalin garmoni ajralib chiqadi va insonni oʻzini oʻzi boshqarish qobiliyatini yoʻqotishiga sabab boʻladi. Natijada insonning hayoli oʻyindagi manashu lazzatni davom ettirish boʻlib qoladi va butunlay atrof-muhitni unutadi. Yonidagi insonlarning gaplari unga qiziqmasdek tuyulib qoladi. Bu narsalarning takrorlanishi yoshlarda insonlarga, oilaga, doʻstlarga, oʻqishga boʻlgan e'tiborini tushirib, oʻzini virtual qahramondek his qilishlariga sabab boʻladi.

*Submadaniyatning rivojlanishi.* Kibermakonning imkoniyatlari chek-chegarasizdek goʻyo. Kibermakon jamiyatning barcha sohalariga ham ijobiy ham salbiy ta'sir koʻrsatish bilan birga inson ongi, axloqi, ma'naviyati, ruhiyati, dunyoqarashi va madaniyatining ham oʻzgarishiga keng yoʻl ochmoqda. Oxirgi yillarda "ommaviy madaniyat", "submadaniyat" kabi iboralar qulogʻimizga tez-tez chalinadigan boʻlib qoldi. Bunga sabab bugungi rivojlangan globallashuv davrida "madaniyatlar integratsiyasi", "milliylikning yoʻqolishi", "madaniyatlar eksporti" kabi jarayonlarning tezlashganligidir. Ayrim guruhlar, sinflar, tabaqalar, millatlarning oʻzlarini boshqalardan ajratib turish uchun yaratayotgan qiyofalari submadaniyat degan tushunchaning paydo boʻlishiga sabab boʻldi.

Submadaniyat sub (lotincha – "ost") va madaniyat soʻzlarining birlashmasi boʻlib, jamiyatdagi ayrim madaniyatlarning boshqalaridan keskin farqlanuvchi qismiga aytiladi. Submadaniyatning koʻrinishlariga kiyinish, soch turmak, taqinchoqlar taqish, raqsga tushish, jargon soʻzlashuv, varvarizm va bir qancha keskin xatti-harakatlar kiradi. Submadaniyat omma madaniyatidan oʻzining xususiyatlari, belgilari va keskin harakteri bilan farqlanib turadi.

Dunyoning eng mashxur submadaniyatlariga *beatniklar, modlar, punklar, hippilar, rokchilar, metal kallar, geymerlar, gotika* va *emos* kabi guruhlarni kiritishimiz mumkin. Bu guruhlarning barchasi oʻzlarini boshqalardan ajratib turish uchun rang-barang kiyimlar, turli soch turmaklari, tanasidagi taterofkalar va boshqalardan foydalanadilar. Bugun yurtimizda ham ayniqsa, Toshkent shahri koʻchalarida ana shunday noodatiy qiyofaga ega boʻlgan yoshlarga, guruhlarga koʻzimiz tushib qoladi. Xoʻsh, ular bu narsalarni qayerdan oʻrgandi, ularga kim

o‘rgatdi? Albatta, cheksiz chegarasiz va nazorat qilish imkoniyati juda past bo‘lgan virtual dunyo yoshlarning shunday submadaniyatlarga aylanishiga sabab bo‘lmoqda.

*Psixologik dipressiya.* Ko‘plab tadqiqotchilar kompyuter, telefon, planshet, smartfon va gadjetlar kabi elektron qurilmalar bilan bog‘lanib qolish turli psixologik kasalliklarni keltirib chiqarayotganligini aniqladilar.

- virtual olamga bog‘lanib qolgan yoshlarning fikrlash doirasi anchagina torayib boradi. Borliqni anglashga bo‘lgan harakatlari so‘nishi oqibatida ongini rivojlantiruvchi xatti-harakatlarga nisbatan qiziqishi yo‘qoladi;
- o‘zining virtual imidji ustida tinimsiz ishlayotganlarning atrofdagi insonlarga nisbatan munosabati o‘zgaradi. Boshqalarning ularga bildirayotgan fikrlari ahamiyatsizdek bo‘lib qoladi;
- doimiy elektron qurilmalardan foydalanish oqibatida qurilmadan chiqayotgan elektromagnit to‘lqinlar yosh organizmda nurlanishni hosil qiladi va ko‘plab patologik kasalliklarni keltirib chiqaradi;
- internetdagi ma’lumotlarning yoki kompyuter o‘yinlardagi funksiyalarning juda ham ko‘pligi bola miyasida zo‘riqishni hosil qiladi. Zo‘riqishlar ortib borishi natijasida bola injiq va asabiy bo‘lib qoladi.

So‘nggi yillarda virtual o‘yinlar orasida insonlarni o‘z joniga qasd qilishga undovchi o‘yinlar ko‘paydi. Bu o‘yinlarni ayrim g‘arazli maqsadni ko‘zlagan guruhlar tashkil qilib, insonlarga ayniqsa, yoshlarga psixologik ta’sir o‘tkazish usullaridan foydalanmoqdalar. Ayni damda internet, ijtimoiy tarmoqlar, turli ommaviy axborot vositalarida yoshlarni, o‘smir va o‘spirin bolalarni o‘z joniga qasd qilishgacha undayotgan “Siniy kit”, “More kitov”, “Feya”, “F-57” va “F-58”, “Men o‘yinda”, “Bogataya uzbechka” singari o‘yinlar ko‘plab mamlakatlar aholisiga, ayniqsa, o‘smirlariga katta xavf tug‘dirayotgani haqidagi maqolalar, ko‘rsatuv va eshittirishlarni o‘qib, eshitib, ko‘rib turibmiz. Misol uchun “Siniy kit” o‘yini Rossiyada 2015-yili paydo bo‘lgan va qisqa vaqt ichida o‘yin domiga tushgan 130 nafarga yaqin bola o‘z joniga qasd qilgan. 2017-yil fevral oyida

mamlakatda olib borilgan o‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, yil boshidan buyon 800 nafar o‘spirin yigit-qizlar o‘z xohishlari bilan bu o‘yinni boshlash istagida bo‘lgan. Bu kabi holatlar Bolgariya, Latviya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston singari davlatlarda ham kuzatilgan.[56] Afsuski, farzandlarimiz orasida ana shu o‘yin domiga tushib qolgan, qabih kimsalarning ko‘rsatmalariga ko‘r-ko‘rona ergashayotganlar ham bor ekan.

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasidan xabar qilishlaricha, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida olib borilayotgan davomatni kuzatish tadbirlarida o‘quvchi-yoshlarning uyali telefon apparati ham tekshirilgan va 31 nafar maktab, 5 nafar kollej o‘quvchisi “Siniy kit” o‘yinining 1-15-bosqich ishtirokchilariga aylanganligi aniqlangan.

*Diniy e’tiqodga bo‘lgan tajovuz.* Kibermakon barcha jarayonlar kabi diniy jarayonlarga ham o‘zining ijobiy va salbiy ta’sirlarini o‘tkazmay qolmadi. Bizga ma’lumki, qadimdan diniy kitoblar, manbalar juda noyob va qimmat bo‘lib, hammaning ham olib o‘qishga, o‘rganishga imkoniyati bo‘lmagan. Diniy ilm o‘rganmoqchi bo‘lganlar albatta qaysidir ahli ilmga shogird tushishi shart bo‘lgan. Hozirgi kunda kibermakon manashu muammolarning bir qadar yechimi bo‘ldi. Avval, insonlar uchun yetib bo‘lmas muqaddas matnlar, diniy kitoblar va boshqa manbalarni turli internet saytlaridan elektron tarzda yuklab olish imkoniyati paydo bo‘ldi. So‘nggi yillarda turli din ulamolarining, imomlar, domlalarning insonlarni iymonga, axloqqa, ma’naviyatga chorlovchi diniy ma’ruzalari ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalishi ham xalqimizning katta qismi uchun manfaatli ishlardan bo‘lmoqda. Biroq shuni unutmaslik kerakki, global tarmoq diniy tahdidlar, kurashlarning eng asosiy quroliga aylanib qoldi.

Internet tarmog‘ida diniy ekstremistik, terrorchilik va buzg‘unchiliklarni targ‘ib qiluvchi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar soni kun sayin ko‘paymoqda. Bu holat dunyoqarashi shakllanmagan va g‘o‘r yoshlarimizning sog‘lom e’tiqodini ongi va dunyoqarashini zaharlamoqda.

---

[56] https://kun.uz/uz/news/2017/04/12/kuk-kit-ujin-nikobidagi-kabilik

G‘alamislarning internet orqali hujumlari asosan yoshlarga qaratilgan bo‘lib, ular o‘smirlar uchun qiziqarli bo‘lgan vositalardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Jumladan, yoshlarning qiziqishiga qarab, ularni turli videolavhalar va fotosuratlarni tomosha qilishga jalb etish orqali yoki tashqi ko‘rinishidan guyoki uyin, texnika, sportga doir bo‘lsada, lekin ichki sahifalarda faqat buzg‘unchilikni targ‘ib etuvchi veb jurnallarni taqdim etmoqda.[57] Misol uchun ISHID g‘oyalarini internet orqali targ‘ib qilishi oqibatida minglab yoshlarni o‘zining domiga tortdi va bu yoshlar bugungi kunda o‘zining yurtiga, xalqiga, ota-onasiga qarshi chiqishga, kerak bo‘lsa qurol bilan tahdid qilishga ham tayyor.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak kibermakon bugungi kunda yoshlar ma’naviyati, dunyoqarashi, salohiyati, ruhiyati, turmush tarzini o‘zgartirishlikka, o‘zining salbiy oqibatlarini namoyon qila olishlikka qodir bo‘lgan va unga qarshi kurashish o‘ta qiyin bo‘lgan tajovuzkor quroldir. Bu qurol har kimining o‘z qo‘lidaligi sababli atrofdagilarning uni boshqarish imkoniyati juda ham past darajada. Agar biz insonlarga ayniqsa, yoshlarga kibermakonda harakatlanish madaniyatini, “kiberaxloqini” shakllantirmas ekanmiz, bizni kelajakda juda katta ko‘ngilsizliklar, yo‘qotishlar kutib turgani aniq.

## 3.3. Kiberludomaniya ta’sirida qolgan yoshlarda ijtimoiy va psixologik muammolarning paydo bo‘lish jarayonlari

Raqamli texnologiyalarning zamonaviy dunyosida bola tug‘ilishdan boshlab telefon va internet maydoni nima ekanligini biladi. Kompyuter o‘yinlari, internet, multfilmlar uni o‘ziga jalb qila boshlaydi, keyin u o‘sib ulg‘aygan sayin u murakkab gadjetlarga qiziqadi, o‘z o‘yinlarini, veb-saytlarini yaratishni boshlaydi. Bularning barchasi raqamli asrning bolalari. Ular 1980-yillardan keyin, ijtimoiy raqamli texnologiyalar internetda paydo bo‘lganidan keyin

57 Исҳақ Абдурахмонов. (2021). Кибермаконда диний экстремистик ва террористик таҳдидларни олдини олиш зарурияти. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 I ISSUE 4 I 2021 ISSN: 2181-1601 https://cyberleninka.ru/article/n/kibermakonda-diniy-ekstremistik-va-terroristik-ta-didlarni-oldini-olish-zaruriyati

tug‘ilgan. Raqamli davrning zamonaviy bolalari o‘zlarining ajoyib internet texnologiyalari qobiliyatlari bilan hayratda qoldiradilar.

Kompyuter o‘yinlarga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj kiberludomaniya muammosining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ludomaniya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “ludo” – o‘ynash, “maniya” – qaramlik degan ma’nolarni anglatadi. Ludomaniya o‘yinlarga asosan, qimor o‘yinlarga qaramlik holatidir. Qimor o‘yinlariga patologik moyillik, inson hayotida hukmronlik qiladigan va ijtimoiy, kasbiy, moddiy va oilaviy qadriyatlarning pasayishiga olib keladigan qimor o‘yinlarida ishtirok etishning tez-tez takrorlanadigan epizodlaridan iborat: bunday odam ushbu sohalardagi vazifalariga yetarlicha e’tibor bermaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ushbu kasallikka patologik qimor o‘yinlari deb nom beradi[58]. Texnika-texnologiyalar rivojlanishi bilan o‘yinlar ham qimor o‘yinlari ham kopmyuterlar, gadjetlar va telefonlarga ko‘cha boshlashi yangi bir muammo – kiberludomaniyani keltirib chiqardi.

Bugungi kunda bolalar va o‘spirinlar asosan kompyuter o‘yinlari, turli xil televizion dasturlar, filmlar va boshqa ommaviy axborot vositalaridan xulq-atvor qoidalarini qabul qilishadi. O‘ynaladigan ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan ichki tarkib sotsializatsiya jarayoniga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Bu bolalar va o‘spirinlarning o‘ziga xos qadriyatlari va xulq-atvorini rivojlantirishga yordam beradi.

Kompyuter o‘yinlari o‘yinchiga haqiqiy hayotda yetishmayotgan his-tuyg‘ularni berayotgandek tuyuladi. O‘yinda o‘z potentsialingizni ochib berish qobiliyati va uning atrofidagi kuch va virtual dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar, shuningdek, unga o‘xshash boshqa odamlar bilan virtual munosabatlar. Bularning barchasi o‘spirinning o‘rnini bosadi haqiqiy dunyo va o‘spirinning o‘zi oqibatlarini tushunmasdan kibernetik ludomanga aylanadi (geymer). Kompyuterga qaramlik bolalar va o‘spirinlarni yomonlashtiradi, ularni haqiqiy hayotdan olib

[58] Ontologik kasalliklar ma’lumotlar bazasi, Rossiya, 2016.

tashlaydi. O‘yin hayotning bir qismiga aylanadi va kompyuterga qaramlik giyohvandlikning o‘ziga xos turidir. Kibernetik jihatdan qaram bo‘lgan o‘spirinning xatti-harakatlardagi nomutanosiblik bilan ajralib turadi. Kompyuterga qaramlik asta-sekin butun hayotini qamrb oladi. U vaqtini nazorat qila olmaydi, kompyuterda yolg‘on gapira boshlaydi. Bolalar va o‘smirlar tashvish va tushkunlikni his qilishadi. Ular uy atrofida to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifalarini bajarmasdan, o‘yinning borishi haqida doimo o‘ylashadi.

Bola tengdoshlari, ota-onalari bilan yetarlicha aloqa qilmasa, u etishmayotgan aloqani o‘rnini bosadigan kompyuterni topadi. Keyin kompyuter o‘z vaqtini shu qadar ko‘p oladiki, o‘spirin u bilan bo‘lgan vaqtini tartibga solmaydi. O'smirlik – bu hayotiy qadriyatlar shakllanadigan yosh. Bu balog'at yoshiga qadar mashq qilishning bir turi[59]. Bu kompyuterga qaram bo‘lish uchun eng xavfli yosh.

Tadqiqotchilar kompyuter o‘yinlarining quyidagi tasnifini xavf darajasiga qarab ajratadilar:

1. Rolli kompyuter o‘yinlari. Ular rolni qabul qilish va haqiqatdan qochish zarurligini amalga oshirish uchun eng ko'p imkoniyatlarni beradi. Bu yerda o‘yinchiga ta’sirining tabiati, o‘yinga “tortish” kuchi va psixologik qaramlikning “chuqurligi” darajasi bo'yicha uchta tur ajralib turadi.

2. Kompyuter qahramonining “ko‘zlaridan” ko‘rinadigan o‘yinlar. Ushbu turdagi o‘yinlar “tortish” yoki o‘yinga kirishning eng katta kuchi bilan tavsiflanadi. Bu yerda o‘ziga xoslik shundaki, “ko'zdan” ko‘rinish o‘yinchini kompyuter xarakteri bilan to‘liq identifikatsiyalashga, rolga to‘liq kirishga undaydi.

3. Strategik o‘yinlar. Bu o‘yinlarda o‘yinchiga o‘ziga bo‘ysunadigan kompyuter personajlari faoliyatini boshqarish huquqi beriladi.

---

[59] Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004.

Ayni davrda yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli xil vayronkor g‘oyalarning kirib kelishi ayniqsa, internet tarmog‘i orqali ko‘proq ko‘zga tashlanyapti. Bu jarayon farzandlarimizning kompyuter texnologiyalari, turli kompyuter o‘yinlariga qiziqishining ortishi bilan ham bog‘liq. Ularning bu qiziqishlaridan buzg‘unchi g‘oya targ‘ibotchilari o‘z maqsadlari yo‘lida samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Boshqacha aytganda, “o‘yinbozlik” jamiyatning ma’lum bir qismiga tahdid ekanligini yaxshi biladigan ekstremistlar o‘smirlar, yoshlar ongini shu yo‘l bilan egallashga harakat qilmoqda.

Olimlar I. P. Korolenko va T. A. Donskix o‘yinbozlik alomatlarini shunday tasniflashgan:

1. O‘smirning o‘yinda o‘tkazayotgan vaqti miqdorining oshib borishi
2. Oldingi odatlar, qiziqishlar doirasi torayib, o‘yin haqida ko‘proq o‘ylashi;
3. Yutsa ham, yutqizsa ham o‘yindan chiqa olmasligi;
4. O‘yin boshlanishini orziqib kutish, o‘yinsiz qolganda bezovta bo‘lib, asabiylashish;
5. Tobora ko‘proq o‘ynash istagi, o‘yinga tobora ko‘proq narsa tika borish
6. O‘yindan o‘zini to‘xtata olmay qolishi. «Bo‘ldi, o‘yinni tashladim», – deydi, biroq oldin birga o‘ynagan sheriklarini ko‘rsa, o‘yin haqida gap ochilsa, o‘yingohning yonidan o‘tayotganda qaroridan tez aynib qoladi;
7. Ota-onasidan o‘yinga pul olish uchun yolg‘on gapirishi, o‘g‘irlik qilishi;
8. Oila a’zolaridan, shifokorlardan va boshqalardan o‘zining o‘ta o‘yinparastligini yashirib, yolg‘on gapirishi kabilar o‘smirning o‘yinparastligidan dalolat beradi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘smirlik davrida tarbiyaga jiddiy yondashmaslik, farzandning xatti-haraktlariga nisbatan befarqlik natijasida ko‘pchilik hollarda farzandni qo‘ldan chiqarish mumkin. Zero, “o‘yinbozlik”ning oqibati yoki turli informatsion o‘yinlarga mukkasidan ketish natijasida nafaqat mutaassiblik, balki turli xil kasalliklarning kelib chiqishi ham kuzatilyapti. Ya’ni internet o‘yinlariga ishqibozlik oqibatida miya faoliyati bilan bog‘liq insult, ludomaniya, ruhiy kasalliklar, aksariyat hollarda yuragi yorilib o‘lish kabi salbiy oqibatlar ko‘zga tashlanyapti. Bu esa rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi.

Demak, tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish, farzand tarbiyasini doimiy nazorat qilish g‘oyat muhim. Farzandga internetni butunlay cheklash mumkin emas.

Kompyuter va telefon bilan haddan ziyod bog‘lanib qolgan qolish turli quyidagi ruhiy va jismoniy kasalliklarni keltirib chiqaradi degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- kompyuterga haddan ziyod bog‘lanib qolgan bolalarning fikr doirasi torayib boradi. Buning oqibatida, ulaar ongining rivojlanishiga katta yordam beradigan kitoblarga bo‘lgan qiziqish so‘nadi. Bunday bolalarda aqliy rivojlanish susayib boradi;

- har qanday elektr moslamalari kabi komyuter, noutbuk, qo‘l telefonlari ham o‘zidan elektromagnit to‘lqin chiqarib, doimiy nurlanish yosh organizmda patologik jarayonlarni yuzaga keltiradi. Endokrin tizimining buzilishi natijasida asab kasalliklari kelib chiqishi kuzatiladi;

- kopmyuter, planshet, noutbuk, turli internet o‘yinlarga haddan ziyod berilish toza havo yetishmasligi, o‘z vaqtida ovqatlanmaslik yosh organizmda immunitetning keskin pasayib ketishi, ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishi, hatto saraton kasalligini keltirib chiqarishi mumkin;

- internetda turli ma’lumotlar shu qadar ko‘pki, ularni bola ruhiyatiga singdirishi qiyin kechadi. Bola qattiq zo‘riqish, asabiy bo‘lib qolishi natijasida haqiqiy hayot bilan virtual olamni bir-biriga qorishtirib yuboradi. Haqiqiy hayotda ham o‘zini o‘yinlardagidek tuta boshlaydi.

### *Uchinchi bo‘yicha xulosalar*

Yoshlar ma’naviy hayotidagi transformasiyalar tahlili nomli bobimiz yakunida quyidagi xulosalarni sanashimiz mumkin:

- ijtimoiy tarmoqlar yoshlar o‘rtasida axloqsizlik, faxsh, buzg‘unchilik, yovuzlik kabi illatlarning avj olishiga sabab bo‘luvchi vositaga aylanganligi va bunga ushbu virtual muloqot vositasi orqali turli audio, foto, video ko‘rinishlardagi materiallarning keng miqyosida tarqala olish qobiliyatining mavjudligi imkon yaratdi;
- yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish maqsadida ta’lim muassasalarida yetarlicha o‘quv ishlari olib borilmayotganligini ko‘rish mumkin.

Axborot texnologiyalari rivojlangan dunyoda, ayniqsa, yoshlar orasida kibermakonga bo‘lgan ehtiyoj, uning iste’moli kuchayib bormoqda, yoshlar esa, doimiy ravishda kibermakonni harakatlantiruvchi va uni rivojlantiruvchi kuchga, obyektga aylanmoqda. Demak, kibermakonni rivojlantiruvchisi ham, iste’molchisi ham ko‘proq yoshlar ekan, uning kelajagi, ma’lum ma’noda, yoshlarning dunyoqarashi, ehtiyojlari va harakatlariga bog‘liqdir.

Yoshlar ma’naviyatiga bo‘layotgan kibertahdidlarga qarshi immunitet sifatida “kiberaxloq”ni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish oldimizda turgan eng muhim vazifadir.

Hozirgi davrda kibermakondagi axloqiy muammolarni tadqiq qilishda qo‘llanilayotgan tushunchalarga nisbatan yakdil, qat’iy munosabat shakllanmagan. Bu esa ilmiy-nazariy xulosalarning, amaliy tavsiyalarning turli tumanligini, xatto,

ularning qarama-qarshiligini keltirib chiqarmoqda. Ushbu bobimizda kibermakonning ma'naviy jihatlarini ifodalovchi tushunchalani tahlil qildik:

*"Kiberaxloq"* – har kimning o'z vijdoni, iymon-e'tiqodi va boshqa axloq normalaridan kelib chiqqan holda kompyuter, mobil qurilmalar, axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan va barcha global tarmoqlardan foydalanish me'zonlarining majmuasi.

*"Kibermadaniyat"* – kishining belgilangan tartib qoidalar va axloq normalariga rioya qilgan holda tarmoqdan foydalanish madaniyati.

*"Virtual imidj"* – insonning virtual tarmoqlar, veb-saytlar, ijtimiy tarmoqlar, virtual o'yinlar va umuman barcha turdagi axborot-kommunikatsiya vositalaridagi qiyofasidir. Bunda tarmoq foydalanuvchisining tarmoqdagi faolligi, tarmoqdagi jarayonlarga munosabati, shaxsiy yoki ommaviy profillariga qanday ko'rinishdagi axborotlarni joylashtirganligi bilan belgilanadi.

# IV-BOB. KIBERTAHDIDLARGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Bugungi kunda global axborot maydonida kibermakon bilan bog‘liq yangidan-yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Shu bois virtual olamdagi hujumlardan himoyalanish masalasi dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili 500 milliondan ortiq kiberhujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kibermakonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Frantsiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiberhujumlar orqali sodir etilmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko‘payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan. Xususan, noqonuniy bank-moliya operasiyalari orqali o‘zgalarning plastik kartadagi mablag‘larini o‘zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o‘yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko‘payib bormoqda.

Achinarlisi, axborot texnologiyalari yordamida huquqbuzarlik va jinoyatga qo‘l urgan shaxslar orasida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Respublikamizda virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyati 16-23 yosh oralig‘idagi o‘smir-yoshlar tomonidan sodir qilinmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, kiberxavfsizlikni ta’minlash masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

## 4.1. Kibertahdidlarga qarshi kurashishning xalqaro tajribasi

Xitoy Xalq Respublikasi shimoli-g‘arbiy siyosiy-huquqshunoslik universiteti Jamoat xavfsizligi instituti direktori professor Xuey Shen Vu o‘z ilmiy tadqiqotida kompyuter jinoyatlarining quyidagi turlarini ko‘rsatib o‘tadi:

1) tarmoq orqali hujum qilish va kompyuter tizimlariga zarar etkazish: xakerlik aralashuvi, kompyuter viruslarini ishlab chiqarish va tarqatish, kompyuterda saqlanadigan ma’lumotlarni o‘zlashtirish;

2) tarmoq firibgarligi – jinoyatchilar jabrlanuvchilardan pul undirish maqsadida internet orqali yolg‘onligi oldidan ma’lum bo‘lgan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan daromadli takliflar kiritadilar;

3) kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish orqali moliya muassasalaridan pul mablag‘larini o‘zlashtirish. Ushbu jinoyatning asosiy obyekti pul mablag‘lari, bank hisob varaqasi va boshqa moliyaviy hujjatlardir. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, dunyoda kredit kartalaridan pul mablag`larini o‘zlashtirish miqdori bir yilda yuz million AQSh dollaridan oshmoqda; ko‘p hollarda bunday jinoyatchilikning uyushgan holda sodir etilishi kuzatiladi;

4) onlayn tizimida qizg‘in o‘yinlar tashkil etish va Internet orqali shahvoniy tusdagi xizmatlarni reklama qilish;

5) mualliflik va turdosh huquqlarga tajovuz qilish, ya’ni intellektual mulkka qarshi kompyuter jinoyatlari;

6) davlat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni talon-toroj qilish, ya’ni davlat xavfsizligiga qarshi kompyuter jinoyatlari;

7) ma’lumot tarqatish: pornografik mahsulotlarni, rasizm va millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi ma’lumotlarni tarqatish va boshqalar;

8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga tajovuz qilish.

Axborot va tarmoq texnologiyalari keskin rivojlanayotgan hozirgi davrda shaxsiy hayot yanada oshkoralashmoqda, shaxsni sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish, tuhmat qilish, haqorat kabilar odatiy holga aylanib qolmoqda.

Barcha sohalarda kibertahdidlarning kuchayib borishi dunyo hamjamiyatini befarq qoldirmadi va bu tahdidlarga qashi kurashish uchun harakatlar boshlandi. Bu boradagi dastlabki qadam Yevropa Kengashi tomonidan 2001-yil Budapesht shahrida imzolangan “Xalqaro va milliy kiberjinoyatchilikka qarshi kurash

to‘g‘risida”gi konvensiya bo‘ldi. Ushbu konvensiya qabul qilinganda uni 50 dan ortiq davlatlar ratifikatsiya qildi va unga Yevropa Kengashiga a’zo bo‘lmagan bir qancha davlatlar ham qabul qildi. Jumladan, AQSh, Kanada, Yaponiya, Meksika, Avstraliya va boshqa ko‘plab davlatlar. Konvensiyaning qabul qilinishi kibertahdidlarga qarshi olib boriladigan ishlarning jadallashuviga olib keldi.

Keyinchalik, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi kiberxavfsizlikni ta’minlashga doir rezolyutsiyani qabul qildi .[60] Rezolyutsiyaga ko‘ra Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar kiberxavfsizlikning global madaniyatini shakllantirishi belgilab qo‘yildi. Rezolyutsiyaga ko‘ra davlatlar kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun quyidagi usullardan foydalanishligi tavsiya etildi:

- inson salohiyatini mustahkamlash bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish;
- aholini o‘qitish va ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini oshirish;
- ilg‘or, ishonchli va xavfsiz axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va tarmoqlarini qo‘llash orqali davlat xizmatlarini takomillashtirish va hayot sifatini oshirish;
- rivojlangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan umumiy foydalanishni rag‘batlantirish.

Bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj tufayli 2003-yil Jeneva deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda barcha manfaatdor tomonlar va vakolatli xalqaro agentliklar bilan hamkorlikda kiberxavfsizlikning global madaniyatini joriy etishni jadallashtirish zarurligi qayd etildi.[61]

Kibertahdidlar har bir davlat uchun xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqilishini talab qildi. Keling, bu borada bir necha davlatlar tajribasi bilan tanishib chiqamiz.

---

[60] BMT Bosh Assambleyasining 2002 yil 20 dekabrdagi “Global kiberxavfsizlik madaniyatini yaratish” rezolyutsiyasi, ÿ 57/239. Mavjud: http://www.un.org/ru/ga/second/57/ second_res.shtml.

[61] 2003 yil 12 dekabrdagi “Axborot jamiyati qurilishi – yangi asrda global vazifa” tamoyillari deklaratsiyasi. https://zakon.rada.gov.ua/laws

Germaniya kibertahdidlarga qarshi kurashishda birinchilardan bo‘lib harakat qildi. Germaniya federal organlari tomonidan Axborot infratuzilmasini himoya qilish milliy rejasi (NPSI) deb nomlangan tegishli me’yoriy hujjat (reja) qabul qilingan. Milliy rejaga Germaniya rasmiylari quyidagilarga alohida ahamiyat qaratdi:

- birinchidan, kiberterrorizm va kompyuterni buzish xavfi ortib borayotganligi va bunga qarshi kurashishning yo‘llarini izlash;

- ikkinchidan, kiberhujumlarga qarshi kurashda Germaniya hukumati kuchlari, huquq-tartibot idoralari, ilmiy va ta’lim muassasalarini birlashtirish ishlarini olib borish.

Bularning barchasi bo‘yicha Germaniya davlat rejasini taqdim etdi, bu albatta mustahkam edi. Bizning fikrimizcha, Germaniya oliy siyosiy rahbariyatining bu qadami o‘sha paytda zudlik bilan zarur edi, chunki bu davlatning kiberjinoyatchilikka qarshi kurashiga samarali hissa qo‘shgan. Shu nuqtai nazardan, biz Germaniya rasmiylarining bu qadamini to‘g‘ri va shu nuqtai nazardan mutlaqo foydali deb bilamiz.

Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan davlatlardan biri bo‘lgan Estoniya tajribasini ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, u kibermakondagi dolzarb muammolar va tahdidlarga qarshi aniq, izchil va aniq qadamlar qo‘ygan. Estoniya ko‘pincha dunyodagi eng simli mamlakat deb ataladi va bu ayni haqiqat. Davlat tashkilotlari va xususiy tashkilotlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning katta qismi onlayn tarzda amalga oshirilishi bo‘yicha dunyoda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Masalan, bank sektorining 98 foizi eletron aloqaga tayanadi, 90 foiz odamlar soliq dekloratsiyalarini onlayn tarzda topshiradilar. Estoniyaning elektron identifekatsiya kartalari fuqarolar, davlat va kompaniyalar o‘rtasidagi elektron aloqalarga katta yordam beradi. Estoniyada 2000-yillardan boshlab davlatga qarshi bir necha kiberhujumlar uyushtirila boshlandi. 2007-yilda sodir bo‘lgan keng ko‘lamli kiberhujumlar 2008-yil Estoniya milliy xavfsizlik strategiyasini ishlab

chiqilishiga sabab bo‘ldi.[62] Bugungi kunda Estoniya kibertahdidlarga qarshii kurashishda dunyoda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Litva Respublikasi kiber tahdidlarga qarshi kurashda noyob tajribaga ega, bunda mamlakatning vakolatli davlat organlari va muassasalari oldida turgan asosiy vazifa ikki hodisaning bir vaqtda muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlashdan iborat. Jamiyatda insonlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini munosib himoya qilishga qaratilgan va ular haqidagi ma’lumotlar bazasini maxfiyligini ta’minlashdan iborat yaxlit tizimdan iborat. Litva Respublikasi kibertahdidlarga qarshi kurashuvchi idora va tuzilmalar faoliyatida axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari hamda davlat va xususiy infratuzilmalarning muhim nuqtalarini himoya qilish va ularning to‘g‘ri ishlashini ta’minlashga ham muhim e’tibor qaratilgan.

Niderlandiya davlat organlarining kiberhujumlardan himoya qilish bo'yicha faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zlarining kiberjinoyatlarga qarshi strategiyasida, shu jumladan, kiberxavfsizlik tushunchasini "buzilish va noto'g'ri foydalanishdan himoya qilish" deb belgilaydilar. Axborot va telekommunikatsiya tizimlari”.[63] Biz asosan Gollandiya hukumati amaldorlari va qonun chiqaruvchilari bilan kiberxavfsizlikning mohiyati va mazmunini belgilashda rozi bo'lamiz. Aslida, ular kiberhujumlar nishoni sifatida tilga olgan telekommunikatsiya va axborot tizimlari xakerlar va boshqa kiberhuquqbuzarlar tomonidan tajovuz qiladigan tizimlardir. Buyuk Britaniya tajribasi alohida e'tiborga loyiqdir. Bu davlatning zamonaviy global kibermakonda mavjud bo‘lgan xavf-xatarlarga qarshi kurash sohasidagi siyosatining o‘ziga xos xususiyati uning imkon qadar ko‘proq sifatli va foydali innovatsiyalarni ishlab chiqish va o‘zlashtirishga qaratilganligidir. Masalan, Buyuk Britaniya yuqori texnologiyali sektorni, xususan, uning kiber sohasini moliyalashtirish sohasida Yevropa davlatlari orasida mutlaq yetakchi sifatida tan

[62] Heli Tiirmaa-Klaar -Kiberxavfsizlik tahdidlari va javoblari: Global, Nation-State ... - Mars 2011 http://www.ceri-sciences-po.org
[63] Mykola Vasilenko, yuqorida, eslatma 3. Pg. 17-24.

olingan. Davlat kiberxavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan katta hajmdagi mahalliy va xorijiy investitsiyalar milliy kiberxavfsizlik tizimining faoliyatida ijobiy rol o'ynaydi.[64]

Turkiya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari davlatlari tajribasiga koʻra, internetdagi tahdidlarga qarshi kurashishdagi eng samarali usuli – bu aholida internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish orqali ularni ehtimoliy xavflardan barvaqt ogohlantirish boʻlib, shu maqsadda xavfsizlik organlari tomonidan fuqarolar oʻrtasida faol targʻibotlar oʻtkaziladi va bunday tadbirlar bilan aholini yanada kengroq qamrab olish uchun maqsadida kiberxavfsizlik markazi tomonidan “kiber-yordamchi” platformasi ham ishlab chiqilgan.

Dunyoning qator davlatlarida kibertahdidlarga qarshi kurashish va axborot xavfsizligini ta’minlash boʻyicha huquqiy tizim ishlab chiqilgan va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan himoyalangan. Quyidagi jadvalda ayrim rivojlangan davlatlarning kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligi boʻyicha normative-huquqiy hujjatlarini koʻrib chiqamiz.

| **Davlatlar** | **Kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligi boʻyicha huquqiy normalar** |
|---|---|
| **Germaniya** | 1986-yilda qabul qilinib, 2015-yilda tahrir qilingan 202-band[65], Tarmoqni qo'llash to'g'risidagi qonun.[66] |
| **Amerika Qo’shma Shtatlar** | Jinoyat va jinoyat protsessual kodeksini 18-sarlavhasi[67], 1986-yilgi |

[64] Mykola Vasilenko, yuqorida, eslatma 3. Pg. 17-24.
[65] The official website: Federal Ministry of Justice, German Criminal Code // Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html [11.11.2022]
[66] The official website: German Law Archieve, Network Enforcement Act 2017. // Available at: https://germanlawarchive.iuscomp.org/?p=1245 [Accessed on: 11.11.2022]
[67] The official website: GovInfo, TITLE 18—Crimes And Criminal Procedure // Available at: https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title18/pdf/USCODE2011-title18.pdf [Accessed on: 10.11.2022]

| | |
|---|---|
| | Kompyuterda firibgarlik va suiste'mollik qonuni.[68] |
| **Rossiya Federativ Respublikasi** | 2017-yil 26-iyuldagi "Rossiya Federatsiyasining muhim axborot infratuzilmasi xavfsizligi to'g'risida" 187- FZ-sonli Federal Qonuni[69], Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi (2021-yil 1-iyuldagi so'nggi o'zgartirishlar bilan) ning 28-bobida Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarga bag'ishlangan[70] va Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2009-yil 16-martdagi 228-sonli "Aloqa, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish federal xizmati to'g'risidagi" Nizomi qabul qilingan.[71] |
| **Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi** | 1990 yildagi qayta tahrirlangan "Kompyuterni noto'g'ri ishlatish to'g'risidagi qonun".[72] |
| **Koreya** | 2016-yil 22-martdagi Axborot va |

[68] The official website: Congress.gov H.R.4718 - Computer Fraud and Abuse Act of 1986 // Available at: https://www.congress.gov/bill/99th-congress/housebill/4718/text [Accessed on: 10.11.2022]
[69] The official website: CIS Legislation, About safety of critical information infrastructure of the Russian Federation July 26, 2017 No. 187-FZ // Available at: https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=98928 [Accessed on: 10.11.2022]
[70] Criminal Code of the Russian Federation (with the latest amendments of 1 July 2021), Chapter 28. Crimes in the Sphere of Computer Information (in Russian) // Available at: http://www.russian-criminalcode.com/PartII/SectionIX/Chapter 28.html [Accessed on: 10.11.2022]
[71] The official website: Roskomnadzor (Aloqa, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish federal xizmati), the government of The Russian federation regulation no. 228 of march 16, 2009 on the federal service for supervision of communications, information technology, and mass media // Available at: https://eng.rkn.gov.ru/about/ [Accessed on: 10.11.2022]
[72] The official website: Legislation.gov.uk (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi qonunchilik ma'lumotlari bazasi) The Computer Misuse Act of Международный научный журнал № 4 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» ноябрь, 2022 г 836 1990, as amended (in English) // Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1990/18/contents [Accessed on:10.11.2022]

| | |
|---|---|
| | aloqa tarmoqindan foydalanish va axborotni himoya qilishni tarqashtirish to‘g‘risidagi 14080-son Qonuni[73], Axborot va kommunikatsiya infratuzilmasini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun.[74] |
| **Yaponiya** | 2013-yilda qayta tahrirlangan “Kompyuterga ruxsatsiz kirishni taqiqlash to'g'risidagi” 28-sonli Qonuni[75], 1907-yildagi 45-sonli Qonun bilan qabul qilingan Jinoyat kodeksida.[76] |
| **Qatar** | 2006-yilda qabul qilinga hamda 2017-yilda qayta tahrirlangan “Telekommunikatsiyalar qonuni” (34-son)[77] 2004-yildagi Jinoyat kodeksida[78], “Kiberjinoyatlarning oldini olish to‘g‘risida”gi qonun (2014 yil 14-son Qonuni).[79] |

[73] The official website: KLRI ( Korea legislation research institute) Act on promotion of information and communications network utilization and information protection Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=38422& lang=ENG [Accessed on: 10.11.2022]

[74] The official website: KLT (Korea Law translation center) Act on the protection of information and communications infrastructure // Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=28812&type=part&key=43 [Accessed on: 11.11.2022]

[75] The Official website: NPA (National Police Agency) Act on Prohibition of Unauthorized Computer Access(Tentative translation) // Available at: https://www.npa.go.jp/cyber/english/legislation/uca_Tentative.pdf [Accessed on: 10.11.2022]

[76] The official website: CAS (Cabinet secretariat) Penal Code (Act No.45 of 1907) // Available at: https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/hourei/data/PC.pdf [Accessed on: 10.11.2022]

[77] The official website: CRA (The Communications Regulatory Authority) Telecommunications Law No. (34) of 2006 // Available at: https://www.cra.gov.qa/en/document/telecommunications-law-no-34-of-2006 [Accessed on: 10.11.2022]

[78] The official website: OHCHR’s Database, Law No. 11 of 2004 Issuing the Penal Code 11 / 2004 // Available at: https://adsdatabase.ohchr.org/IssueLibrary /QATAR_%20Penal%20Code.pdf [Accessed on:10.11.2022]

[79] The official website: ILO (International Labour Organization) Cybercrime Prevention Law (Law No. 14 of 2014) // Available at: https://www.ilo.org /dyn/natlex/natlex4.detail?p_lang=en&p_isn=100242 [Accessed on: 10.11.2022]

## 4.2. O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik masalalari: nazariya va amaliyoti

So‘ngi yillarda butun dunyoda va yurtimizda xavfsizlik masalasiga qaratilayotga e’tibor kun sayin ortib bormoqda. Turli ko‘rinishdagi xavflar insonlarga, jamiyatga, davlatga va dunyo hamjamiyatiga ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, ma’naviy va shu kabi barcha sohalarda tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Kibermakonda amalga oshirilayotgan kibertahdidlar ham anashular jumlasidandir.

Kibertahdidlarga qarshi kurash masalasiga yutimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib bormoqda. Bugungi axborot texnologiyalari yuksak darajada rivojlangan davrda xavfsiz axborot muhitini yaratish, himoyalangan tizimlar asosida ishlash, insonlarda davlat, davlat organlari, tashkilotlar va muassasalarning elektron tizimlardan to‘g‘ri foydalana olish madaniyatini oshirish borasida bir qancha huquqiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ertangi kun egalari bo‘lgan yoshlarni virtual tahdidlardan himoya qilish, yoshlarda “virtual axloq”ni shakllantirish dolzarbligi ta’kidlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrdagi 560-II-son «Axborotlashtirish to‘g‘risida», 2016 yil 14 sentyabrdagi O‘RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida», 2022 yil 15 apreldagi O‘RQ-764-son «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida», 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mavzuga

oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi yurtimizda kibertahdidlarga qarshi kurash borasida tizimli ishlash uchun huquqiy asos yaratilganligini ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki kiberxavfsizlik sohasiga tegishli bo‘lgan 17 ta qonun hujjati, 9 ta Prezident Farmon va Qarorlari, 14 ta Vazirlar Mahkamasining Qarori, shuningdek tegishli normalar va ko‘plab idoralararo me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Prezidentning 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4024-son Qarori bilan davlat unitar korxonasi shaklida Kiberxavfsizligi markazi tashkil etildi. Ushbu markaz bugungi kunda ham faoliyat yuritayotgan bo‘lib asosiy vazifasi turli tarmoqlarda xavfsiz faoliyat muhitini yaratishdan iborat. Markazning faoliyati csec.uz sayti orqali yoritib boriladi. Csec.uz[80] kiberxavfsizlik markazining rasmiy sayti hisoblanadi.

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo‘yicha davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlarining uzviy hamkorligini ta’minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda “xavfsiz axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda kibertahdidlarga qarshi kurashda “Kiberxavsizlik to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi davlat miqyosida ushbu masalaga qaratilayotgan e’tiborning yuqori ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 25-fevralida qabul qilingan, hamda 2022-yil 17-martda Senat tomonidan ma’qullangan Kiberxavfsizlik to’grisidagi qonun ishlab chiqildi. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun 8 bob, 40 moddadan iboratdir.

[80] https://csec.uz/uz/

“Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasi asosiy tushunchalar deb nomlangan bo‘lib, “kibermakon” va u bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim texnik va falsafiy tushunchalariga ta’rif berilgan. ***Kibermakon*** — axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit, deb ta’rif beriladi. “Kibermakon” tushunchasi (ingliz. cyberspace) ikki qismdan “Cyber” va “Space” tushunchalaridan iborat. Bu so‘zlar Oksford inglizcha lug‘atida keltirib o‘tilgan. Yunonchadan so‘zma-so‘z tarjima qilinganda κυβερνήτες – “hukmdorlar” deb tarjima qilinadi.[81] Qonunning asosiy obyekti bu – kibertahdidlarga qarshi kurashish va kiberxavfsizlikni ta’minlashdan iboratdir. Qonunda ushbu ikki tushunchaga ham ta’rif berilgan bo‘lib, *kibertahdid* — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi shart-sharoitlar va omillar majmui; *kiberxavfsizlik* — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati deyiladi.

Ushbu qonunning asosiy maqsadi kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir va buni amalga oshirishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

*Qonuniylik* – ya’ni Kiberxavfsizlikni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarining talablariga og‘ishmay rioya etilishi hamda ular bajarilishi shartligi, qonunchilik talablarini aniq bajarishdan va ularga rioya etishdan har qanday tarzda chetga chiqish, buning sabablari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, qonuniylikning buzilishidir va u belgilangan javobgarlikka sabab bo‘lishligi belgilab qo‘yilgan. Umuman olganda, “qonuniylik – qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan huquqiy hujjatlarga barcha davlat organlari, mansabdor va boshqa shaxslarning og‘ishmay amal qilishi. Qonuniylik demokratiya va huquqiy davlatning elementlaridan biri”.[82]

---

[81] Oxford dictionary of English. Oxford, 2010.

[82] https://uz.wikipedia.org/wiki/Qonuniylik

*Kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligi* – ichki va tashqi kibertahdidlardan himoyalanishda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining buzilishini oldini olish va ularga alohida ahamiyat qaratishdan iboratdir. Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish davlatning va qonunchilikning asosiy vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qunun hujjatlari ham ushbu tamoyilga amal qiladi. Bugungi kunda kibermakonda shaxs, jamiyat va davlatga nisbatan kibertahdidlarning bir qancha ko‘rinishlari mavjud. Kibermakon turli siyosiy kuchlar uchun o‘zlarining terroristik, ekstremistik tashviqotlar va g‘oyalari, o‘z qarashlarini ommaga targ‘ib qilish, har xil jinoiy to‘dalar faoliyatlarini amalga oshirish yo‘lida asosiy qurol sifatida foydalanishmoqda. Yirik salbiy kuchlarning internet tarmog‘ida o‘zlarining mafkuraviy maydonlarini yaratib, internetda keng qamrovli axboriy terror – “elektron jihod” olib borayotgani, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar, muammolar paydo qilayotganlari dunyo mamlakatlari oldida axborot xavfsizligini ta’minlash muammolarini keltirib chiqarmoqda.[83] Shunday ko‘rinishdagi tahdidlardan jamiyatni, davlatni, eng avvalo insonlarni himoya qilish eng dolzarb masaladir. Ayniqsa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, vep saytlar orqali turli siyosiy, diniy guruhlarning yolg‘onlariga aldanib hayotlarini barbod qilayotgan kishilarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Achinarli jihati ular bu yolg‘onlarga ishonib o‘z vatanlarini ham tashlab ketishmoqda va kerak bo‘lsa vatanga qarshi harakatlarni ham amalga oshirishmoqda. Shunday bo‘lsada yutboshimiz tomonidan bir qancha yo‘ldan adashgan, chet elda qiynalib, ayrim yovuz kimsalarning qo‘llarida qolgan yurtdoshlarimiz kechirilib ularga ko‘mak berilmoqda. Jumladan, o‘tgan yillar mobaynida yurtimizda o‘tkazilgan “Mehr operatsiyalari” tufayli o‘zga yurtlarda jangarilar qo‘lida qiynalayotgan, azob chekayotgan yuzlab hamyurtlarimiz vatanga qaytarildi. 5 ta operatsiya natijasida 435 nafar vatandoshimiz Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi qurolli to‘qnashuvlar

---

[83] Berkinov O.T. (2022). Kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari va nazariy tahlili // ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI. –B.1042-1046

hududlaridan qaytarildi. Ma’lumot uchun, “Mehr” insonparvarlik operatsiyasi ilk bor 2019-yili amalga oshirilgan bo‘lib, unda 156 nafar o‘zbekistonlik, asosan, ayollar va bolalar Suriya poytaxti Damashqdan maxsus reys bilan O‘zbekistonga olib kelingan. 2019-yilning oktabr oyida esa Yaqin Sharqdagi mojarolar hududidan o‘zbekistonliklarni qaytarish bo‘yicha ikkinchi maxsus operatsiya amalga oshirilgan. 2020-yilning dekabridagi uchinchi maxsus operatsiya doirasida Suriyadan 25 nafar ayol va 73 nafar bola, 2021-yildagi “Mehr-4” operatsiyada esa 24 nafar fuqaro Afg‘onistondan O‘zbekistonga qaytarilgan. 2021-yil 3-may kuni “Mehr-5” operatsiyasi doirasida 93 nafar o‘zbekistonlik Suriyadan olib kelindi. O‘zga yurtlardan olib kelingan yurtdoshlarimiz bilan olib borilgan suhbatlarga ko‘ra ularning juda ko‘pchiligi ijtimoiy tarmoqlar, vep saytlar orqali yovuz kimsalarning aldovlariga ishonganliklari va yurtni tashlab chiqib ketganliklari ayon bo‘ldi. Shunday bo‘lsada, davlat jim turmadi. O‘z fuqarolarini himoya qilish uchun mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi.

*Kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishga nisbatan yagona yondashuv* – vazifasi ma’lumotlarga ishlov berish hamda ularni himoya qilish bo‘yicha dasturiy va texnik vositalarini ishlab chiqish hamda joriy etish jarayonini tashkil etish, uning monitoringini va nazoratini amalga oshishga qaratilgan axborot tizimlarini hamda resurlarini kiber himoya qilish bo‘lgan yagona davlat tizimi joriy etilishi bilan ta’minlanishligi belgilab qo‘yilgandir;

*Kiberxavfsizlik tizimini yaratishda mahalliy ishlab chiqaruvchilari ishtirokining ustuvorligi* – ya’ni davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining kiberhimoyasini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tovarlarni (ishlar, xizmatlar) xarid qilishda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar xorijda ishlab chiqarilgan tovarlardan ustuvorligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu orqali o‘zimizning milliy brendni shakllantirish va mahalliy ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga ahamiyat qaratilgandir. Albatta, mahalliy ishlab chiqarish bo‘lishi uchun yetarlicha sharoit va shunga mos kadrlar lozim. Kadrlar muammosini hal qilishlik uchun yurtimizda IT sohani rivojlantirish va ushbu sohaga yoshlarni

qiziqtirish ishlari olib borilmoqda. Axborot Texnalogiyalarini o‘qitish uchun chet el bilan hamkorlikda maxsus universitetlar ham tashkil etilishiga sharoitlar yaratib berilmoqda. Bunga Jizzax viloyatida Hindiston bilan hamkorlikda 2021-yili tashkil etilgan “Sambhram” Universiteti misol bo‘la oladi, bundan tashqari boshqa hududlarida ham shunday universitetlar, IT Markazlari va IT akademiyasi tashkil qilinishi yaqqol misol bo‘la oladi.

*O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlikni ta’minlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi prinsipi* – ya’ni kiberxavfsizlikni ta’minlashda chet davlatlar va ularning vakolatli idoralari, xalqaro shartnomalar doirasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklarni amalga oshiradilar. Masalan, Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida 2021-yil 17-sentyabr kuni Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari Kengashining yubiley majlisida Shavkat Mirziyoyev kibermakondagi zamonaviy tahdid va xatarlarga munosib javob qaytarish uchun ShHTning axborot xavfsizligi sohasidagi ekspertlar forumini ta’sis etish to‘g‘risida tashabbusini ilgari surganligi xalqaro hamkorlikka bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatadi.

Qonunda ko‘ra, O‘zbekistonda kiberxavfsizlik sohasidagi yagona davlat siyosatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti belgilaydi va hozirgi qonunchilikka asoslanib, Kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati hisoblanadi. Kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishda bevosita prezident nazoratining o‘rnatilganligi bu sohaning naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu qonunda ham, boshqa ko‘plab hujjatlar kabi O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro shartnomalarda ko‘zda tutilgan boshqacha qoidalarda ustuvorlik berilgan. Ya’ni, xalqaro shartnomada «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonundan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi(2-modda).

Kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli organ – DXXga ko‘plab vakolatlar berilgan, xususan:

- sohaga doir normativ hujjatlar va dasturlar ishlab chiqish, ularning ijrosini nazorat qilish;

- kiberxavfsizlik hodisalari yuzasidan tezkor tadbirlar va tergov harakatlari olib borish, shuningdek ularning oldini olish, bartaraf qilish va oqibatlarini tugatish bo‘yicha texnik choralar ko‘rish;
- sohaga doir tadqiqotlar va monitoringlar o‘tkazish;
- muhim axborot infratuzilmalari obektlarining yagona reyestrini shakllantirish, ularning xavfsizligini ta’minlashga doir talablarni belgilash;
- axborotni kriptografik himoya qilish vositalarini ishlab chiqishga doir faoliyatni litsenziyalash;
- muhim axborot infratuzilma obektlariga kiberhujumlarga urinishlarning oldini olish;
- davlat boshqaruv organlari va mahalliy hokimliklarni kibertahdidlar haqida ogohlantirish;
- O‘zbekiston kibermakonida terrorchilik, ekstremistik va boshqa qonunga xilof faoliyat olib borilmasligi choralarini ko‘rish;
- kiberxavfsizlik sohasida kadrlarni tayyorlash va boshqa ko‘plab vakolatlarga ega.
- Soha bo‘yicha vakolatli organ – DXXning qonuniy talab va ko‘rsatmalarini bajarish majburiydir(11-modda).

O‘zbekiston Respublikasida “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi kiberxavfsizlik sohasiga tegishli bo‘lgan barcha munosabatlarni tubdan isloh qilishga qaratilgan yangi hamda katta ahamiyatga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu sohadagi vakolatlarning Davlat Xavfsizlik Xizmatiga topshirilishi bilan kibermakondagi barcha hodisalarni ya’ni kibertahdidlarga qarshi kurashishda hamda ularning oldini olishda o‘zining vazifasini yuqori darajada bajarilishi ta’minlanadi. Shuningdek, dunyo aholisi axborot xavfsizligining barchaga ma’lum bo‘lgan qoidalariga rioya qilishi, shubhali bo‘lgan xabarlardan ehtiyot bo‘lish, murakkab parollardan foydalanmaslik, ularni hech kimga bermaslik,

shubhali saytlardan foydalanmaslik orqali kibertahdidlardan himoyalanishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan tizimli va fundamental yondashuv, yagona normativ-huquqiy hujjatlar bazasini yaratish, ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish, innovatsion usullardan keng foydalanish davlat axborot siyosatini samarali olib borishga hamda axborot xavfsizligi sohasidagi muammolarni hal etishga hizmat qiladi. Bu esa axborot kommunikatsiya va texnologiyalari tizimini zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilish, turli darajadagi tizimlar uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mazkur sohada davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish kabilarni amalga oshirish orqali belgilanadi. Bu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiyalash orqali kiberxavfsizlikni ta’minlashni takomillashtirish mumkin. Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zamirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga asos bo‘ladi.

### *To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar*

O‘zbekistonda kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan tizimli va fundamental yondashuv, yagona normativ-huquqiy hujjatlar bazasini yaratish, ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish, innovatsion usullardan keng foydalanish davlat axborot siyosatini samarali olib borishga hamda axborot xavfsizligi sohasidagi muammolarni hal etishga xizmat qiladi.
Bu esa axborot kommunikatsiya va texnologiyalari tizimini zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilish, turli darajadagi tizimlar uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mazkur sohada davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning

faoliyatini muvofiqlashtirish kabilarni amalga oshirish orqali belgilanadi. Bu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiyalash orqali kiberxavfsizlikni ta’minlashni takomillashtirish mumkin. Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zamirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga asos bo‘ladi.

# XULOSA

Kibermakon tushunchasi o‘zida barcha sohalarni qamrab oluvchi ijtimoiy texnik fenomendir. Turli ilmiy adabiyotlarni tahlil qilgan holda kibermakon tushunchasiga quyidagicha ta’rif berdik:

- *texnik jihatdan,* internet, telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuter tizimlari va o‘rnatilgan protsessor va tekshirgichlarni o‘z ichiga olgan axborot texnologiyalari infratuzilmalarining o‘zaro bog‘liq tarmog‘i;

- *ijtimoiy jihatdan,* insonlar o‘rtasida o‘zaro axborotlar, g‘oyalar, mafkuralar almashadigan virtual muhit;

- *psixologik jihatdan,* inson ruhiyatidagi transformatsiya jarayoni atributlar – shakl, mazmun, kompozitsiya, joylashuv, ohang, matn va rang uyg‘unligi, garmoniya, ritm, uslub hamda ularning sifat va miqdor jihatdan o‘zgarishlar yuzaga keluvchi maydon;

- *siyosiy jihatdan,* kibermakon siyosiy kontekst bilan chuqur bog‘langan ijtimoiy – texnik haqiqatdir;

- *ma’naviy jihatdan,* turli xil jamiyatlarda shakllangan madaniyatlarni, qarashlarni, qadriyatlarni o‘zaro bog‘laydigan va insonlar ma’naviyatida transformatsiyalarga sabab bo‘luvchi makon.

Kibermakon va u bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarga nisbatan yakdil ta’rifning berilmaganligi juda ko‘plab munosabatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ayrim holatlarda bir biriga qarama-qarshi ta’riflarni ham ko‘rishimiz mumkin.

Kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanib qolganligining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni sanab o‘tamiz.

*Birinchidan,* kibermakonning tartibga solinmaganligi – bu sarhadsiz olamda har xil mazmundagi turfa xil ma’lumotlar uchraydi. Internet shu darajada inson qalbi va ongiga ta’sir qiluvchi kuchga aylandiki, unda targ‘ib qilinayotgan

tartibsiz ma'lumotlarning afzalliklari yoki salbiy oqibatlarini ajratib olish juda qiyin masala.

*Ikkinchidan,* kibermakonda kiberhujumlarning mavjudligi – davlatlar, tashkilotlar va turli jamiyatlarning siyosiy, ijtimioy, iqtisodiy va madaniy hayotlariga aralashuvlar, talonchilik harakatlarining mavjudligi. Hakerlik faoliyatining yuqori darajada rivojlanganligi.

*Uchinchidan,* matn, tasvir va ovoz uyg'unligidagi axborotni joylash kabi qulayliklar – ushbu axborot olamida dastlab matn ko'rinishida bo'lsa, hozirga kelib kibermakonda nafaqat matn, balki fotolavha, videolavha va ovoz uyg'unligidagi ma'lumotlarni joylashtirish va ularni elektron manzillarga jo'natish ham mumkin.

*To'rtinchidan,* kibermakonda harakatlanishning osonligi – hozirgi kunda internetdan, ijtimoiy tarmoqlardan va turli xil elektron qurilmalardan foydalanish juda qulay bo'lib qoldi. Bunda nafaqat kompyuter, balki zamonaviy planshetlar va uyali aloqa vositalari, ya'ni telefonlar orqali ham kirib foydalanish imkoniyati mavjud.

*Beshinchidan,* cheksiz auditoriya – global tarmoqda turli fikr va qarashdagi milliardlab odamlar mavjud. Bu sarhadsiz olamda kishilar turli mavzularda fikr almashadi, o'zaro baxs-munozaralar qiladi. Bunday odamlar gavjum go'shadan unumli foydalanish uchun terrorchilar kibermakonni o'zlarining "ov makoni"ga aylantirib olmoqda.

*Oltinchidan,* ma'lumotlarning yetkazish tezkorligi – virtual tarmoq orqali bir axborotni yashin tezligida dunyoning bir burchagidan narigi burchagiga yetkazish mumkin. Ushbu qulaylikdan, taassufki, yovuz niyatli shaxslar ham o'z manfur mmaqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanishmoqdalar.

*Yettinchidan,* kibermakondagi faoliyatlarning maxfiyligi – o'rgimchak to'rida faoliyat olib borayotgan shaxslar anonim, ya'ni yashirin holatda faoliyat olib borishlari mumkin. Bu kabi maxfiy faoliyatning g'oyaviy tazyiqi va ta'sirining o'ziga xosligi shundaki, bunda "maqsadli ish" o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan, zimdan amalga oshiriladi.

Yoshlar ma’naviy hayotidagi transformasiyalar tahlil qilgan holda quyidagilarni ta’kidlab o‘tamiz:

- ijtimoiy tarmoqlar yoshlar o‘rtasida axloqsizlik, faxsh, buzg‘unchilik, yovuzlik kabi illatlarning avj olishiga sabab bo‘luvchi vositaga aylanganligi va bunga ushbu virtual muloqot vositasi orqali turli audio, foto, video ko‘rinishlardagi materiallarning keng miqyosida tarqala olish qobiliyatining mavjudligi imkon yaratdi;
- yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish maqsadida ta’lim muassasalarida yetarlicha o‘quv ishlari olib borilmayotganligini ko‘rish mumkin.

Axborot texnologiyalari rivojlangan dunyoda, ayniqsa, yoshlar orasida kibermakonga bo‘lgan ehtiyoj, uning iste’moli kuchayib bormoqda, yoshlar esa, doimiy ravishda kibermakonni harakatlantiruvchi va uni rivojlantiruvchi kuchga, obyektga aylanmoqda. Demak, kibermakonni rivojlantiruvchisi ham, iste’molchisi ham ko‘proq yoshlar ekan, uning kelajagi, ma’lum ma’noda, yoshlarning dunyoqarashi, ehtiyojlari va harakatlariga bog‘liqdir.

Yoshlar ma’naviyatiga bo‘layotgan kibertahdidlarga qarshi immunitet sifatida “kiberaxloq”ni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish oldimizda turgan eng muhim vazifadir.

Hozirgi davrda kibermakondagi axloqiy muammolarni tadqiq qilishda qo‘llanilayotgan tushunchalarga nisbatan yakdil, qat’iy munosabat shakllanmagan. Bu esa ilmiy-nazariy xulosalarning, amaliy tavsiyalarning turli tumanligini, xatto, ularning qarama-qarshiligini keltirib chiqarmoqda. Ushbu bobimizda kibermakonning ma’naviy jihatlarini ifodalovchi tushunchalani tahlil qildik:

*“Kiberaxloq”* – har kimning o‘z vijdoni, iymon-e’tiqodi va boshqa axloq normalaridan kelib chiqqan holda kompyuter, mobil qurilmalar, axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan va barcha global tarmoqlardan foydalanish me’zonlarining majmuasi.

*“Kibermadaniyat”* – kishining belgilangan tartib qoidalar va axloq normalariga rioya qilgan holda tarmoqdan foydalanish madaniyati.

*“Virtual imidj”* – insonning virtual tarmoqlar, veb-saytlar, ijtimiy tarmoqlar, virtual o‘yinlar va umuman barcha turdagi axborot-kommunikatsiya vositalaridagi qiyofasidir. Bunda tarmoq foydalanuvchisining tarmoqdagi faolligi, tarmoqdagi jarayonlarga munosabati, shaxsiy yoki ommaviy profillariga qanday ko‘rinishdagi axborotlarni joylashtirganligi bilan belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib kibermakon, u bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilishda quyidagi muammolar mavjudligini sanashimiz mumkin:

1. Hozirgi davrda kibermakondagi axloqiy muammolarni tadqiq qilishda qo‘llanilayotgan tushunchalarga nisbatan yakdil, qat’iy munosabat shakllanmagan. Bu esa ilmiy-nazariy xulosalarning, amaliy tavsiyalarning turli tumanligini, xatto, ularning qarama-qarshiligini keltirib chiqarmoqda.

2. Kibermakon va kibermakonda sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘rganadigan alohida fan shakllanmagan.

3. Yoshlarning internet, ijtimoiy tarmoqlar, aloqa vositalaridagi harakatlarining ma’naviy tomonlari yuqori darajada nazoratga olinmagan.

4. Kibermakonda yoshlar ma’naviyatidagi transformatsiyalarni oldini olishda vakolatli davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari, tegishli tashkilotlar, ta’lim muassasalari, jamoatchilik va ota-onalar o‘rtasida integratsiya ta’minlanmagan.

5. Ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan fanlarda yoshlarda mediamadaniyatni, kiberaxloqni, virtual imidjni shakllantirishga yordam beruvchi mavzular juda kam berilgan.

# ADABIYOTLAR RO‘YXATI


## Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 282.
2. Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.
3. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.T:2008-y

## Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi 560-II-son «Axborotlashtirish to‘g‘risida» qonun.
2. 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida» qonun.
3. 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonun.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» qaror.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni.
6. 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori.
7. 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Платон. Собрание сочинений. – М.: Директ-Медиа, 2010. – Б. 341.

2. Аристотель. Полное собрание сочинений. – М.: Директ-Медиа, 2002. – С. 70.

3. Лейбниц Г. Новый опыт о человеческом разуме. – М., 2008, – С. 178; Джон Локк. Опыт о человеческом разуме. – М., 2006. – С.193.

4. Бергсон А. Собрание сочинений, – М.: Материя и память, 2002. – С. 245.

5. William Gibson. Neuromancer. – New York: 20th Anniversary Edition Ace Books, 2004. – № 4. -P. 87.

6. Барышев А.Р. Киберпространство и проблема отчуждения: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Красноярск, 2009. –С. 65. Вылков Р.И. Киберпространство как социокультурный феномен, продукт технологического творчества и проективная идея // Философские исследования. –Екатеринбург, 2009, – № 1. – С. 147; Радина О.И., Васенев С.Л., Поверенная Д.Ю. Социальные сети как инноваtsionная технология позиционирования индустрии красоты. – Interactive science. – М., 2020. – №4 (50). – С. 215.

7. Винер Н. Кибернетика и общество. - М.: АСТ, 2003. – С 280., Орехов С.И. Поиск виртуальной реальности. –Омск. Издательство ОмГПУ, 2002. – № 2 (3). – С 214., Дубровский Д.И. Проблема духа и тела: возможности решения. –М.: Вопросы философии, 2002. – №4. – С. 92-107; Абдеев Р.Ф. Философия информаtsionной цивилизаtsiи. – М.: Владос, 1994. – С. 336.

8. Василенко И.А. Геополитика современного мира. – М., 2006. – С. 317.

9. Abdullaeva.N.B. Zamonaviy oʻzbek matbuoti dizaynining estetik xususiyatlari (jurnallar misolida): Fals. fan. nom. ... dis. avtoref. –Toshkent, 2010. –B. 22.

10. Abdullaeva M.Z. Kibermakon va islom bilan bogʻliq diniy-maʼnaviy jarayonlar: Tar. fan. boʻy. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent, 2020. – B.16.

11. Nurmatova M. A. Shaxs ma’naviy kamolotida estetik va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi muammosi: Fals. fan. dok. ... dis. –Toshkent: O‘zMU, 2011. –74 b., Muminov A.G. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2013. – B. 12.

12. Muxtorov A. Milliy g‘oya takomilida ehtiyoj va manfaatlar birligi: Fals. fan. dok. ...dis. –Toshkent, 2010. – B. 13.

13. G‘aybullaev O. Shaxs estetik madaniyatining shakllanish va rivojlanish muammolari: Fals. fan. dok. ... dis. avtoref. –Toshkent, 2011. – 49 b., Саифназаров И. Социально-нравственная сущность современного трудового коллектива: Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Ташкент, 1992. – С. 50.

14. G‘affarova G.G‘. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari: Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2019. – 49 b.

15. Шермухамедова Н. Социално-философские аспекты формирования стиля научного мышления: Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Тошкент: Университет, 2002. –С. 35

16. Қўшоқов Ш.С. Постнеклассическая наука и циклистика: точки соприкосновения в методологии и стиле мышления // Материалы I Международной конференции «Циклы». – Ставропол: СевКавГТУ, 1999. – С. 104-105

17. Tulyayev A.I. Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil): Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2021. – B. 15.

18. Турашбекова А.К. Научное мировозрение и его влияние не формирование стиля мышления творческой интеллегении: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Тошкент: Пед.институт, 1990. – С. 25

19. Хайруллаева В. Гибкост мышления и её методологическое значение: Автореф. дис. ... канд. филос. наук.– Тошкент, 2000. – 18 с.

20. Султанова Т. Проблемы развитие интеллектуалного потенциала независимой Республики Узбекистан: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Тошкент, 1995. –С. 18

21. Erkaboev M., Do‘schanov T. Tafakkur va hayot uyg‘unligi // Muloqot. – Toshkent, 2003. – № 3. – B. 13

22. Muminov A.G. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2013. – B. 12; Muxammadjonov O. Huquqiy tafakkur mahsuli: parlamentchilik taraqqiyoti // Tafakkur. – Toshkent, 2003. – № 2. – B. 4-9; Erkaev A. Tafakkur erkinligi mezonlari // Tafakkur. – Toshkent, 2006. – № 1. – B. 14

23. G‘affarova G.G‘. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari: Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2019. – 49 b

24. Tulyayev A.I., Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil): Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2021. – B. 15.

25. Rajabov.Sh.Sh., shaxs estetik ehtiyojlarining kibermakondagi transformatsiyasi.Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2021. – B. 15.

26. Jacob Lillemose and Mathias Kryger, “The (Re)Invention of Cyberspace,” Kunstkritikk, kunstkritikk.com/kommentar/the-reinvention-of-cyberspace/ (accessed October 18, 2017).

27. Конвенция о преступности в сфере компьютерной информации ETS № 185 (Будапешт, 23 ноября 2001 г.) [Электронный ресурс] // https://base.garant.ru/4089723/

28. *Scott Thil (March 17, 2009).* "March 17, 1948: William Gibson, Father of Cyberspace". *WIRED.*

29. Абдуллаева М.З. Кибермакондаги диний жараёнларни ўрганишдаги ёндашувлар // Ўзбекистон халқаро ислом академияси илмий таҳлилий ахборот. – Тошкент, 2018. - № 1. – Б. 60-65.

30. Gibson, William (1984). Neuromancer. New York: Ace Books. p. 69. ISBN 978-0-441-56956-4.

31. Закон о кибербезопасности КНР // 全国人民代表大会 Цюаньго жэньминь дайбяо дахуэй [Всекитайское собрание народных представителей]. [Электронный ресурс] URL: http://www.npc.gov.cn/npc/xinwen/2016-11/07/contenthtm

32. Legality of the threat of use of nuclear weapons. ICJ Advisory Opinion, 8 July 1996, Pa39.

33. Указ Президента РФ от 05.12.2016 № 646 «Об утверждении Доктрины информационной безопасности Российской Федерации» // Собрании законодательства Российской Федерации от 12 декабря 2016 г. № 50 ст. 7074

34. Войскунский А.Е. Метафоры интернета // Вопросы философии. 2001. № 11. С. 64–79. URL: http://www.relarn.ru/human/cyberspace.html (дата обращения: 18.07.2017).

35. *(Standardization), ISO (International Organization for.* "Publicly Available Standards". *standards.iso.org.*

36. *SATTER, RAPHAEL (28 March 2017).* "What makes a cyberattack? Experts lobby to restrict the term". Retrieved 7 July 2017.

37. S. Karnouskos: Stuxnet Worm Impact on Industrial Cyber-Physical System Security.In:37th Annual Conference of the IEEE Industrial Electronics Society (IECON 2011), Melbourne, Australia, 7-10 Nov 2011. Retrieved 20 April 2014.

38. *World Economic Forum (2018).* "The Global Risks Report 2018 13th Edition" (PDF). *World Economic Forum. Archived from* the original (PDF) *on 19 June 2018.* Alt URL)

39. Internet Security Glossary. doi:10.17487/RFC2828. RFC 2828.

40. Rajabov H.I “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T:. "Fan va texnologiya" 2020 yil, B-207

41. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o'quv qo'llanma // M.Amin Yahyo; Mas'ul muharrir A.Hasanov. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. – 162 b

42. https://datareportal.com/reports/digital-2020-global-digital-overview

43. *Steiner-Adair C.* The Big Disconnect: Your Student in Class vs. Your Student Online [Electronic resource] // Independent School. 2015. Vol. 74 (2).

44. https://uza.uz/uz/posts/virtual-olamdagi-global-tahdid_350549

45. Berkinov O.(2022). IJTIMOIY TARMOQ: YOSHLAR VA "KELAJAK". Scientife Bullettin of NamSU - Научный вестник - NamDU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil_3-сон 184-b

46. Gulchehra G'affarova, Dilmurod Jumanov. (2021). IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI // Academic research in educational sciences. №4.‖URL: https://cyberleninka.ru/article/n/izhtimoiy-tarmo-larning-yoshlar-manaviyatiga-tasiri(дата‖пбсащениѐ:‖ 03.02.2022).

47. Yaxyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o'quv qo'llanma. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. – 543 b.

48. https://kun.uz/uz/news/2017/04/12/kuk-kit-ujin-nikobidagi-kabilik

49. Исҳақ Абдурахмонов. (2021). КИБЕРМАКОНДА ДИНИЙ ЭКСТРЕМИСТИК ВА ТЕРРОРИСТИК ТАҲДИДЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЗАРУРИЯТИ. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 ǀ ISSUE 4 ǀ 2021 ISSN: 2181-1601 https://cyberleninka.ru/article/n/kibermakonda-diniy-ekstremistik-va-terroristik-ta-didlarni-oldini-olish-zaruriyati

50. BMT Bosh Assambleyasining 2002 yil 20 dekabrdagi "Global kiberxavfsizlik madaniyatini yaratish" rezolyutsiyasi, ў 57/239. Mavjud: http://www.un.org/ru/ga/second/57/ second_res.shtml.

51. 2003 yil 12 dekabrdagi "Axborot jamiyati qurilishi – yangi asrda global vazifa" tamoyillari deklaratsiyasi. https://zakon.rada.gov.ua/laws

52. Heli Tiirmaa-Klaar -Kiberxavfsizlik tahdidlari va javoblari: Global, Nation-State ... - Mars 2011 http://www.ceri-scienes-po.org

53. Mykola Vasilenko, yuqorida, eslatma 3. Pg. 17-24.

54. The official website: Federal Ministry of Justice, German Criminal Code // Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html [11.11.2022]

55. The official website: German Law Archieve, Network Enforcement Act 2017. // Available at: https://germanlawarchive.iuscomp.org/?p=1245 [Accessed on: 11.11.2022]

56. The official website: GovInfo, TITLE 18—Crimes And Criminal Procedure // Available at: https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title18/pdf/USCODE2011-title18.pdf [Accessed on: 10.11.2022]

57. The official website: Congress.gov H.R.4718 - Computer Fraud and Abuse Act of 1986 // Available at: https://www.congress.gov/bill/99th-congress/housebill/4718/text [Accessed on: 10.11.2022]

58. The official website: CIS Legislation, About safety of critical information infrastructure of the Russian Federation July 26, 2017 No. 187-FZ // Available at: https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=98928 [Accessed on: 10.11.2022]

59. Criminal Code of the Russian Federation (with the latest amendments of 1 July 2021), Chapter 28. Crimes in the Sphere of Computer Information (in Russian) // Available at: http://www.russian-criminalcode.com/PartII/SectionIX/Chapter 28.html [Accessed on: 10.11.2022]

60. The official website: Roskomnadzor (Aloqa, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish federal xizmati), the government of The Russian federation regulation no. 228 of march 16, 2009 on the federal service for supervision of communications, information technology, and mass media // Available at: https://eng.rkn.gov.ru/about/ [Accessed on: 10.11.2022]

61. The official website: Legislation.gov.uk (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi qonunchilik ma'lumotlari bazasi) The Computer Misuse Act of Международный научный журнал № 4 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» ноябрь, 2022 г 836 1990, as amended (in English) // Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1990/18/contents [Accessed on:10.11.2022]

62. The official website: KLRI ( Korea legislation research institute) Act on promotion of information and communications network utilization and information protectio Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=38422& lang=ENG [Accessed on: 10.11.2022]

63. The official website: KLT (Korea Law translation center) Act on the protection of information and communications infrastructure // Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=28812&type=part&key=43 [Accessed on: 11.11.2022]

64. The Official website: NPA (National Police Agency) Act on Prohibition of Unauthorized Computer Access(Tentative translation) // Available at: https://www.npa.go.jp/cyber/english/legislation/uca_Tentative.pdf [Accessed on: 10.11.2022]

65. The official website: CAS (Cabinet secretariat) Penal Code (Act No.45 of 1907) // Available at: https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/hourei/data/PC.pdf [Accessed on: 10.11.2022]

66. The official website: CRA (The Communications Regulatory Authority) Telecommunications Law No. (34) of 2006 // Available at: https://www.cra.gov.qa/en/document/telecommunications-law-no-34-of-2006 [Accessed on: 10.11.2022]

67. The official website: OHCHR's Database, Law No. 11 of 2004 Issuing the Penal Code 11 / 2004 // Available at:

https://adsdatabase.ohchr.org/IssueLibrary /QATAR_%20Penal%20Code.pdf [Accessed on:10.11.2022]

68. The official website: ILO (International Labour Organization) Cybercrime Prevention Law (Law No. 14 of 2014) // Available at: https://www.ilo.org /dyn/natlex/natlex4.detail?p_lang=en&p_isn=100242 [Accessed on: 10.11.2022]

69. Berkinov O.T. (2022). Kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari va nazariy tahlili // ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI. –B.1042-1046

## Internet saytlari:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Cyberspace
2. https://csec.uz/uz/
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qonuniylik

# MUNDARIJA


**KIRISH**........................................................................................... 3

**1-BOB. KIBERMAKON TUSHUNCHASINING NAZARIY METODOLOGIK TAHLIL**

**1.1 .** Kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati………………... 8

**1.2.** Kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari va nazariy tahlili……………………………………… 18

*Birinchi bob bo'yicha xulosalar*.................................................... 25

**2-BOB. KIBERMAKONDA AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**2.1.** Texnologiyalar davrida jamiyatni axborotlashtirish masalalari…………………………………………………........... 26

**2.2.** Axborot urushlari mazmun-mohiyati, asl maqsadi va niqoblanish (yoki jozibalanish) ko'rinishlari……………........................... 40

*Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar*.................................................. 47

**3-BOB. YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIDAGI TRANSFORMASIYALAR TAHLILI**

**3.1.** Yoshlar ma'naviyatiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri…………… 49

**3.2.** Kibertahdidlarning yoshlar ma'naviy hayotidagi salbiy oqibatlari……………………………………………............ 57

**3.3.** Kiberludomaniya ta'sirida qolgan yoshlarda ijtimoiy va psixologik muammolarning paydo bo'lish jarayonlari…………...

*Uchinchi bob bo'yicha xulosalar*.................................................. 62

**4-BOB. KIBERTAHDIDLARGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI**

**4.1.** Kibertahdidlarga qarshi kurashishning xalqaro tajribasi…………. 74

**4.2.** O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik masalalari: nazariy va amaliyoti………………………………………………… 82

*To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar*……………………………......... 89

**XULOSA** 91

**ADABIYOTLAR RO'YXATI** 95

# СОДЕРЖАНИЕ


**ВВЕДЕНИЕ**........................................................................ 3

**ГЛАВА I. АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕТОДОЛОГИИ КОНЦЕПЦИИ КИБЕРПРОСТРАНСТВА**

**1.1 .** Содержание понятия киберпространство …………………......... 8

**1.2.** Объективные основы и теоретический анализ превращения киберпространства в пространство угроз................................. 18

*Выводы по первой главе*............................................................ 25

**ГЛАВА II. ИНФОРМИРОВАННОЕ ОБЩЕСТВО В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ И ЕГО АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ**

**2.1.** Вопросы информатизации общества в эпоху технологий…… 26

**2.2.** Содержание информационных войн-сущность, первоначальная цель и проявления маскировки (или очарования)…………………………………………………….. 40

*Выводы по второй главе*……................................................... 47

**ГЛАВА III. АНАЛИЗ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ**

**3.1.** Влияние социальных сетей на духовность молодежи……….. 49

**3.2.** Негативные последствия киберугроз для духовной жизни молодежи……………........................................................... 57

**3.3.** Процессы возникновения социально-психологических проблем у молодых людей, страдающих киберломанией……

*Выводы по третьей главе*......................................................... 62

**ГЛАВА IV. СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ БОРЬБЫ С КИБЕРУГРОЗАМИ**

**4.1.** Международный опыт борьбы с киберугрозами…………….. 74

**4.2.** Вопросы кибербезопасности в Республике Узбекистан: теория и практика…………………………………………… 82

*Выводы по четвертой главе* ………………………………... 89

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ** .................................................................... 91

**СПИСОК БИБЛИОГРАФИИ** ............................................... 95

# CONTENT


**INTRODUCTION**........................................................................ 3

**CHAPTER I. THEORETICAL METHODOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CYBERSPACE**

**1.1.** The essence of the concept of cyberspace……………………….. 8

**1.2.** Objective foundations and theoretical analysis of the transformation of cyberspace into a field of threats……………… 18

*Conclusions on the first chapter*.................................................... 25

**CHAPTER II. SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT**

**2.1.** Issues of social information in the Age of technologies………… 26

**2.2.** The essence, real purpose, and appearance of disguise (or attraction) of information wars…………………………………... 40

*Conclusions on the second chapter*................................................ 47

**CHAPTER III. ANALYSIS OF TRANSFORMATIONS IN THE SPIRITUAL LIFE OF YOUTH**

**3.1.** The Influence of social networks on the spirituality of young people……………………………………………………. 49

**3.2.** Negative Consequences of cyber threats in the spiritual life of young people………………………………………………….. 57

**3.3.** Processes of emergence of social and psychological problems in young people affected by cyberlomania…………………………

*Conclusions on the third chapter* .................................................. 62

**CHAPTER IV. MODERN MECHANISMS OF FIGHTING AGAINST CYBER THREATS**

**4.1.** International experience in combating cyber threats……………... 74

**4.2.** Issues of cyber security in the Republic of Uzbekistan: theory and practice………………………………………………………... 82

*Conclusions on the fourth chapter*…………………………….... 89

**CONCLUSION** ...................................................................... 91

**LIST OF REFERENCE**............................................................ 95

**BERKINOV OYBEK TOXIR O‘G‘LI**

# KIBERMAKONDA YOSHLAR MA’NAVIY HAYOTI

**Monografiya**


| | |
|---|---|
| Muharrir: | X. Taxirov |
| Tehnik muharrir: | S. Melikuziva |
| Musahhih: | M. Yunusova |
| Sahifalovchi: | A.Ziyamuhamedov |

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**

Bichimi $60x84^{1}/_{16.}$ “Times new roman” garniturasi, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog’I 6,75. Adadi 100 dona.
Buyurtma № 116

**Zebo prints MCHJda chop etildi.**

Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,

22-harbiy shaharcha

# QAYDLAR UCHUN